

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK**

SULTANOV SHOHRUX ESHBERDIYEVICH

**MUHAMMAD SOLIH XO'JA VA UNING "TARIXIY JADIYATI
TOSHKAND" ASARI MANBA SIFATIDA**

**5A 220204 – Tarixnavislik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya**

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
berildi**

«Tarixshunoslik va manbashunoslik»

Kafedrasi mudiri

Prof. Saidov I.M. _____

Ilmiy rapbar:

dos. Xudoyberdiyev M.

M.O'.

SAMARQAND - 2012

MUNDAREJA

Kirish.....	3-9
I- bob. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari manba sifatida.	
1.1. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari va uning umumiy mazmuni.....	10-18
1.2. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asariga oid manbalar.....	19-23
II- bob. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli.	
2.1. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkent vohasi, aholisi, o'tmishi talqini.....	24-46
2.2. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkent hokimlari va ulardagi boshqaruv tizimining bayoni.....	47-61
2.3. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishining talqini etilishi.....	62-71
III- bob. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning madaniy-ma'naviy hayoti to'g'risida.	
3.1. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida XIX asrning 80 yillarida da faoliyat yuritgan masjidlar, madrasalar tavsifi.	72-90
3.2. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida ta'riflangan Toshkent shahridagi madaniy-ma'naviy hayoti, ziyoratgoh va mozorlar tasnifi.....	91-108
Xulosa.....	109-117
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	118-120

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi:

“Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o’z oldimizga asossiy vazifa qilib qo’yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta’sir ko’rsatadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o’rin to’rishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi”. Ayniqsa bugungi rivojlangan XXI asrda milliy o’zlikni anglash ayniqsa har bir xalq uchun eng muhim vazifa bo’lib qolmoqda. Bunda “milliy tarix” – asosiy qo’llanma bo’lmog’i kyerak deb o’ylaymiz. Zyero, o’zlikni anglash – o’z tarixini anglashdan boshlanadi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’qdir¹.

O’rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnik tarixi G’arb va Sharqning ko’pab olimlari e’tiborini tog’tib kelgani bilan birga milliy qadriyatlar va an’analarni o’zida mujassam qilgan ushbu tarix barkamol avlod tarbiyasida ham muxim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoq zarur.

Toshkent tarixining ma’lum bir qismi o’tmishda yaratilgan tarixiy asarlarda o’z aksini topgan bo’lib, ayni paytda mazkur manbalarning bir qismi hali ilmiy muomalaga kiritilmagan va ularni o’rganish kun tartibidagi dolzarb mavzular qatorida turibdi.

Mavzuning o’rganish darajasi:

Muhammad Solihxo’janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari ham hozirgacha to’liq, o’rganilmay kelayotgan Qo’qon tarixnavisligiga mansub yirik tarixiy asardir. Mazko’r asarning ilmiy qadr-qimmatini shundaki, u bugungi kunda Toshkent tarixiga doir noyob tarixiy asarlardan biridir.

Toshkent qadimdan O’rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan biri bo’lib, uning qadimgi va o’rta asrlardagi tarixi arxeologik topilmalar hamda yozma manbalar asosida ancha yaxshi o’rganilgan. Umuman olganda, Toshkent tarixi aks etgan yozma manbalar ikki ming yillik tarixga ega. Jumladan, mil. av. II asrga oid Xitoy manbalarida «Loyuni», «Yuni», «Chje-shi», «Shi» kabi nomlar bilan tilga olingan bo’lsa, milodiy III asrga oid Xitoy solno-masida Shi hukmdorining Yaosha (daryosi) bo’yidagi qarorgohi aylanasi 10 li (5 km) ekanligi qayd etiladi. Toshkent Sosoniylar (216-651) shahanshohi Shopur I (243-273) farmoni bilan 262 yilda yozilgan «Zardusht ka’basi»dagi bitiklarda hamda III —VII asrlar surdiy manbalarida va Turk hoqonligida zarb qilingan tangalardagi turkiy

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-T.: Manaviyat,2008.

yozuvlarda «Choch» shaklida tilga olinadi. Toshkand degan nom birinchi bo'lib Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Ma'sudiy» asarida, keyinroq Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu l'g'otit turk» asarida Shosh viloyatining poytaxti sifatida keltirilgan. Toshkentning keyingi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ayrim ma'lumotlar o'sha davrlarda arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan mahalliy manbalarda hamda O'rta Osiyo xonliklarida va Toshkentda bo'lgan sayohatchilarva o'lka tadqiqotchilari asarlarida ham mavjud. Biroq, Toshkent tarixiga bag'ishlangan yaxlit mahalliy manbaning bor-yuqligi to'g'risida hali-hano'z bir to'xtamga kelinmagan. Shu sababli bo'lsa kerak ayrim xorijiy tadqiqotchilar hozirgi kunda ham Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingunga qadar bo'lgan davrini yorituvchi mahalliy yozma manbalar yo'q degan xulosa chiqarmoqdalar va faqat rus manbalariga tayanib ish ko'rmoqdalar¹. Garchi Hofiz Ko'hakiy nomi bilan mashhur bo'lgan Sulton Muhammad Toshkandiyning (1490—1584) «Tarixi Toshkand» nomli asar yozganligi ta'kidlansada, biroq asarning o'zi saqlanmagan. Toshkentning ijtimoiy-siyosiy tarixiga doir ma'lumotlar aks etgan XIX asrda yozilgan Abu Ubaydulloh Toshkandiyning «Xulosat ul ahvol» asarining qamrovi muallif hayotida yo'z bergan voqealardan tashqariga chiqmaydi. Shu sababli Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asarini, garchi unda Qo'qonxonligiga katta o'rin ajratilgan bo'lsa ham, bugungacha ma'lum bo'lgan Toshkent tarixiga bag'ishlangan yagona yaxlit tarixiy asar deb aytishga asos bor. Chunki, Qo'qonxonligi tarixi bayonida asosiy voqealarni va viloyatida yo'z bergan siyosiy jarayonlar tashqil etishi hamda asar so'ngida shaharning yo'zaga kelish tarixi va to'rt dahaning alohida geografiktopografik tavsifi asarning chindan ham Toshkent tarixiga bag'ishlanganligini ko'rsatib to'radi. Buni asarning yozilish sababi hamda «Tarixi jadidayi Toshkand», «Tarixi viloyati Toshkand» kabi nomlar bilan nomlanishida ham ko'rishimiz mumkin.

O'tgan davr mobaynida bir qator tarixchilar ham o'z ishlarida «Tarixi jadidayi Toshkand» asariga asosiy manbalardan biri sifatida murojaat qilgan bo'lsalarda, asarni o'rganish takror va asosan bir yoqlama bo'lganligi sabab ularda takrorlanish hollari yuzaga kelgan. Xususan, asardan asosan:

— Toshkentning «chor hokimlik» davri hamda shahar dahalari va darvozalari tarixini o'rganishda,

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida .Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.

— Qo'qon xonligi va xonlik tarkibida bo'lgan Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixini tadqiq etishda,

— Qo'qon xonligining shimoliy hududlari (Turkiston, Avliyoota, Chimkent, Oqmasjid) va Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixini yoritishda foydalanilgan. O'zbekiston tarixi xrestomatiyalarida, ikkinchi bosqichda XX asrning 80-yillaridan hozirgacha, unda Qo'qon xonligi, ayniqsa, ning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga hamda Toshkent topografiyasini yoritishga katta e'tibor berildi¹. Bunday tadqiqotlar mustaqillikka erishilgandan keyingi davrda ham davom etdi. Xususan, yuqorida nomlari zikr qalangan tadqiqotlarda «Tarixi jadidayi Toshkand» asari muallifining hayoti va faoliyati, asarning yozilish sabablari, umumiy mazmuni, Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligi va Buxoro amirligini bosib olishga qaratilgan harbiy harakatlari, ayniqsa da joylashgan ziyoratgoh mozorlar, Madrasa va masjidlar, ko'chalar va boshqa binolar bilan bog'liq ma'lumotlar tadqiq etilmagan yoki to'liq, ochib berilmaganligini ko'rsatishimiz mumkin. Mazkur dissertatsiya ishida masalaning ana shu jihatlariga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, u Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari va boshqa manbalardagi ma'lumotlar asosida Toshkentning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini hamda o'sha davrlardagi manzarasini tasavvur qilishimizga yordam beradi. Muhammad Solihxo'ja hayoti va ijodi hamda uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari alohida tarixiy manba sifatida tadqiqetilmagan. Asar XIX asrning 40-yillarigacha fanga ma'lum bo'lmaganligi sababli O'rta Osiyo tarixini yozma manbalar asosida o'rganish qizg'in pallaga kirgan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi rus va Yevropa sharqshunoslari nazaridan chetda qolgan. Qo'lyozma nusxalarining faqat Toshkentda mavjudligi ham uning keng doirada ilmiy muomalaga kiritilishini qiyinlashtirgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

Mazkur magistrlik dissertasiyaning maqsadi Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ko'rsatilgan manbalarning ahamiyati to'g'risida (XVII-XIX asrlar) ularni chuqur o'rganish va dissertasiyada foydalanish, ma'lumotlarga asoslanib, hozirgi davr mafkurasini yoritishdan iboratdir. Shuningdek Toshkent tarixi nazariy-uslubiy asoslariga tayangan holda, dissertasiyada quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirdi:

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida .Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.

-Mavzuga doir manba va asosiy adabiyotlardan foydalangan holda tadqiqotni holisona yoritish va ilmiy darajasini oshirish;

- Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ko'rsatilgan manbalardan foydalangan holda maqolalar yozish;

- Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ko'rsatilgan manbalarning ahamiyatini dissertasiyaning mazmunida ochib berish;

-Fuqorolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash,O'zbekiston Respublikasi jahon mamlakatlarida eng qadimiy davlatlardan biri ekanligini yoritish.

Dissertasiyaning nazariy-uslubiy asoslari:

Metodologik jihatdan dissertasiyada davlatimiz Prezidenti I.A.Karimov jamiyatda demokratik jarayonlarning milliy mafkurasini shakllantirish mamlakatimiz va xalqimizning o'tmish tarixini yoritish va keng xalq ommasi bu tarix bilan g'oyaviy qurollantirish haqidagi ko'rsatmalarni chuqur o'rganib,bayon qilish .Bundan tashqari “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”,”O'zbekiston XXI asr bo'sag'sida”,”Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi” asarlari tadqiqotning ilmiy-uslubiy tomonidan foydalanish uchun muhim manba sanaladi.

Tadqiqotning manbaviy asoslari:

Tadqiqotning asosiy manbalari Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari, O'rinboev A., Bo'riev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida. - T.: Fan, 1983, Axmedov B. O'zbekistan tarixi manbalari- T.: O'qituvchi,1996., Molliskiy N.G. Toshkent mahalla va mavzelari. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996., Muqminova R. To'rt asr oldingi Toshkent. - T.: Fan, 1984., Muhammadkarimov A. Toshkentnoma. - T.: Movarounnaxr, 2004 kabi manba va adabiyotlar dissertasiya yozilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dissertasiyaning amaliy ahamiyati:

Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi tarixini boyitishga xizmat qiladi. Dissertasiyada qo'llanilgan ilmiy tadqiqot xulosalari tarixini yozishda hamda tarixshunoslik va manbashunoslik fani bo'yicha maxsus kurslar ,o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayorlashda va maro'za amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun imkon beradi.

Dissertasiyaning tarkibiy qismi:

Tadqiqod ishi: Kirish, uchta bob, har bir bob bir necha paragraflarga bo'lib talqin etilgan va xulosa qismi yozilib foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan. Tadqiqot ishining kirish qismida ning qadimdan O'rta Osiyoning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan makon bo'lib kelganligiga atroflicha tafsif berilib, mazkur makon tarixini o'rganish bilan shug'ullangan xorijiy va mahalliy tarixchilarning asarlari talqini to'g'risida bayon qilingan.

Tadqiqod ishining birinchi bobi "Muhammad Solihxo'ja va uning" "Tarixi jadidayi Toshkand asari manba sifatida" deb nomlanib, Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan.

Ishning ikkinchi bobi "Muhammad Solihxo'ja va uning" "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning XIX asrdagi ijtimoiy siyosiy ahvoli deb nomlanadi. Mazkur bobda XIX asrdagi Toshkent aholisi, o'tmishi, hududda hukmronlik qilgan hokimliklar va ulardan boshqaruv tizimining o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Tadqiqod ishining uchinchi bobi "Muhammad Solihxo'ja va uning" "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Toshkent ning madaniy-ma'naviy hayoti deb nomlagan. Ishning ushbu bobida XIX asrning 80- yillarida faoliyat yuritgan masjidlar, madrasalar ziyoratgoh va mozorlar to'g'risida ma'lumotlar bayon qilinib, Toshkent dagi madaniy ma'naviy hayotga oid ma'lumotlar mukammal bayon etilgan.

Dissertasiyaning xulosa qismida:

Tadqiqot ishining xulosa qismida ,reja bo'yicha bayon qilingan barcha masalalar umumlashtirilib, mavzuni yoritishda foydalanilgan barcha adabiyotlar va manbalarning umumiy ahamiyati ko'rsatib berilgan. Toshkentning o'sha davrdagi ma'naviy hayotining muhim qismini tashkil qilgan tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud va ular ko'proq XIX asrda Toshkentda yashab o'tgan tariqat peshvolari to'g'risida yozilganlarda o'z aksini topgan. Keltirilgan ma'lumotlar mazkur toifaning faqat tariqat doirasidagi faoliyati bilan emas, balki diniy amallarda hamda mudarrislik bog'dorchilik dehqonchilik va kitobchilik kabi turli sohalarda mehnat qilib tirikchilik o'tkazganidan dalolat beradi. Toshkent qadimdan O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan biri bo'lib, uning qadimgi va o'rta asrlardagi tarixi arxeologik topilmalar hamda yozma manbalar asosida ancha yaxshi o'rganilgan.

I-bob. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari manba sifatida.

1.1 Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari va uning umumiy mazmuni.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarining yozilishi sabablarini quyidagicha ko'rsatish mumkin. Birinchidan, Muhammad Solihxo'ja hali yoshlik yillarida, bobosi qo'lida o'qib yo'rgan kezlaridayoq tarix ilmiga ko'proq qiziqqanligini ta'kidlaydi. Shu sababli uning qo'lida O'rta Osiyo tarixini yorituvchi ko'p manbalar qatog'ida Turkiyada yaratilgan umumiy tarixga doir «Qaysarnomai Usmoniy», «Tarixi xulafoi Istanbo'liy» kabi tarixiy asarlar ham mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, u O'rta Osiyo tarixiga doir asarlarni yig'ishga ham kirishgan. Jumladan, 1295/1877 — 1878 yilda Buxoro amirdigining yillik to'lovini Toshkentga olib kelgan do'sti Muhammad Sayd to'qsabodan o'zi buyurtma bergan «Tarixi Sayid Rahim» va «Tuhfat ul-xoniy» asarlarini olib kelganligi haqida so'raydi. Muhammad Solihxo'janing qo'lida O'rta Osiyo tarixiga doir ko'plab tarixiy asarlari bo'lgan. Ikkinchidan, Muhammad Solihxo'janing tarix ilmini yaxshi bilishi uning do'stlari orasida ham ma'lum bo'lgan. Shuning uchun muallifning do'stlari va tanishlari undan Toshkent tarixi haqida maxsus asar yozishni boshlashni ko'p bor so'raganlar¹. Fikrimizcha, Muhammad Solihxo'janing tarixni yaxshi bilishi Toshkentda bo'lgan yevropaliklar orasida ham ma'lum bo'lgan. Asarda muallifning bir necha bor rus ziyolilari bilan Toshkent va Qo'qon xonligi tarixi mavzusida suhbatlashgani keltirilgan. Shunday suhbatlarning biri N. Pantusov (muallif uni tarjimon, o'zbek va fors tili bilimdoni «Fatnu-sufto'ra» deb tilga oladi) bilan bo'lgan. Muallifning yozishicha, bu shaxs «Tarixi Shoxruxiy» asarining tadqiqotchisi bo'lib, u Muhammad Solihxo'jadan ushbu asarning ikki nusxasini (birinchi va ikkinchi taxririni) ko'rib, bo'sh joylarini to'ldirib berishini so'ragan. Uchinchidan, Muhammad Solihxo'janing o'zi asarning yozilish sababi do'stlarining iltimosi bilan birga Toshkent tarixiga bag'ishlangan maxsus asarning yuqligi deb ko'rsatadi. O'zining so'zlari bilan aytganda, muallif Samarqand va Buxoro shaharlari tarixiga bag'ishlangan «Tarixi Narshaxiy», «Qandiya», «Samariya» asarlariga o'xshash bir kitob yozishni orzu qilib yurgan. Muhammad Solihxo'ja «Tarixi jadidayi Toshkand» asarini Buxoroda tahsilni tamomlab Toshkentga qaytgandan so'ng, taxminan 1 yil o'tgach, xijriy 1279 yil zulki'da oyida (1863 yil, aprel — may) yoza boshlagan va unga 25 yildan ortiq davr ichida, ayrim

¹ Munirov Q., Irisov A., Nosirov A. Toshkent tarixida ba'zi siymolar. - T.: Fan, 1983. - 54 b.

qismlarini oradan yillar o'tkazib, qayta-qayta qo'lga olib, to xijriy 1307/1889—1890 yilgacha qo'shimchalar kiritib borgan. Ta'kidlash joizki, «Tarixi jadidayi Toshkand» XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligida yaratilgan eng yirik asardir. Ungacha bo'lgan, ya'ni XIX asrning 50-yillarida hamda muallif yashab ijod qilgan 60-80-yillarda yozilgan barcha asarlar hajmi jihatdan ancha kichik. Bugungi kunda «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining uchta qo'lyozma nusxasi ma'lum bo'lib, uchala nusxa ham O'zR FA Sharqshunoslik instituti tida saqlanadi. Ulardan birinchisi 7791 raqamli nusxa bo'lib, muallif qo'li bilan ko'chirilgan¹. A. Nosirov bergan ma'lumotlarga ko'ra, u 1947 yilda toshkentlik Habibo'lloxo'jadan Sharqshunoslik instituti uchun 3000 so'mga sotib olingan. Qo'lyozma Qo'qon qog'oziga nasta'liq xatida, qora siyohda yozilgan bo'lib, muqovaisi jigar rang charmda, xati va siyoh rangi boshidan oxirigacha bir xil emas. Qo'lyozma o'lchami 13x20 sm, matn o'lchami 7x14 *sm* hajmda bo'lib, har bir sahifa 13 qatog'dan, jami 1040 varaqdan iborat (2080 bet). Shundan 870a —873a varaqlar bo'sh qoldirilgan, poygirlari yuq. Asarning mundarijasiga kiritilgan mavzularning ayrimlari qizil siyoh bilan ajratib ko'rsatilgan. Mazkur nusxaning 1a va 10406 varaqlariga kitob egasining ismi yozilgan doirasimon muhr bosilgan. Muhammad Solihxo'ja asarning yozilishida Xudoyorxonning o'g'li Sayid Muhammad-aminbek homiylik qilganini tilga oladi. Sayid Muhammadaminbek muallifning yaqin tanishlaridan bo'lib, Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li to'g'ridan to'g'ri muallif o'z asarini Sayid Muhammad aminbekka bag'ishlab yozganligini ta'kidlaydi. Fikrimizcha, asarni Muhammadaminbekka bag'ishlash fikri muallifda ancha kech, ya'ni o'zining Qo'qon shahzodalari orasida eng yaqin kishisi Nasriddinbek vafotidan keyin (1299/1882) tmuhammadgan bo'lishi kyerak. Bundan tashqari, muallif o'z homiysini «xoqon ibn xoqon» deb tilga olganda otasidan so'ng qisqa vaqt xonlik qilgan Nasriddinbekni nazarda to'tgan edi. Asarning nomi «Tarixi jadidayi Toshkand» deb atalishi bir necha ta'kidlanadi. yana bir joyda esa, «Tavorixi muntaxab», boshqa bir joyda esa «Tarixi viloyati Toshkand» deb tilga olinadi. Garchi mazmunan uchinchi nom asarga to'g'riroq kelsada, «Tarixi jadidayi Toshkand» nomini muallif ko'p tilga oladi. Keyinchalik bu ilmiy adabiyotlarda asarning shu nom bilan mashhur bo'lishiga olib keldi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asari Qo'qon xonligida keng tarqalgan tarixnavislik an'analari asosida, fors-tojik tilida yozilgan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan barcha asarlarda bo'lganidek rus ma'murlari va boshqa

¹ Munirov Q., Irisov A., Nosirov A. Toshkent tarixida ba'zi siymolar. - T.: Fan, 1983. - 54 b.

shaxslar nomlari: Chyernyaev, Fon Kofmon (ba'zida, Kovufmon) -Fon Kaufman, Iskobluf - Skobelev, Rumanovski —Romanovskiy, Koljanuvski — Krijanovskiy, Vimburx — Veynberg, Fatnusuf — Pantusov; shahar nomlari: Muskub —Moskva, Urunburuniya yoki Urunburx — Orenburg; tyerminlar: jondorol —genyeral, odyo'tont — adyo'tant, kunsul — konsul va boshqa so'zlarning mahalliy talaffo'zdagi shakllari uchraydi. Bundan tashqari, asarda ayrim voqea ishtirokchilarining o'z tilida aytgan so'zlari va ba'zi bir iboralar o'zbek tilida keltirilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»ning muallif dastxatidan ko'chirilgan birinchi nusxasi ikki kitobdan iborat bo'lib, asarning ikkinchi jildini tashqil etgan. Bu nusxa 1935 yil sentyabrdan 1936 yil 17 martgacha Nabiraxo'ja Sayidxo'ja o'g'li tomonidan muallif dastxati nusxasidan aynan ko'chirilgan. Ularning qo'lyozmalari o'lchami 15x21 sm, matn o'lchami 10,5x16,5 sm hajmida, har bir sahifa yozuvi 11 qatordan, poygirlar qo'yilib, rus fabrika qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Birinchi kitob 302 varaqdan iborat va asl nusxaning boshlanishidan 297 varaq tushirib qoldirilgan. Mazkur nusxa asar ikkinchi jildining birinchi bobi bo'lib, u «Jannatmakon Farg'ona mamlakatining oliynasab sultonlari» bobidan boshlangan. «Tarixi jadidayi Toshkand»ning vaqt jihatdan eng keyingi nusxasi Nabiraxo'ja nusxasidan ko'chirilgan bo'lib, bu ham asarning ikkinchi jildini o'z ichiga oladi. Boshlanishi va oxiri Nabiraxo'ja nusxasi bilan bir xil¹. A.Nosirovning quyidagi eslatmasi bor: «...Ushbu «Tarixi jadidayi Toshkand»ning daftari soniysi «Ibtidoi salotini mamoliki Farg'ona»dan boshlanib, shul joyda oxiriga etib tamom bo'ldi. Faqiru haqir Abdulloh mahdum Toshkandiy (Nosirov). Muallifning o'zi yozgan aslidan 1935/36 yilda Nabiraxo'ja Sayidxo'ja o'g'li tomonidan ko'chirilgan nusxadan aynan yozildi. 1940 yil noyabr, shahri Toshkand». Nasta'liq xatida o'quv daftariga yozilgan ushbu nusxaning qo'lyozma o'lchami 19x28 sm, matn o'lchami 14x24 sm hajmda. Har bir sahifasi 19 qatordan, poygirlari yuq. Bu nusxani ko'chirish 1940 yil iyunda Toshkent shahar Markaziy ko'tubxonasi (hozirgi Alishyer Navoiy nomidagi O'zbekistan milliy ko'tubxonasi) mudiri ko'rsatmasi bilan Muhammad Hasan Buxoriy tomonidan boshlangan². Qolgan qismi, ya'ni 294a — 376a varakdari esa Abdulla Nosirov tomonidan 1940 yil noyabr oyida ko'chirib tugatilgan. Ushbu nusxaning oxirgi uch varag'iga (377a —380b) 1950 yili Sharqshunoslik instito'ti ilmiy xodimi Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li

¹O'rinboev A., Bo'riev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida.- T.: Fan,1983.-56 b.

² Sultanov O'. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand"asari.- T.:O'zbekiston,2009.106-115 b

tomonidan ko'k qalamda «Tarixi jadidayi Toshkand» asariga taqriz va ilova yozilgan. Ilovada Muhammad Solihxo'jaga zamondosh bo'lgan toshkentlik 16 nafar shoir haqida ma'lumot berilgan. Asarning mazkur nusxasi ayrim kamchiliklardan xoli emas. «Tarixi jadidayi Toshkand» asari umumiy tarix uslubida yozilgan bo'lib, Muhammad Solihxo'janing o'zi bir necha joyda asar muqaddima, 4 rukn va xotimadan iboratligini va shartli ravishda ikki jildga bo'linganligini ta'kidlaydi. Lekin, aslida, asarning to'zilishi muallif aytganidan ancha murakkabroq va muqaddimaning o'zi yana bir qancha tarixiy davrlarga va qismlarga bo'lingan. Muallif kitobning 3786-varaqhoshiyasida ta'kidlashicha, u o'z asarini Avaz Muhammad Attor Huqandiy singari Oltin Beshikdan emas, balki «Ravzat us-safo» muallifi Mirxond singari qadimgi shoxslar va sulolalar tarixidan boshlaydi. Muqaddimada tarix Odam Ato davridan boshlab to XVIII asrgacha (O'rta Osiyo va unga qo'shni mamlakatlar tarixi) bayon qilingan. Albatta, asarning umumiy tarix uslubida yozilishi hajmining ortib ketishiga sabab bo'lgan. Lekin, uning oldingi qismlarida O'rta Osiyo tarixiga doir umumiy ma'lumotlar o'z aksini topganligi va kompilyativ harakterda bo'lishiga qaramay, ular Sharq tarixnavislik an'anasi uslublarining o'ziga xos xususiyatlari va XIX asrda saqlanib qolgan jihatlarini hamda Markaziy Osiyo va Sharqning boshqa musulmon mamlakatlarida hukmronlik qilgan sulolalar genealogiyasini o'rganishda qo'l keladi. «Tarixi jadidayi Toshkand» ham Allohga hamdu sano, Odam Ato va Momo havoning yaratilishi bilan boshlanadi, so'ngra o'tgan payg'ambarlar tarixi, Muhammad (s.a.v.) hamda dastlabki to'rt halifa bilan bog'liq voqealar keltirilgan. Payg'ambarlar tarixi 206 -21a-sahifalarda, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) va choriyorlar madxi ikkinchi jild-ning 3616 —3646-sahifalarida ham nazmda takror keltirilgan. So'ngra oddiy unvon va Bismilloxdan keyin sulolalar tarixi yoritilgan.¹ Bunda Muhammad Solihxo'ja Istanbulda Sulton Abdulmajidxon ibn Sulton Maxmudxon II (1839—1861) davrida yozilgan «Tarixi xulafoi Istanbo'li» nomli asarda keltirilgan payg'ambarlar va shohlar nasabnomasidan foydalanganligini ta'kidlab o'tadi. Shu asosda asardagi sulolalar tarixi ikkiga islomgacha bo'lgan qadimgi Eron shoxlari va islomdan keyingi Umaviylar, Abbosiylar hamda ularga zamondosh mahalliy sulolalarga ajratilgan. Islomdan keyingi sulolalar Xulafoi roshidin davridan boshlanib, musulmon Sharq mamlakatlarining O'rta asrlar tarixi bilan ulanib ketadi. Markaziy Osiyo tarixi Abbosiy xalifalar davrida Eron va Movarounnaxrda hokimiyatning mahalliy

¹ Molliskiy N.G. Toshkent mahalla va mavzelari. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. - 23 b.

sulolalar qo'liga o'tishi davridan boshlanadi. Bunda Mirxondning «Ravzat ussafo» asari asosida islomdan keyingi 17 ta sulola (tabaqa) to'g'risida kengroq ma'lumot berilgan. O'n ettinchi tabaqa, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Turkistonzamin va Dashti Qipchoqda hukmronlik qilgan toifa bo'lgan va bu hudud tarkibiga Movarounnahr va Farg'onadan to Eron, Saraxs, Hirot va Kobo'lgacha; Xorazm, Xuroson, Marv, Balh Badaxshon va Qo'lobdan to Kashmir, Tibet va Chingacha; shimolda Turkistonzaminidan sharqda Chinu Mochingacha; Kuhna Tulufon (Turfon), Yorkand, Xo'tan, Koshgar, Oqsu, Xulja (Rulja), Ashfaradan to Avliyoota, Turkiston, Ordmasjildan to Rusiya yerlarigacha; g'arbda Rahim va Kumush qal'asigacha bo'lgan yyerlar kirgan. Muallif ushbu hududda hukmronlik qilgan uchta katta sulolani ajratib ko'rsatadi: Yofas ibn Nuh va uning avlodlari (49a-56a-varaqlar); Ugo'zxon va uning avlodlari (56a-60a-varaqlar); Chingizxon va uning avlodlari (60b-95b-varag'lar). Shuningdek Firdavsiyning «Shoxnom» asaridagi qadimgi Eron va Turonning afsonaviy shoxdari (Jamshid, Tur, Afrosiyob, Iraj, Faridun, Ho'shang) va Sosoniylar (216-651) shoxdari (Anushyervon, Bahrom I, Parviz, Xurmo'z, Shopur I, Shopur II, Ardashyer, Bahrom II) hambayon etilgan. Uchinchi sulola tarixida bevosita Chingizxon va uning avlodlari hukmronlik qilgan to'rt ulus Ulug' yurtida Uqtoyxon, Dashti Qipchoqda Jujxon, Movarounnahrda Chig'atoyxon, Eronda Hulaguxon davri ixchamgina qilib yoritilgan. Navbatdagi qism esa davriy tartib asosida Amir Temur va uning avlodlari davriga bag'ishlangan bo'lib, ma'lum bir reja asosida yozilmaganligi sezilib to'radi. Jumladan, asosan Amir Temur faoliyatining dastlabki yillari qisqacha yoritilgan¹. «Ravzat us-safo» asarida batafsil keltirilgani aytilgan. Fikrimizcha, bu xujjat Muhammad Solihxo'ja asarining ikkinchi jildida (Qo'qon xonlari nasabini Zaxiriddin Muhammad Bobur va u orqali Amir Temurga bog'lash uchun) Qo'qon xonlari tarixini yoritishdan oldin Amir Temur va temuriylar tarixiga murojaat qilgani bilan bog'liq. Unda Amir Temurning harbiy yurishlari, Fargona hukmdori Umarshayx mirzo (1462—1493) va Zahiriddin Muhammad Bobur (1493—1530) davrida Movarounnaxrdagi siyosiy voqealar, Bobo'ning Shayboniyxonga (1499— 1510) qarshi ko'rashlari birmuncha keng yoritilgan². «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Markaziy Osiyoning Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang'itlar hukmronligining dastlabki davri muallif tomonidan o'ziga xos ketma-ketlik asosida yozilgan.

¹ Axmedov B. O'zbekistan tarixi manbalari- T.: O'qituvchi, 2001. - 244 b.

² Munirov Q., Irisov A., Nosirov A. Toshkent tarixida ba'zi siymolar. - T.: Fan, 1983. - 54 b.

Muhammad Solihxo'ja Nodirshoxning (1736—1747) 1150/1737 — 1738 yilda Movarounnaxrga uyushtirgan xarbiy harakatlarini aniqroq yoritish maqsadida uning Eron va Iroqda hokimiyatni qo'lga kiritishidan to o'g'li Rizoqulining ushbu hududda olib brogan urushlarigacha kengroq bayon qilingan. Undan so'ng Nodirshohning Movarounnaxr va Xorazmga yurishi haqida so'z ketadi. XVIII asr o'rtalari siyosiy voqealarida muallif Buxoro va Qo'qon xonligi munosabatlariga ham to'xtalib, «Tarixi Shohruxiy», «Tarixi jahonnamoyi» singari boshqa manbalarni ham muomalaga tog'tgan va siyosiy voqealar bayonida: Nodirshoh yurishidan so'ng Muhammad Rahimbiyning (1753—1757) markaziy hokimiyatni o'z qo'liga olish yo'lidagi harakatlari va Abo'lfayzxon (1711 — 1747) bilan munosabatlari; Qo'qon xoni Abdurahimbiyning (1721 -1734) yilda Samarqandni zabt etishi va Shahrisabz hokimlari bilan qarindoshlik aloqalarini bog'lashi natijasida o'zaro ittifoqning yuzaga kelishi; Muhammad Rahimbiyning Qo'qon xonlari bilan munosabatlari, xususan, 1159/1746 yilda Abdulkarimbiy (1734-1750) hamda 1168/1754-1855 yilda Yerdonabiy (1751, 1753—1762) bilan bo'lgan sulh sabablari va oqibatlarini; Muhammad Rahimbiyning XVIII asrning 40-yillari oxiri va 50-yillarida Ashtarxoniylar qo'l ostida bo'lgan sobiq mulklarni birlashtirish yo'lida Samarkand, Jizzah Uratapa, Xo'jand, Qarshi, G'uzorga qarshi yurishlari aks etgan. Muhammad Raximbiydan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Doniyolbiy (1757—1785), Shohmurodbiy (1785-1800) va Amir Haydar (1800-1825) davri tarixida esa Buxoro amirligining Jizzah Uratapa va Xo'jand masalasida Qo'qon xonligi bilan bo'lgan urushlari qisqa yoritilgan. Asardagi ma'lumotlarga qaraganda, jiddiy to'qnashuvlar Qo'qon xonligi taxtiga Olimxon chiqqandan so'ng yo'z bergan. Muhammad Solihxo'ja Amir Haydar va Norbo'tabiy (1763—1798) davrida Buxoro va Qo'qon munosabatlari o'zaro kelishuv va tinchlikka asoslanganligini ta'kidlaydi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining birinchi jildi Buxoro taxtiga Amir Nasrulloning (1826—1860) chiqishi bilan yakuniga etadi. Asarning ikkinchi jildida esa Qo'qon xonligi va unga qo'shni hududlar tarixi, O'rta Osiyo xonlik-larining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Qo'qon xonligining tugatilishi yoritilgan bo'lib, 1282-1307/1865-1889 yillarda va Turkiston o'lkarsida yo'z bergan ayrim voqea hodisalar yilma yil bayon qilingan. Ta'kidlash joizki, asarda O'rta Osiyo tarixining boshqa sohalariga oid ma'lumotlar ham talaygina. Jumladan, asardagi mintaqa tarixiga doir toponimlar — tog'lar, daralar, dovonlar, daryo va qo'l, suro-rish tarmokdari nomlari mintada toponimiyasi hamda tarixiy geografiyasini o'rganishga doir muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek tarixiy voqealar bayonida tilga olingan

O'rta Osiyoning o'sha davrdagi holatini ko'rsatuvchi ma'lumotlar uchraydi. Xususan, cho'l va dashtlar — Cho'li Mirzo (Mirzachul), Nurota dashti, Kuhna Shyeroz chuli; suv havzalari — Amuya (Amudaryo), Sayxun, Sir (Sirdaryo), Kuhak (Zarafshon), Farak (Chirchiq), Xitoy soyi (Qirrizistondagi Olabuqa daryosi), Qo'qon daryosi (Naymancha soyi), Xitoy soyi (Namangan hududidagi soy), Birqozon qo'li (?), Olashan qo'li (?); TOG' tizmalari, dara va dovonlar — Oloy, Jata va Mo'g'ul (Talas Olatovi, ba'zan Chotqol tizmasi), Zartalosh (Pekom), Boboni uf (Chotqol), Qurama, Oksokta, Jizzax tog'lari, Koson tog'lari, Panjkent tog'lari, Salimsoq dovoni, Kandır (Qamchiq), Kumbel (Qamchiq dovonidagi o'tish yo'li), Ilon o'tti darasi xayda Toshkent toponimiyasini o'rganishga oid ko'pab joy nomlari tilga olinadi. Bundan tashqari, Qo'qon xonligidagi mansablar va unvonlarni o'rganishga doir harbiy mansablar va unvonlar (*amirlashkar, mingboshi, qo'shbegi, bahodirboshi yoka botirboshi, bahodir, tupchiboshi, ponsadboshi, yo'zboshi, ellikboshi, daxboshi, yasovul, maxram, sardor, sarhang*), saroy mansablari (*otaliqbeglarbegi, biy, devonbegi, inoqparvonachi, shirovul, sharbatdor, xudaycha, eshikoraboshi, dasturxonchi, mirzoboshi, munshiy, risolachi, oftobachi, dodxoh, tukrabo, farmonchi*), ma'muriy mansablar (*voliy, hokim, qo'rg'onbet, oqsoqol, zakotchi, mextar, xazinachi, sarkor*) va diniy mansablar (*shayx ul-islom, sozikalon, qozi, qozi askar, a'lam, sudur, naqib, muftiy, oxund, muxtasib, rais, mudarris, mo'tavalli, imom, muazzin*) hamda ular egalarining imtiyozlari hamda vazifalariga oid ma'lumotlar mavjud¹. «Tarixi jadidayi Toshkand»da ayrim jo'z'iy kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Chunonchi, muallif Zahiriddin Muhammad Bobo'ning ona tomondan nasabini Yunusxon ibn Esonxon ibn Bo'toxon deb ko'rsatib yanglishgan, to'g'risi quyidagicha: Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sheralixon. Shuningdek Hakimbiy otaliqning 1156/1743—1744 yili vafot etganligini tilga olsada, keyingi sahifada Nodirshoh tomonidan 1159/1746—1747 yili otaliq etib tayinlangani haqida so'z ketadi². Aziz parvonachining Qo'qonga yuborilgan yilini 1266 yil shavvol (1850 yil, avgust-sentyabr) oylarida deb ko'rsatib, 1270/1853-54 yillar voqealarida uni ikkinchi bor Toshkent hokimi sifatida tilga olib yanglishgan. Aslida esa Aziz parvonachining Qo'qonga yuborilishi va o'ldirilishi 1264/1847 yilda yuz bergan.

¹ Vohidov Sh. Qo'qon xonligida unvon va mansablar // Sharq yo'lduzi. -Toshkent, 1995 y.214-221 bet

² Yunusxo'jaeva M., Mirismoilova U. Toshkent tarixiga doir hujjatlar. - T.: Fan, 1983. - 19 b.

1.2 Muhammad Solihxo'janing «Tarixi Jadidayi Toshkand» asariga oid manbalar.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida qadimdan boshlab umumiy tarixga oid juda katta davr qamrab olingan va shundan kelib chiqib, muallif barcha tarixchilar singari o'zigacha bo'lgan Markaziy Osiyo va Sharqning musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy va ma'navii tarixiga doir asarlardan keng foydalangan. Bundan tashqari, Muhammad Solihxo'janing o'zi ham Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi bo'ylab qilgan sayohatlari mobaynida asar uchun kyerakli ma'lumotlarni to'plab yo'rgan. Bu haqida muallifning o'zi Muhammad Alixondan Sulton Sa'idxongacha bo'lgan voqealarni ko'rgan ishonchli kishilardan eshitganlari asosida, keyingi davr voqealarini o'z ko'zi bilan ko'rib hamda bevosita voqea ishtirokchilari bo'lgan suhbatdoshlarining hikoyalari asosida yozganligini ta'kidlaydi. «Tarixi jadidayi Toshkand» Sharqtarixnavisligi uslubi va Qo'qon tarixnavisligi maktabi doirasida yozilgan tarixiy asarlarga yaqin to'radi. Xususan, «Muntaxab o't-tavorix» asari (muallifi Muhammad Hakimxonto'ra) va «Tarixi jahonnamoyi» asarining (muallifi Avaz Muhammad Attor Xukandiy) asosiy manbalarini xalq og'zaki ijodi (naql, qissa, rivoyat), diniy elementlar va motivlar (oyatlar va xadislar), o'tmishda yaratilgan asarlar, zamondosh mualliflarning asarlari, Sharqning mashhur shoirlari she'rlaridan namunalar va tarix-xronogrammalar tashkiletgan. Bunday o'xshashlik «Tarixi jadidayi Toshkand» asarid ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Solihxo'ja asarda o'zi foydalangan manbalarni ayrimo'rinlarda barchasini, ayrim hollarda esa takror holda tilga oladi. Shular asosida «Tarixi jadidayi Toshkand» asari manbalarini mazmuniga ko'ra quyidagicha turkumlash mumkin:

- tarixiy, geografik va geokosmografik asarlar;
- biografik asarlar;
- ma'navii-ma'rifiy va adabiy asarlar;
- diniy asarlar (tasavvuf, aqida);
- orzaki xabarlar (rivoyatlar va muallifning suhbatdoshlaridan eshitganlari);
- muallifning o'z ko'zi bilan ko'rganlari.

«Tarixi jadidayi Toshkand»ning manbalari orasida tarixiy va tarixiy-geografik asarlar alohida ajralib to'radi. Ularga turli davrlarda yaratilgan «Tarixi Tabariy», «Jome at-tavorix», «Tarixi jahonqo'shoy», «Tarixi viloyati Bayzoqbiy», «Zafarnoma» (Shomiy), «Zafarnoma» (Yazdiy), «Ravzat us-safo», «Tarixi Farishtai Akbarshohiy», «Tarixi Akbarshohiy», «Tarixi Avrangzibshohiy», «Tarixi Muqumxoniy», «Tuhfat ul-xoniy», «Tarixi Nodir-xoniy», «Tuhfat o't-tavorixi xoniy» «Tarixi Shohruxiy» asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur manbalarni «Tarixi jadidayi Toshkand» asari bilan solishtirib chiqqanimizda, Muhammad Solihxo'ja odan Temuriylargacha bo'lgan davr tarixini yoritishda «Tarixi Tabariy», «Ravzat us-safo» va «Tarixi jahonnamoyi» asarlariga tayangani ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham «Tarixi jadidayi Toshkand» asari shu qismining tarkibiy to'zilishi mazkur asarlar mazmuniga juda yaqin. Amir Temur tarixini yoritishda esa, «Zafarnoma», «Ravzat us-safo» va «Boburnoma» asarlariga tayangan. Bu yerda Muhammad Solihxo'ja «Zafarnoma» asarlari va uning mualliflarini ajratib

ko'rsatish uchun Nizomiddin Shomiyning «Sohibi Zafaromai munshiyi Amir Temur» deb, Sharafuddin Ali Yazdiyning esa, «Muallifi devoni tarixi Zafaromai Amir Temur» deb tilga oladi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Markaziy Osiyoning Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang'itlar hukmronligining dastlabki davri Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» va Mir Muhammad Vafo Karminagiyning «Tuhfat ul-xoniy» asari asosida bayon qilingan. Chunonchi, Shayboniylar va Ashtarxoniylar tarixida muallif «Tarixi Muqimxoniy» asarining tarkibiy qismlari hisoblangan uchta maqolani (ayrim o'zgartirishlar bilan) shundayligicha kiritadi. Ular quyidagicha:

Birinchi maqola «Abulmuzaffar Sayid Muhammad Muqim Bahodir Sultonning nasabi va buyuk ajdodlari zikri muqaddimasi» deb atalib, u «Tarixi Muqimxoniy» asarining muqaddima qismi va birinchi maqolasini o'z ichiga olgan. Bu maqola Muhammad Muqimxonning ajdodlariga bag'ishlanganligi sababli unda Chingizxon o'g'illaridan Juji avlodlarining Abulxayrxon tomonidagi xonlar va sultonlar hamda Shayboniylar davri bayon etilgan. Ikkinchi maqola «Ashtarxoniy sultonlarning Shayboniylardan so'ng Movarounnahrda ulusi bayoni» deb nomlanib, bu «Tarixi Muqimxoniy» asarining aynan ikkinchi maqolasidir. Unda Ashtarxoniyning ajdodi Joni Muhammad Sultonning Buxoroga kelib, Iskandarxonning (1560—1583) qizi Zuhrebegimga uylanishidan to Subhonqulixonning (1702—1711) Buxoroda 77 yoshda vafot etgunigacha bo'lgan voqealar yoritilgan¹. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida keltirilgan bu ikki maqoladagi voqealar matni va «Tarixi Muqimxoniy» asaridagi matni solishtirganimizda, ularning deyarli bir xilligi ma'lum bo'ldi, fakat «Tarixi Muqimxoniy»da keltirilgan ayrim she'riy parchalar va yana ayrim kichik xabarlar «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida tushirib qoldirilgan, xolos. Shuningdek Muhammad Solihxo'ja asaridagi bir bayt va Abdulmo'min xonning otasi o'limini eshitib, Mashxaddan Buxoroga kelishiga doir ma'lumot «Tarixi Muqimxoniy»da yoritilgan. Uchinchi makola «Abulmuzaffar Sayid Muhammad Muqim Bahodirxon ulusi zikri» deb nomlanib, unda asardagi tarixiy voqealar tartibi «Tarixi Muqimxoniy» matniga qaraganda ancha farq qiladi. Muhammad Solihxo'ja Sayid Muhammad Muqimxonning Balxda 23 yil hukmronlik qilganini ta'kidlagach, Mir Muhammad Vafo Karminagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Mirzo Muhammad Maxdixonning «Tarixi Nodirxoniy» asarlariga murojaat qiladi va ularga tayanib, Abulfayzxonning (1711 — 1747) taxtga chiqishidan boshlab, Eron shohi Nodirshohning Movarounnahr hududiga istilochilik yurishlari, Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi hamda Muhammad Rahimbiy, Doniyolbiy, Shohmurodbiy va Amir Haydar davri tarixini yoritadi. Tilga olingan XVIII asr O'rtalaridagi siyosiy voqealar bayonida muallif Buxoro va Qo'qon xonligi munosabatlariga ham to'xtalib, «Tarixi Shohruxiy», «Tarixi jahonnamoy» singari boshqa guruhdagi manbalarni ham muomalaga tog'tgan. «Tarixi Akbarshohiy», «Miftoh o't-tavorix» va «Tarixi Avrangzibshohiy» asarlaridan esa, Hindistonda hukmronlik qilayotgan Bobur avlodlari to'g'risida so'z yuritganda foydalangan, Muallif foydalangan geografik geokosmografik asarlarni «Ajoyib al-bo'ldon», «Suvar al-aqolim», «Qandiya», «Ajoyib o't-taboqot», «Tarixi aqolimi sab'a», «Tarixi Mullazoda», «Tarixi Sayid Rohim» kabi asarlar tashkil etadi². Muhammad Solihxo'ja mazkur asarlarga mamlakatlar va o'lkarlarni geografik iqlimlarga

¹ Muhammadkarimov A. Toshkentnoma. - T.: Movarounnaxr, 2004. - 170 b.

² Abu Tohirxoja. Samariya // Meros. - T.: Kamalak1991. - B. 7-81.

ajratishda, mintaqa geografiyasi — daryo, ko'l, tog'lar va tog'li mavzularga izoh berishda murojaat qilgan. Ayniqsa, Toshkent atrofi tabiati, Toshkent viloyatidagi tog'lar va ulardagi konlar, ma'danlar to'g'risida yozishda «Ajoyib o't-tabaqat» va «Haft iqlim» asarlaridan ma'lumotlar keltirib, so'ngra o'zi yashagan davrga oid ma'lumotlarni havola qiladi. Shuningdek Muhammad Solihxo'ja uchun Qo'qon tarixnavisligida muhim o'rin to'g'an Zaxiriddin Muhammad Bobo'ning «Boburnoma» asari ham tarixiy, ham geografik manba vazifasini o'taganligini qayd etib o'tish joiz. Muhammad Solihxo'janing ikkinchi va uchinchi guruh manbalarini Firdavsiyning (934—1030) «Shohnoma», Jaloliddin Rumiyning (1207 — 1273) «Masnaviy-ma'naviy», Zayniddin Vosifiyning (1485—1551 yoki 1566 i.) «Tazkirat ush-shuaroi Vosifiy» («Badoe ul-vaqoe»), Mavlono Abdurahmon Mushfiqiyning (vaf. 1588 i.) «Soqiynoma», Abdulkarim Namangoniyning (Fazliy, XVIII asrning 2-yarmi — XIX asrning 1-yarmi) «Tazkirat ush-shuaroi Umarxoniy», Gulxaniyning (XVIII asr oxiri — XIX asrning 20-yillari) «Zarbo'lmasab» kabi biografik va adabiy, ma'naviy-axloqiy asarlar tashkil etadi. Muallif tarixiy voqealar va jang tafsilotlari bayonida Firdavsiy, Jaloliddin Rumi, Hofiz Shyeroziy, Bedil va Mavlono Mushfiqiy kabi shoirlar qalamiga mansub baytlardan hamda «Kalila va Dimna», «Zarbo'lmasab» asarlaridagi hikoyalardan ham keltirgan. «Me'rojnom», «Qasidai Bo'rda», Fariddin Attorning «Nasihatonoma», Jomiyning «Tuhfat ul-Ahror», Ali Safiyning «Rashohat aynil-xayot», shuningdek «Manoqib Xoja Ahror», So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojziyn» kabi asarlaridan muallif tasavvufiy va diniy fikr-mulohazalarida foydalangan. Manba bo'lib xizmat qilgan ogzaki xabarlar orasida turli rivoyatlar va muallifning zamondoshlaridan eshitganlari ham bor. Oltin Beshik Iskandar Maqduniy, Hazrat Ukkosha, Janodil, Boboi Mardak to'g'risidagi rivoyatlar shular jumlasidandir. Muhammad Solihxo'ja foydalangan manbalardan yana biri — bu tarixiy voqealarning ishtirokchilari va ularni o'z ko'zi bilan ko'rgan muallifning yaqinlari, tanish bilishlari bergan ma'lumotlardir. Ayrim tarixiy voqealarni yoritishda oldingi asarlarga emas, ko'proq suhbatdoshlaridan eshitganlariga tayanishini Muhammad Solihxo'janing o'ziga xos uslubi deyish mumkin. Xususan, Olimxonning Toshkentga yurishi bayonida Muhammad Solihxo'janing tutgan bunday yo'li huddi shu voqeani yoritgan boshqa mualliflar uslubidan alohida ajralib to'radiki, bu hol ayrim tadqiqotchilar e'tiborini ham o'ziga tog'tgan. Shuningdek Yunusxo'ja avlodlari taqdiri to'g'risida uning o'g'li Sultonxo'janing miroxuri Toshbobodan; Olimxon davri to'g'risida bobosi va boshqa tanishlaridan; Buxoro va Shahrisabz O'rtasidagi munosabatlar to'g'risida Shahrisabz hokimi Jurabekdan; Abdumalikt'oraning otasi amir Mo'zaffar va istilochilar qo'shiniga qarshi ko'rashi hamda uning boshidan kechirganlari haqida Abdumalikt'oraning o'sha paytlardagi munshiysi va safdoshi Mullo Yunusjon Shahrisabziydan eshitgan hikoyalari asosida yoritganini ko'ramiz. Muhammad Solihxo'ja o'z axborotchilaridan olgan ma'lumotlarga tanqidiy yondashadi, qiyoslaydi, xatolarini ko'rsatadi. Birgina misol, Muhammad Solihxo'ja o'zining Qo'qon darvozasi tashqarisidagi chorbog'dagi qo'shnisi Yunusxo'janing o'g'li Sultonxo'janing miroxuri bo'lgan Toshbobodan olgan ma'lumotga tayanib, «Tarixi Shohruxiy» asaridagi «Yunusxo'ja Olimxondan engilib, Buxoroga qochib ketdi» degan xabarni noto'ri deb topali. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida XIX asrning 40-80yillarida Toshkentda yo'z bergan voqealar esa, Muhammad Solihxo'janing o'z ko'rganlari asosida yoritilgan bo'lib, shunga ko'ra mazkur alohida ilmiy ahamiyatga ega va bu borada birlamchi manba hisoblanadi.

II-bob: Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli.

2.1 Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkent vohasi, aholisi, o'tmishi talqini.

Toshkent qadimdan O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan biri bo'lib, uning qadimgi va O'rta asrlardagi tarixi arxeologik topilmalar ham-da yozma manbalar asosida ancha yaxshi o'rganilgan va bu sohada izlanishlar davom etmoqda.. XIX asrdagi Toshkent tarixiga doir ayrim ma'lumotlar O'rta Osiyo xonliklarida va Toshkentda bo'lgan rus sayohatchilari va o'lgar tadqiqotchilari asarlarida ham uchraydi. Jumladan, Toshkent hududi to'g'risida 1738—1839 yillarda Toshkentda bo'lgan K.Millyer Toshkentning o'zunasiga va eniga 4 verst (4,2672 km) keladigan, balandligi taxminan 2 sajen (304 — 352 yoki 426,72 sm) bo'lgan tuproqdevor bilan, 1813 — 1814 yillarda Toshkentga kelgan F. Nazarov esa 15 verst (16,4 km) o'zunlikdagi paxsa devor bilan o'ralganini ta'kidlaydi. A. Dobrosmislovning yozishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida shahar devorining aylana o'zunligi 24 verstga (25,6032 km) teng bo'lgan. 1800 yilda Toshkentda bo'lgan M. Pospelov bergan ma'lumotlarda esa, XVIII asr oxirida, ya'ni Yunusxo'ja olib borgan ta'mirlash ishlaridan so'ng Toshkent balandligi 26 fo't (7,9248 m), qalinligi 6 fo't (1,8288 m), yuqori qismi 3 fo't (0,9144 m) bo'lgan devorga ega bo'lib, shaharning maydoni 26,4 kv km ni tashqil etgani tilga olinadi¹. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida esa, Toshkent shahar nomi bilan birga ma'muriy birlik sifatida ham qo'llanilib, u viloyat sifatida anchagina katta hududni qamrab olganligi, tarkibiga bir qancha shahar, qishloq va mavzelar kirganligi ta'kidlangan. Muhammad Solihxo'ja uning hududini taxminan Sayxun daryosi boshlanishidan oxirigacha deb ko'rsatadi. Boshqa bir joyda esa muallif Toshkentning sharqdy sarhadini Qo'rama TOG'lari bilan belgilab, Toshkent mulkiga Sirdaryodan (shimolga) nasroniylar yerigacha, to Xitoy va Chinga qarashli G'uljagacha bo'lgan yerlar kirganligini ta'kidlaydi. Muhammad Solihxo'janing zamondoshi va hamshahri Abu Ubaydulloh esa, Toshkent chegaralarini sharqda Ko'ksuv, Qoratal va Qafolgacha, g'arbda Qoratepa, Chimkentdan to Rahim qal'asigacha 4 oylik yo'l, janubdan ikki oylik yo'l bilan belgilaydi. Lekin, Qurama, Ovliq, Kyerovchi, Bo'ka kabi katta-kichik beklklar Qo'qon xonligining alohida ma'muriy birliklari bo'lib, maxsus tayinlangan hokim va beklar tomonidan boshqarilgan. Jumladan, ma'lum bir vaqtlarda O'tabboq qo'shbegi Kyerovchi, Azizbek parvonachi, Normuhammad

¹ Bo'riev O., Sultanov O'. Toshkentning XIX asrdagi ma'naviy-ma'rifiy hayoti tarixidan (Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari asosida) // Toshkent 2007 yilda islom madaniyati poytaxti. Toshkent kolleksiyalarida islom qo'lyozmalari. 2007y.

qushbegi Qurama hokimi lavozimida bo'lgan. Ular harbiy yurishlar davridagina Toshkent hokimi ixtiyoridagi «Toshkent qo'shini»ni tashkil etgan. Muhammad Solihxo'ja o'z asarida Toshkentdan boshqa shaharlargacha bo'lgan masofalarni ham keltirib o'tgan. Xususan, Toshkentdan Andijon va Namangangacha 40 -50 farsax, Axsigacha 25-30 farsah Xo'jandgacha 18 farsah Shoxruxiyagacha 15 farsah Chimkentgacha 12 farsah BOG'ISTON qishlogigacha 12 farsah Kyerovchi qal'asigacha 7 farsah Tilavga qal'asigacha 8 farsax bo'lganligi qayd etilgan. Umuman olganda, bunday uslub O'rta asrlar arab-fors geografik asarlaridan keyingi davr muarrixlari orasida ham keng ommalashgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkentning tarixiy-topografik xujjatiga doir ma'lumotlar, ya'ni shaharning mudofaa devorlari, darvozalari, sug'orish tizimi, ko'chalari va maxalla, mavze hamda to'rar joylar, ma'muriy-maishiy inshootlarning joylashishi birmuncha aniq yoritilgan bo'lib, ular quyidagi tartibda aks ettirilgan. Mudofaa devori. Shahar maydoni va devori Muhammad Solihxo'jatomonidan deyarli aniqtasvir-langani, unga ko'ra shaharning to'rtchekka nuktasi quyidagicha ko'rsatilgan: sharqda -shayx Shibli arig'i yonidagi Xitoy darvozasi, g'arbda Ko'kcha darvozasi, shimolda — Chigatoy darvozasi, janubda-qang'li darvozasi. Ko'rsatilgan darvozalar orasidagi masofani Muhammad Solihxo'janing o'zi qadamlab o'lchab chiqib, shaharning sharqiy darvozasidan g'arbiy darvozasigacha 8500 qadam, shimoldan janubga esa 8100 qadam ekanligini hisoblagan. Shahar mudofaa devorining tashqarisida esa toshkentliklarning chorbog'lari va dehqonchilik yyerlari bo'lgan. Asar tadqiqotchilaridan A.O'rinboev va O. Bo'rievning doira yo'zasini hisoblash formulasidan foydalanib chiqargan xulosalarida Muhammad Solihxo'ja ma'lumotlariga ko'ra, mudofaa devorining aylanasi o'zunligi 18,2 km ga teng. Muhammad Solihxo'ja keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, shahar devorlaridagi katta ta'mirlash ishlari Amir Temo'rdan so'ng, XVII asr oxiri- XIX asr boshlariga kelib amalga oshirilgan. Xususan, Muhammad Solihxo'jaYunusxo'ja davridagi ta'mirlash ishlari xalqkuchi va qattiq mehnati evaziga olib borilgani to'g'risida yozadi. Lekin, Toshkent mudofaa devori Yunusxo'jagacha bo'lgan davrda ham ta'mirlangan. Xususan, XV asr muarrix Muhammadyor ibn Arab Qataronning «Musaxxir al-bilod» asarida keltirilishicha, Toshkent hokimi Bobo Sultonning o'g'illari Abdulg'affor Sulton va Tohir sulton Abdullaxon II Toshkentni qamal qilishidan oldin shahar mudofaa devori va burjlarida ta'mirlash ishlari olib borganlar. Toshkentning Qo'qon xonligiga qo'shib olinishi yillaridagi tinimsiz urushlar davrida zarar ko'rgan shahar devori shahar hokimi Lashkar beglarbegi davrida ta'mirlangan. Lashkar beglarbegi davrida shahar devorining ta'mirlangan sharqdy qismi-Qataran (Quymas) darvozasidan Taxtapul darvozasigacha bo'lgan yerlar shaharga qo'shib olingan va bu joylar Yangi shahar nomini olgan¹. Mazkur Yangi shaharni Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng o'zlashtirilib, evropaliklar joylashgan qism bilan chalkashtirmaslik kyarak. Keyingi davrda Salimsoqxon (1846— 1847) va Azizbek parvonachi (1847 i.) davrlarida esa, devorning urushlar paytida ko'p zarar ko'rgan qismlarigina mustahkamlangan.

Darvozalar. Asrlar davomida mudofaa devori xolatining o'zgarishi undagi darvozalar o'rniga ham tadqiqotchilarning ilmiy-ommabop maqola va risolalari chop etilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlardan esa, bu

¹Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T.: Sharq, 1998.

borada ayrim yangi fikr-mulohazalar kelib chiqddi. Avvalo, shahar darvozalari haqida to'xtalsak. X asr arab` muarrixii Istaxriy Toshkent shahristonining 3 darvozasi (Abo'l Abbos, Kdsr, Gunbaz), ichki rabotning 10 darvozasi (Hamdon, Oshanin, Mir, Farqon, Kad, Karmanj, Kuyi Saxd, Rashidijak, Kuyi Hoqon, Kashki Dehqon) va tashqi rabotning 7 darvozasi (Fargad, Xashkat, Sandijaq Ohanin, Bakridijak Safrak, Bafaryad) borligini qayd etadi. Lekin, XI-XVII asr manbalarida Toshkent darvozalari to'g'risida aniqroq ma'lumotlar uchramaydi. Toshkent darvozalari to'g'risidagi XVI asrga oid ayrim ma'lumotlar Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asarida mavjud. Xususan, V.V. Bartold mazkur asar asosida olib borgan tadqiqotida XVI asrdagi Toshkent shahrining to'rt darvozasini (Koo'kcha, Samarkand, Registon va Parkent) qayd etgan edi. Biroq, mazkur asardagi ma'lumotlarni o'rganganimizda, Hofiz Tanish Buxoriy 1580 yilda Toshkentning Abdullaxon (1583—1598) tomonidan qamal qilinishini tavsiflar ekan, shaharning oltita darvozasini, Registon, Samarkand, Shibli, ko'kcha, Farkat darvozalari bilan bir katog'da yangi qurilgan Turkiston darvozasini ham tilga olganligi ma'lum bo'ldi¹.

Toshkent darvozaralarining XVIII asrdagi ahvoli to'g'risida mahalliy yozma manbalarga nisbatan toshkentlik savdogar Nurmuhammad Mulla Alimov va bir qatog' rus sayohatchilarining axborotlarida birmuncha aniq ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, 1735 yilda Ufada bo'lgan Nurmuhammad Mulla Alimov ma'lumotida Toshkentning 32 ta Sh. Arslonovda 12 ta (1741) darvozasi tilga olingan. Lekin, ushbu ma'lumotlarni hozircha bu davrga oid mahalliy tarixiy asarlarda uchratmadik. Muhammad Solihxo'ja esa, Toshkentning XIV asrdayoq 12 darvozasi bo'lganligini qayd etib, ularni Amir Temur nomi bilan bog'laydi va darvoza nomlari etimologiyasini izohlashga harakat qiladi. Darvozalar to'g'risidagi ma'lumotlar asarning ikki joyida keltirilgan. Birinchi bor, muallifning bir rus ziyolisi bilan Toshkent shahri tarixi va aholisi to'g'risida suhbatii chog'ida-Qiyot, Turk Nayman, Taxtapuli, Qorasaroy, Chig'atoy, So'g'boniyon, ko'kcha, Kamolon, Dug'lot, Beshog'och va Arg'in nomidagi Darvozalarni tilga oladi. Ikkinchi bor esa asarning Toshkent shahri topografiyasiga bagishlangan qismida keltirilgan. Muallifning yozishicha, Amir Temur Toshkentni ikkinchi bor qo'lga kiritganda uning 12 darvozasini qabilai va urug' sardorlari nazoratiga topshirgan. Toshkent darvozaralariga oid ma'lumotlar saqlangan asarlar juda kam. Faqat «Abdullanoma» asarida shahar darvozalari xususida «Tarixi jadidayi Toshkand»ga mazmunan yaqinroq ma'lumotlar mavjud. Unda keltirilishicha, Abdullaxon davrida har bir darvoza va burj mudofaasiga shahar, mahalla va jamoa (qabila) tayin qalingani qayd etilgan. Keyinroq, Qo'qonxonligi davrida, shahar mudofaasi paytida darvozalarga urug'-qabila vaqillari emas, balki shahar hokimining eng ishonchli kishilari mas'ul etib tayinlangan. Jumladan, 1262/1846 yilda Toshkentni Xudoyorxon va Musulmonqul ming-boshi qamal qilgan paytda, Salimsoqxon shahar darvozalari mudofaasini o'zining eng ishonchli kishilariga topshirgan. Lekin, dushman hujumi paytida darvozalar mudofaasida hamisha avvalo o'sha atrofda yashovchi aholi faol qatnashgan. Bu hol, ayniqsa, Rossiya imperiyasi istilosi paytida yaqqol ko'zga tashlanadi².

¹ Shorahimov Sh., Ro'zieva M. Toshkent darvozalari // Fan va turmush. - Toshkent, 1982. - № 9. - B. 4 -5.

² Sultanov O'. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent darvozalari haqida ma'lumotlar // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. -Toshkent, 2006 y. B. 70 -77 b

Darvozalarning ko'proq urug'-qabila nomlari bilan atalishi faqat Toshkent darvozalari uchun xos bo'lib, Buxoro, Samarkand, Qo'qon kabi shaharlarda bunday holat deyarli ko'z atilmaydi. Ehtimol buning sababi Amir Temur va Abdullaxon II davrida darvozalar muhofazasiga tayin etilgan urug'-qabilalar bilan yoki XVIII asrdagi murakkab siyosiy jarayonlar bilan bog'liqdir. Ayrim yozma manbalar XVIII asr davomida atrofiga Toshkent vohasidagi ko'chmanchi urug'larning kelib joylashishi davom etganini ko'rsatadi. «Anjum at-tavorix» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, qozoklarning O'rta jo'z xoni Ablay sulton Toshkentdagi qalmoq noibini mag'lubiyatga uchratgach, shaharning to'rt dahasini, aniqrog'i, dahalarga qarashli shahar tashqarisidagi yerlarni o'zining ittifoqchilari bo'lgan urug'larga topshirgan ekan. Jumladan, Bashog'och shayxim toifasiga, ko'kcha qo'ng'iro't va O'rta yo'z jamoasiga, Sebzor chinish firqasiga, Shayxontaxur sergili, eli va uchokdi toifasiga berilgan. XVIII asr oxirida Toshkentni o'z qo'li ostida birlashtirgan Yunusxo'ja ham dastlab raqiblariga qarshi ko'rashda sanchikli (yoki sanjikli), qirq, kiyot, turk qang'li urug'lari bilan bitim tuzib, ularning yordamidan foydalangan va Toshkentni birlashtirgach, ularga shahar tevaragidan yerlar bergan. Yunusxo'ja bilan bitim tuzgan urug'larning aksariyati uning muridiga aylanib, to'p-to'p bo'lib shahar ichiga ko'chib o'ta boshlagan. Keyingi davrga kelib darvoza nomlarining qisman o'zgarishi, yuqorida tilga olinganidek XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida shahar mudofaa devorining ta'mirlanishi bilan bog'liq. Ta'mirlangan va unga o'rnatilgan darvozalar shahar yunalishi va tomoni, geografik o'rni va boshqa sabablarga ko'ra nomlana boshlagan. Shu sababli, darvozalar nomi unchalik farq qilmasada, ularning soni XIX asr rus sayyohlari va tadqiqotchilari tomonidan har xil keltiriladi. Jumladan, T. Burnashev va M. Pospelovda b ta (1800), F. Nazarovda 12 ta (1813-1814), A.P. Xoroshxinda 12 ta (1868), Yu. Skaylarda 12 ta (1873), N. Maevda 12 ta (1876), A.K. Geysda 12 ta (1898) turli nomdagi darvozalar tilga olinadi¹. M.A. Tyerentev esa, Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga doir haritasida (1906) shaharning 13 ta darvozasi nomini ko'rsatgan. Hatto Muhammad Solihxo'janing o'zi ham asarning turli joylarida Bashog'och, Qang'li, Xiyobon, Samarkand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon (Surboniyon), Qorasaroy, Teshik qofqa, Darvishak qofqa, Taxtapul, O'zbek Labzak Oqqurg'on, Xitoy, Turk, Qatag'on, Nayman, Durlot, Arrin, Qo'qon (Xuqand), Parkent (Farkat), Qiyot, Quymas kenagas, Qirilmos, Eski Sherdor, Masdud kabi yigirmadan ortiq darvoza nomlarini tilga oladi. Lekin asarda keltirilgan darvoza nomlari 12 ta asosiy va 2 ta qo'shimcha darvozalarning turli davrlardagi nomlari bo'lib, alohida tahlil talab qiladi. Xususan, Labzak darvozasi asarda eng kam tilga olingan. 1809 yilda Sanduqli mavzeida, Yunusxo'janing o'g'li Sultonxo'janing Olimxon qo'shinlari bilan jang qilish uchun Labzak darvozasidan o'tganligi aytilgan. Eski Sherdor darvozasi esa «Masdud» yoki «Darvozai masdudi Sherdor» («masdud» so'zi «berkitilgan», «yopib tashlangan» degan ma'noni bildiradi) deb ham atalgan. Darvozalarning ayrimlari shaharga kirish uchun ochilgan kichik kirish yo'llari bo'lib, ular vaqti vaqti bilan yopilib to'rgan (masalan, Darvishak qofqa, Teshik qofqa). Eski darvozasi ham berkitilgan shunday kichik kirish yo'llaridan biri bo'lib, bu darvoza Qirilmas darvozasiga yaqin yerda bo'lgan. Shuningdek arxiv hujjatlarining birida, Quychi mozor ota

¹Shorahimov Sh., Ro'zieva M. Toshkent darvozalari // Fan va turmush. - Toshkent, 1982. - № 9. - B. 4-5.

darvozasi tashqarisida, Nadrjon QULOG'larigi so'tog'adigan yerlar haqida so'z ketadi. Quychi mozor ota Chig'atoy mahallasidagi mozorlardan biri bo'lib, ushbu nomdagi darvoza ham vaqtinchalik ochiladigan shaharga kirib chiqish darvozasi bo'lishi mumkin.

«Tarixi jadidayi Toshkand»da Rossiya imperiyasi istilosi voqealari bayoni chog'ida Qo'qon, Xiyobon, Kirilmos, Beshog'och va ko'kcha darvozalari eng ko'p tilga olingan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Xiyobon va Qirilmos darvozasidan istilochilarning piyoda askarlari, ko'kcha darvozasidan esa otliq askarlari bostirib kirgan. qo'qon (Xuqand) darvozasi «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Amir Temur davriga mansub deb ko'rsatilgan Qiyot darvozasining keyingi davrdagi nomi bo'lib, u qadimda Parkent (Farkat) darvozasi deb ham atalgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu nom Istaxriy keltirgan ro'yxatda «Fargad» ko'rinishida qayd etilgan. Xiyobon darvozasi nomi esa, rus sayohatchilari va arxiv xujjatlarida Kamolon shaklida uchraydi. Ushbu darvoza Abu Ubaydulloh Toshkandiyning «Xulosat ul-ahvol» hamda Avaz Muhammad Attorning «Tarixi jahonnamoyi» asarlarida ham Rossiya imperiyasi istilosidan oldingi voqealar bayonida Kamolon nomi bilan yuritilgan. Qirilmos darvozasi esa Amir Temur davri uchun Qatag'on darvozasi deb tilga olingan. XIX asrning 60-yillari voqealarida esa Quymas kenagas va Qirilmos shaklida eslatilgan. Bu darvoza rus manbalarida tilga olingan «Koymas» darvozasi bilan aynan bir. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, bu darvoza yaqinida Quymas yoki Qirilmos nomli tepalik bo'lgan. Keyinchalik Toshkent ruslar tomonidan bosib olingach, M.G. Chernyayev bo'yrug'i bilan tepalik devor bilan o'rab qo'rg'on qilib olingan va «Tuproqdurron» nomini olgan. Asarda XIV asrga mansub darvozalardan Turk darvozasi ham tilga olingan bo'lib, u keyingi davrlarda Oqqo'rg'on mavzeyiga yaqin yerda joylashgani uchun «Oqqo'rg'on darvozasi» yoki Xitoyga olib boruvchi savdo yo'lida joylashgani bois «Xitoy darvozasi» deb ham atalgan. Lekin ushbu darvoza yaqinidagi Turk mahallasi o'z nomini keyinchalik ham saqlab qolgan. Qo'qonxoni Muhammad Alixonning Qoshg'ar yurishidan qaytishida, Anhorning chap sohiliga u bilan birga kelgan qoshg'arliklarning joylashishi natijasida bu yerda Qoshg'ariyon (Koshg'arliklar) mahallasi yuzaga kelgan¹. Turk ,Oqqo'rg'on, Xitoy nomi bilan yuritilgan darvoza esa Qoshg'ar yoki Qashqar nomlari bilan atala boshlagan. *Dahalar, mahallalar va mavzelar*. Mudofaa devorining ichki qismi, ya'ni shahar hududi bir necha mahallalarni o'z ichiga olgan to'rt dahadan iborat bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, to'rt«daha» yoki «rukn» dastlab Toshkentda yashab o'tgan Abu Bakr Kaffol Shoshiy (903 — 976), shayx Zayniddin (1214-?), Shayx Xovand Tahur (vaf.1359), Zangiota (vaf.1258) nomlari bilan atalgan. Keyinchalik dahalar Sebzor, Ko'kcha, Shayxontaxur va Beshyog'och deb yuritila boshlangan. Dahalar ular bo'ylab ketgan kichik ko'chalar orqali ajralib to'rgan. Har bir daha bir necha mahalla va mavzelarini o'z ichiga olgan bo'lib, ular XIX asr ikkinchi yarmidan keng ilmiy tadqiq qilina boshlagan. «Tarixi jadidayi Toshkand»da turli voqealar bayoni bilan bevosita bog'liq holda Balandmasjid, Orqako'cha, Qor'atosh, Mergancha, Qatog'terak, Qiyot, Qoryog'di (Qorbordi), Zanjirlik, Xo'ja Rushnoyi, Xo'jako'cha, Parchabof, Sanchiqmon, Hofiz Ko'hakiy, Kallaxona, Chig'atoy, Kamolon, So'zukota, Yalangqari, Oqmasjid, Koshg'ariyon, Yangi shahar, Ganjtepa, Oxungo'zar, Hastimom, Taxtapul, Sarfaros, Chuqurko'prik, Devonbegi, Murodali, AshtaqShohnishin, Havzbor, Qorato't, Chexbuloq

¹ Muhammadkarimov A. Toshkentnoma. - T.: Movarounnaxr, 2004. - 170 b.

mahallalari hamda shahar tashqarisidagi Parvizshohi, Darvishak qofqa, Shurtepa, Oltintepa, Okdurrin, Kuvaidtepa, Mirobod, Minor, Jarboshi, Qorakamish, MinguriqChilduxtaron, Chinobod, Sandukdik qo'rg'on va boshqa mavzalar, ayrim mahallalarning guzarlari hamda ulardagi inshootlar eslab o'tilgan. Mahallalarning qaysi davrdan boshlab paydo bo'lgani haqida aniq fikr aytish qiyin. Lekin, ularning qadimdan, Toshkentning turli davrlardagi rivojlanish bosqinchlarida yo'zaga kelgani va ko'payib borgani haqiqatdir. Jumladan, Chorsu mahallasi XI asrdan, shahardagi Obinazir mahallasi esa 600 yildan buyon mavjud bo'lgan. Yoki Darvozakent mahallasi Muhammad Olim Siddiqiyning 1624 yilda yozilgan «Lamahot min nafahot ul-quds» asarida tilga olinadi. Keyingi asrlarda shaharning kengayishi bilan yangi mahallalar paydo bo'lgan. Shuning uchun hamta'dqiqotlarda ularning nom-lari til jihatidan surdiy, arabiy, turkiy, forsiy va aralash toponimlar bilan nomlanishi ta'kidlanadi. Har bir dahaning o'z oqsoqollari, qozilari va ma'muriy boshqaruvdagi boshqa alohida mansablari bo'lgan. Dahalar Qo'qon xonligi davrida shaharning obruli xonadon vakillaridan tayinlangan oqsoqollar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng mingboshilar tomonidan idora qilingan. Ayrim hollarda esa bir necha mahallalarga tavochilar birlashtirilgan. Dahalar tarkibidagi mahallalar boshqaruvi esa ellikboshilar qo'lida bo'lgan. Katta mahallalarda 200 tagacha, kichiklarida esa 15-20 tagacha hovli bo'lgan. Jumladan, Sebzor dahasiga qarashli mahallalar - Kohotada 203 ta, Taxtapulda 137 ta, Xo'jako'chada 135 ta hovli bo'lsa, Ibroxdmota 15 ta, Tarnovboshi 24 ta hovli iborat bo'lgan.

Ko'chalar. Shaharning topografik to'zilisida ko'chalar muxim ahamiyat kasb etgan. Dahalar va mahallalarning chegaralari ham, odatda, katta-kichik ko'chalardan o'tgan. Ayrim ko'chalar joylashishiga ko'ra, etnonimlar yoki mahallalar nomi bilan atalgan¹. Masalan: Orqako'cha, Jarko'cha, Mo'g'ulko'cha, Xo'jako'cha, Urko'cha, Qiyottog'ko'cha, Tikko'cha, Charxko'cha, Qoziko'cha, Uchko'cha, Qanrliko'cha, Tog'ko'cha, Chuqurko'cha va boshq. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida tilga olingan ko'chalar, avvalo, katta-kichikligi bilan ajralib to'radi va ularning nomi quyidagi sabablarga ko'ra atalganligini ko'rish mumkin: *mahalla nomi va aholining kasb-koriga ko'ra:* Koshg'ariyon, Turk, Hastimom (Hazrati imom), Havzbor, Mo'g'ulko'cha; Degrez — qozon kuyuvchilar, Qandolaturushon — shirinlik sotuvchilar, Parchabof — tukuvchilar va h. k.; *ko'chaning joylashishiga ko'ra:* Kattako'cha, Tangko'cha, Pastko'cha, Balandko'cha, Bojucha, Jarko'cha, Orqako'cha, Payraxd; *yo'nalishiga ko'ra:* Katga Qo'qonyo'li, Xo'jand yo'li, Parkent yo'li, Samarkand yo'li, Zangjota yo'li, Chimkent yo'li, Niyozbek katta ko'chasi; *darvoza nomlari bilan:* Samarkand darvoza, ko'kcha, Xiyobon, Chigatoy, Sarbon, Bashog'och, Krrasaroy, bu ko'chalar, asosan, shu darvozalarga olib borgan; *ko'chada yashovchi taniqli shaxs yoki joylashgan yirik inshoot nomi bilan:* Qosim mingboshi, Davron bahodirboshi, Yusufxon, Ko'hna Namozgoh ko'chasi, O'rda ko'chasi va h.k.². XVIII asrning 30-yillarida Toshkentda bo'lgan K. Millyer o'zi keltirgan darvozalar sonidan kelib chiqib, shaharda 8 ta katta ko'cha bo'lgani va ularning barchasi shahar darvozalariga olib chiqdshini qayd qilgan. T. Burnashev va M. Pospelov esa XIX asr bo-shida Toshkent ko'chalarining tog' va notekisligini yozadi.

¹ O'rinboev A., Bo'riev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida.- T.: Fan,1983.-56 b.

² Molliskiy N.G. Toshkent mahalla va mavzolari. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. - 23 b.

Aslida, Toshkent ko'chalari ular aytganidek bo'lmagan. Buni «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlar tasdiqdaydi. Xususan, Muhammad Solihxo'ja tilga olgan «ko'cha» va «roh» ikki ma'noda, ko'cha va shahardan tashqariga olib chiquvchi yo'l ma'nosida tushunmoq kerak. «Roh» (yo'l) shahar darvozasi orqali shaharga kirish va chiqish ko'chasi bo'lgani uchun ham oldi ko'chaga qaraganda ancha keng va serqatnov bo'lib, odatda, xonlar, amaldorlar, elchilar hamda savdo karvonlari shu ko'chalardan yo'rgan. Shahar ichi bo'ylab ketgan odatiy ko'chalar asosiy va ularning tarmoqlariga bo'lingan. Mahallalarning chegaralari ham shu ko'chalar orqali o'tgan.

Shahardagi asosiy ko'cha bu Chorsu bozorida to'tashuvchi to'rt ko'cha bo'lib, ular to'rt daha bo'ylab tarqalgan. Muhammad Solihxo'janing ko'p tilga olgan ko'cha esa Katta ko'cha bo'lib, u taxminan hozirgi Navoiy ko'chasiga to'g'ri kelgan. Katta ko'cha shaharning asosiy ko'chasi sifatida «Xulosat ul-ahvol» asarida ham tilga olingan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ko'chaning Anhor arig'i va Shayx Xovand Taxur mozori atroflari Shayxontaxur ko'chasi deb ham atalgan. Yunusxon, Xoja Rushnoyi, Boboi Obrez mozorlari, Eshonqo'li dodxoh madrasasi ana shu Katta ko'cha bo'yida joylashgan edi. 1884 yildan Toshkent ko'chalariga katta e'tibor qaratila boshlangan va birinchi bo'lib, Katta ko'chaga toshshagal tuqilgan va aholi orasida Toshko'cha nomini olgan. Lekin o'zining Shayxontaxur (ko'chasi) nomini keyinchalik ham saqlab qoldi. 1893 yilga kelib Eski shahar hududida ayrim katta ko'chalarga aholi tarafidan berilgan nomlar Toshkent shahar dumasini tomonidan tasdiqlangan. Bo'lar Shayxontaxur, Jarcho'cha, Oqmasjid, Quyi Oqmasjid, Charxchilik, Sebzor, Qorasaroy, Hazrati Imom, Sarbon, Chigatoy, ko'kcha, Samarkand, Beshog'och, Chaqar, Arpapoya, Kamolon, Anhor ko'chalari edi¹.

Sug'orish tizimi va ko'priklar. Muhammad Solihxo'ja shaharning asosiy sug'orish tarmoqlari haqida to'xtalarkan, ularning shahar obodonchiligidagi o'rini alohida ta'kidlaydi. Uning ma'lumotlariga qaraganda, shaharni suv bilan ta'minlaydigan asosiy suv manbasi Chirchiqdaryosidan qazilgan Bo'zsuv kanali bo'lgan. Asarda Bo'zsuv kanali qazilishini shaharning bunyod bo'lishi bilan bog'lab quyidagi rivoyat keltiriladi: «... Podshoh Kaykobus va podshoh. Salor zamonida Kaykobus bo'yug'i bilan shahardan uch tosh bo'lgan Bandi Podshoh degan yerda Farak (Chirchiq) daryosidan katta anhor qazildi va ikki toshga etkazilgach, u ikki tarmoqda bo'lindi. Biri sharqdan janubga yo'naltirildiki, u yerdan shahargacha chorak farsang (1,5 km) dir. Viloyat (shahar)ning oxiri bo'lgan garb tarafga oqadigan bu ariq. Salor nomiga mavso'mdir. Yana birini o'sha mavzedan shahar tashqarisigacha etkazib Kaykobus nomini quydilar».² Sug'orish tizimining yo'nalishi borasidagi Muhammad Solihxo'ja ma'lumotlari T. Burnashev va M. Pospelov axborotida ham o'z tasdig'ini topadi. Muhammad Solihxo'janing «... hozir Kaykobus arig'ini odamlar Bo'zsuv deb ataydilar», deb yozishiga qaraganda, Kaykobus kanalning qadimgi nomi, Bo'zsuv esa XIX asrlardagi nomidir. Chirchiqdan suv oladigan kanallardan yana biri Zol arig'i bo'lib, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, u Toshkentdan olti farsax masofadagi, o'sha vaqtda Parvizshohi Jahon degan yerdan boshlanib, shahardan 4-5 farsah ba'zan 1 farsax naridan oqib o'tgan va Sariogochdan garbga oqib Sirdaryogacha davom etgan. Jo'ybor xojalaridan Xoja Sa'd buyrug'iga ko'ra,

¹ Muhammadjonov A. Qadimiy Toshkent.-T.: Sharq, 2002. - 78 b.

² Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshikurash. - T.: Sharq, 1998

1583 yilda Toshkentning shimoli-sharqidan xalq kuchi bilan qazilgan¹. Zax arig'i «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida shahar ichidan o'tuvchi ariqlardan biri sifatida tilga olingan va u ko'kcha darvozasi yaqinidagi Xojabekxo'ja mozori yonidan oqib o'tgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Zol va Zax ariqlari boshqa-boshqa ariqlardir. Beshog'och da-hasida Zax mavzesi ham bo'lgan. Mazkur anhorlardan tashqari Radir (rus adabiyotlarida God-ragan), Qoraqamish, Nazarxon, Janggoh shahar devo-ridan tashqarida okuvchi Tarxon-sayyod ariqlari ham eslatilgan. Shahar ichidan o'tuvchi uchta asosiy ariq to'g'risida Muhammad Solihxo'ja Shayxontaxur dahasi tavsifida to'xtalib o'tgan. Ulardan biri Shayxon-tahur arig'i bo'lib, Kaykobus kanalining Anhor arig'idan suv olgan. U Ganj-tepa mavzeidan boshlanib, Xoja Ahror jome masjidi tomon oqib kelgan va Chorsu bozoridan so'ng Darvishxon Namozgohi shimo-lidan o'tib, ko'kcha darvozasi yonidan shahar tashqarisiga chiqib ketgan. Ikkinchi ariq O'zbek darvozasi yaqinidagi bo'lokdan suv olib, yon atrofdan qo'shilgan qo'shimcha suvlar evaziga kengaygan. Uchinchi ariqshayx Shibli yoki Shibli deb nomlanib, rus adabiyotlarida «Chovli» nomi bilan tilga olingan. Bu ariq, O'zbek darvozasi yaqinida, shahar devori tashqarisidagi Mirzo Yusuf yeridagi bo'loqdan suv olgan va shahar ichiga kirib, Qiyot darvozasi yonidan qo'rg'on tashqarisiga chiqib ketgan. Shibli arig'i shahar tashqarisida Mirobod mavzeini suv bilan ta'minlab, sug'orishdan ortgan suv oxiri Salor arig'iga borib qo'yilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida shahar ichida buloqlar borligi ham aytilgan va qamallar paytida shaharda bo'loq va quduq suvlari asqotgan. XIX asr oxiri -XX asr boshlariga kelib, Toshkent hududidagi mavjud sug'orish tarmoqlari yirik O'rtacha va mayda ariqlarga bo'lingan. Jumladan, 17 ta katta ariq, 76 ta O'rtacha o'zunlikdagi ariqlar, 83 ta ularning kichik tarmoqdari, 600 ga yaqin quduq va buloqdar bo'lib, ularning har biri o'z nomiga ega edi. Ma'lumotlarga qaraganda, shahardagi suv taqsimoti to'rtta bosh ariq oksoqoli qo'lida bo'lib, ularning har biriga shaharning uch darvozasi hamda shahar yerlarining $\frac{1}{4}$ qismi qaragan. Har bir bosh ariq oqsoqoli hokim tomonidan tayinlangan va uning xalq tarafidan saylangan beshtadan yordamchisi -ariqoqsoqoli bo'lgan. Sug'orish tizimiga doir bo'lgan barcha ishlar ularning nazorati ostida tartibga solingan. Muhammad Solihxo'ja o'z asarida daryo va ariqlar ustiga qurilgan ko'priklarni ham tilga olgan. Jumladan, u Janggoh, Shibli, Salor, Anhor ariqlaridagi yog'och ko'priklarni eslatib o'tgan. Muallif, ayniqsa, Chirchiq daryosiga qurilgan ko'prik haqida batafsil to'xtalgan. Uning so'zlariga qaraganda, ko'prik etti yil ichida qurilib, unda rus va o'zbek ustalar, ishchilar ishlagan va 1872 yilda bitkazilgan. Muhammad Solihxo'ja ko'prikning o'zunligini o'zi qadamlab o'lchab chiqib, Quyliqdan to To'ytepa yo'li boshigacha 1800 qadam, eni ikki arava o'tadigan kenglikda bo'lganini yozadi. *Boshqa turdagi inshootlar. O'rda.* «Tarixi jadidayi Toshkand»da qayd etilgan inshootlardan biri shaharning ma'muriy markazi bo'lgan hokim qarorgohi –o'rda bo'lib, Muhammad Solihxo'ja Eski o'rdani ajratib ko'rsatadi². Eski o'rda Toshkentning Eski Jo'vadagi qadimiy arki vayron bo'lgach, XVI —XVII asrlarda shaharning janubida, Bashog'och dahasining Qoratosh maxallasida yo'zaga kelgan o'rda bo'lib, XVII asr boshlarida Buxoro xoni Imomqo'lixon (1611 — 1642) qo'shinlari tomonidan vayron qalingach, XIX asrga kelib Ko'hna (yoki Eski) o'rda deb

¹ *Sultanov O.* Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari.- T.: O'zbekistan, 2009.-262 b.

² Vohidov Sh. XIX asr Toshkent tarixchilari. - T., 1996. - 34 b

yuritilgan. O'rda deyilganda Qo'qon xonligiga qo'shib olingach, Anhorning soxiligiga qurilgan yangi o'rda tushirilgan. 1813 yilda Toshkentda bo'lgan F. Nazarov mazkur o'rda haqida shunday yozadi: «O'n ming askar sig'adigan bu qo'rg'on shahardan $\frac{1}{4}$ verst masofada, Qo'qonga boriladigan tomondan ikki qavat baland tosh devor va ikkita chuqur xandaq bilan o'ralgan, shahar tomondan faqat bir qavat devor va eni 50 sajen keladigan chuqur kanal ajratib to'radi. O'r-daga faqat tog'gina suqmoqdan o'tish mumkin. Qo'rg'onNING o'rtasidagi balandlikda saroy qurilgan, atrofini chuqo'g'ligi 7 sajen keladigan uch qatog' xandaq o'rab to'radi», Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Lashkar beglarbegi davrida o'rda atrofida qazilgan va F. Nazarov tilga olgan mazkur xandaq Anhorning yuqori qismigacha borgan va uning suvi muallif davriga kelib qurib qolgan. Shuningdek Muhammad Solihxo'ja mazkur o'rda yaqinida zindon ham bo'lganini tilga olgan. Umuman olganda, Toshkentning turli davrlardagi beshta o'rdasi, ya'ni arki mavjudligini ta'kidlanadi.

1. Toshkent shahrining hozirgi Movarounnaxr, Sayd Baraka, Moshtabib va Farg'ona yo'li ko'chalari oralig'ida joylashgan qadimgi Shosh poytaxti harobalari. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Mingo'rik va Shohnishintepa qadimiy podshohlarning qarorgohi bo'lganligi va halq orasida mashhurligi ko'p bor qayd etilgan. M.E. Massonning fikricha, IX -XI asr manbalarida tilga olingan Shosh viloyatining poytaxti — Tarband shahri o'rni Mingo'rik harobasiga to'g'ri keladi. Mingo'rikda arxeologik qazuv ishlari olib borilganda, istehkomli ark (0,5 ga) va shahriston (20 ga) ochilgan.

2. Toshkentning ikkinchi o'rdasi-hozirgi Eski Jo'va, Xadra, Chorsu va shahar bozori oralig'ida bo'lgan IX —XIII asrlardagi Binkat shahri arki. Arab muarrixlari Ibn Xavqal va Istaxriy Binkat shahri arki, shahristoni va rabotining darvozalari va devorlari haqida ma'lumot bergan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida mazkur ark hududi shahar Registoni sifatida tilga olinib, undagi Shohbexxon saroyi, Xoja Ahror jome masjidi va madrasasi kabi binolar hamda bozorga to'tash rastalar qayd etilgan.

3. XVI-XVII asrlarda shaharning janubida, Beshyog'och dahasining Qoratosh mahallasida yo'zaga kelgan o'rda. Yuqorida aytilganidek Muhammad Solihxo'ja uni Eski o'rda deb tilga oladi va Katta ko'chaning sharqida joylashganligini ta'kidlaydi.

4. Yunusxo'ja tomonidan barcha dahalar birlashtirilgach, Shayxontahur dahasida bunyod etilgan kichik o'rda. Bu o'rda Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olingan yillari karovsiz qolgan. Bu haqda «Oldingi hokimning (Yunusxo'ja) saroyi tamomila vayron bo'lgan, biz u yerda bir uyum toshlar yotganini ko'rdik», deb yozgan edi f. Nazarov.

5. Anhorning sohilida qurilgan Qo'qon xonlari noiblari — shahar hokimi o'rdasi. O'zi yashagan davrdagi mazkur o'rda haqida «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ancha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqorida keltirilganlardan Muhammad Solihxo'ja o'z asarida Toshkentning qadimdan mavjud bo'lgan turli qismlaridagi barcha ark — o'rdalari haqida ma'lumot berib, o'z davridagi holatini tasvirlab bergan degan xulosaga kelish mumkin¹.

Bozorlar va karvonsaroylar. G.A. Mixalevaning 1829 yilda Qo'qon xonligida, xususan, Toshkentda bo'lgan rus sayyohi Potanin ma'lumotlariga tayanib yozishicha, Toshkentda haftada uch kun — yakshanba, chorshanba,

¹ *Sultanov O.* Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida («Tarixi jadidayi Toshkand» va «Xulosat ul-ahvob» asarlaridagi ma'lumotlar taxlili) //.-Toshkent, 2007. - № 3. - B.57-67.

payshanba kunlari bozor bo'lgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida tilga olingan eng katta bozor — bu Jo'ybor mavzeidagi bozor bo'lib, «... aholi uni Jo'bo deb noto'g'ri ataydi», deb yozadi muallif. M. Pospelov, T. Burnashev va A.I. Dobrosmislovlar ham ushbu bozorni Toshkentning asosiy bozori sifatida ta'riflaganlar. Keyinchalik bozorning asosiy hududi Eski Jo'va nomini olgan va u taxminan hozirgi Chorsu bozoriga to'g'ri keladi. Muhammad Solihxo'ja Jo'bo bozorining Cho'p bozor, Mayiz bozor, Qandolatfurushlik TemirchilikMahsido'zlik Chitfurushlik kabi qismlarini tilga olib o'tgan. Muhammad Solihxo'janing zamondoshi Abu Ubaydulloh esa shahardagi G'alla bozorini usti yopiq inshoot — kaffon sifatida tilga olgan. Muhammad Solihxo'ja tilga olgan «bozor»ni u yoki bu mahsulotlar maxsus sotiladigan joy deb tushunish kyerak¹. Masalan, cho'p bozor, mayiz bozor, qo'y bozor, galla bozor va x.k. Ikkinchi tur savdo nuqtalari Registondagi bozor rastalari va do'konlari bo'lib, ular ma'lum bir shaxsga tegishli bo'lgan. *Hammomlar*. Shahardagi muhim inshootlardan biri hammomlar bo'lib, ular qurilishi jihatdan bir xil, pishiq g'ishtdan bir necha gumbazli qilib qurilgan va egasining nomi bilan atalgan. Muhammad Solihxo'ja shulardan faqat Shayxontaxur dahasida joylashgan Qiyot mahallasidagi Musomuhammadbey Bekmuhammadbey o'g'li hammomi, Kaykobus anhuri bo'yidagi Muhammadqo'li Eroniy, Ko'kaldosh madrasasi ortidagi pastlikda Muhammad Karimxo'ja xalifai qozoq hammomi, Chorsuda, Ko'hna Namozgoh ko'chasidagi Hoji Otaboy va Mulla Badalmuhammad hammomlari haqida ma'lumot berib o'tgan. A.P. Xoroshxinning yozishicha, Toshkentda Chorsu bozorining o'zida 6 ta hammom faoliyat ko'rsatgan. Ular Muhammad Karim xalifa, Normuhammad qo'shbegi, Dasturxonchi, Muhammad Saidboy, Bo'rixo'ja, Yusufboy hammomlari bo'lib, ularning har biri bir vaqtning o'zida 200 kishiga xizmat ko'rsata olgan. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, ushbu hammomlar bir necha kichik gumbazlar — garmoba (issiqsuv), sardoba (sovuqsuv), libosxona, dam olish xonasi va o'rtasida katta gumbaz — yuvinish xonasi vazifasini o'tovchi gumbazlardan iborat bo'lgan. Xususan, Muhammad Karim xalifa hammomi, garmoba, sardoba, quduq, mehmonxona va oshxonalar haqida ma'lumot berib o'tadi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining muhim jihatlaridan yana biri — Toshkent viloyati geografiyasiga oid ma'lumotlardir². Muallif har bir daha tavsifida dahalar tashqarisidagi hududlarni ta'riflab, mazkur yerlarni hududi sifatida tilga oladi. Binobarin, Ko'kchada Qoraqamish arig'i atrofidagi yerlar, Beshyog'ochda Eski Toshkent va Shayxontaxur dahasi tashqarisidagi yerlar toshkentliklarga qarashli dehqonchilik yerlari hisoblangan. Lekin, Sebzor dahasi darvozalari orqali chiqilgan Turkiston, Sayram, Chimkent, Avliyoota, Suqlig', Olmaliq, Ashfara, Olmatu, Bashog'och dahasidan chiqilgan Chinoz, Shayxontahur dahasi sharqidagi Zarkent, Parkent, Pskent, BORISTON, Nanay, Xumson, Burchmulla, Ovliq, To'ytepa, Qurama, Nush, Namdanaq Soyliq, Xondayliq, Chimboyliq, Xo'jakent, Razalkent kabi aholi manzilgohlari tegrasidan ancha olis bo'lib, ularni Toshkent hokimligi tarkibiga kirgan yerlar deb tushunish to'g'riroq bo'ladi. Muhammad Solihxo'ja o'zi keltirgan ma'lumotlar

¹ Bo'rieva H. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari):-T., 2007.-154 b

² Ozadaev F. Toshkent tarixidan ocherklar (XIX asming ikkinchi yarmida shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi).-T.: Fan, 1960.-268 b.

orasida Shayxontaxur dahasining sharqida joylashgan yerlarga nisbatan batafsilroq to'xtalgan. Uning yozishicha, shahar darvozalaridan Toshkent sharqidagi tog'largacha 4 farsaxdan ziyodroq bo'lib, shundan 1 farsaxdan ortiq masofa lolazorlardan iborat bo'lgan. Muhammad Solihxo'ja ulardan biri Afrosiyob lolazori deb nomlanganini ta'kidlar ekan, mazkur lolazor «Badoe ul-vaqoe», «Ajoyib o't-taboqot» kabi asarlarda ham tilga olinganini eslatib o'tgan. Darhaqiqat tashqarisidagi lolazomi XVI — XVII asr mualliflari ham eslab o'tganlar. Muhammad Solihxo'ja tilga olgan Afrosiyob lolazori hamda Samarkand darvozasidan, Zangiota mozorigacha bo'lgan yerdagi bog'lar va go'zarlar toshkentliklarning shahar tashqarisidagi manzarali oromgohlari bo'lgan. Bu haqda toshkentlik boshqa bir muallif Abu Ubaydulloh ham Ko'kcha darvozasi tashqarisidagi gulzor va xiyobonlarga burkangan dam olish joylari borligini yozgan. Bundan tashqari, shahar tashqarisida *binafsha*, *atirgul*, *gulizebo*, *hulbo'y*, *darmona*, *unnob*, *revand*, *qoraqand-zirq ko'chala*, *zira* kabi dorivor giyohlar va bo'tasimon o'simliklar ko'p bo'lib, tabiblar ulardan turli doridarmonlar tayyorlaganlar. Toshkentliklar shahar atrofidagi yerlarda dehqonchilik qilib, mevali daraxtlardan o'zum, shaftoli, urik anor, olma, gilos, olxo'ri, behi yong'oq, to't, poliz ekinlaridan tarvuz va qovunning turli navlarini etishtirganlar². Asarda o'zum-ning charos, haliliy, maviziy, xusayniy, chillaki navlari; shaftolining ezda va ko'zda pishadigan tukli, tuksiz va anjirsimon navlari; urikning shirpayvand; anjirning sariqva kora navlari; nokning kaldon va dilafro'ziy; to'tning bedona, marvaritaqbalxiy, shohito't navlari hamda boshqa mevalarning hamturlinavlari tilga olingan. Muhammad Solihxo'ja Toshkent viloyati va unga tutash hududlardagi tog'li va tog'oldi mintaqalarning o'simlik dunyosi haqida ham to'xtalib, barcha yerda olma, o'zum, gilos, bodom, yonroq kabi mevali daraxtlar va bish (ko'chala), revand, javdar va boshqa dorivor giyohlar ko'pligini ta'kidlaydi. Hususan, Chimkent atrofida kamyob dorivor giyohlardan darmona ko'p bo'lib, bu yerdan turli mamlakatlarga olib ketilgan ekan. Muhammad Solihxo'ja Toshkent viloyati geografiyasi bayoniga o'tganda, daryolar, tog'lar va aholi manzilgohlari borasidagi ma'lumotlarga katta e'tibor bergan. Xususan, Toshkent sharqidagi Qurama, undan sharqda Boboi Uf (Chotqol), Jeta va Mo'g'ul (Talas olatovi, ba'zan Chotqol), Zartalosh (Pekom) TOG' tizmalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Unga ko'ra Zartalosh TOG'I sharqda qarab Jeta va Mo'g'ul tog'igacha cho'zilgan bo'lib, ulardan so'ng Qoshg'ar tog'lari boshlangan. Ular orasidagi masofa taxminan 80 farsaxga teng bo'lgan. Ayrim TOG' tizmalari o'sha yerlik aholi tilida boshqa nomlar bilan ham atalgan. Masalan, Jeta va Mo'g'ul tog'ida Idris paygambar ziyoratgohi bor deb tushunilgani uchun Idris tog'i, Zartalosh tog'ida Muhammad parranda (shayx Umar BORISTONIY o'g'li) qabri borligi uchun Kobo'tar Kumush ota yoki Xoja Murodbaxsh deb, mazkur tog'ning tarkibiy qismi bo'lgan Qoramazor yoki Salimsoq dovon tog'i esa shahridonliklar va tog'lik aholi tomonidan Koni Mansur deb atalgan. Tilga olingan TOG' tizmalari ayrim joylarda aholi manzilgohi nomi bilan boriston, Farkent, Pskent tog'lari kabi nomlar bilan atalgan. Muhammad Solihxo'ja tog'lar haqida to'xtalarkan, ulardan qanday ma'danlar olinishi xususida ham ma'lumot berib o'tgan. Xususan, Zartalosh, Jeta va Mo'g'ul tog'ida to'z, temir, qo'rg'oshin, mis, kumush, neft, oltin, javhar, yoqo'tning nabotrang, suvsari turlari, yashntoshi, mamar, boriston tog'dan yoqo'tning qazil, siyohrang, suvsari ranglari, oltin, fero'za, neft, qurg'oshin, mis, qalay, temir, Pskent tog'idan esa, kumush qazib olinishi hamda qadimgi konlarning izlari borligi tilga olinadi. Garchi Toshkent atrofidagi tog'lardagi konlar IX — XVIII asrlardagi arab va fors tilidagi manbalarda ham tilga olinsada, lekin XIX asrda mazkur konlar manbasi

cheklangan bo'lib, ularni qazib olish ham juda oddiy usulda bo'lgan. Asarda yuqorida tilga olingan tog'lardan oqo'vchi daryolar haqidagi ma'lumotlar ham o'z aksini topgan. Jumladan, Chirchiq daryosi tarixiy asarlarda Parak (Farak), Choch, Shosh, Turk Iloq, Chir nomlari bilan tilga olingan bo'lsa, Muhammad Solihxo'ja bu daryoni Farak va Chirchiq nomlari bilan tilga olar ekan, «turkiy aholi Chirchiq deb ataydi», deb yozadi va uning manbasini Jeta va Mo'g'ul tog'ida deb ko'rsatadi. Muhammad Solihxo'ja Ohangaron daryosi haqida yozar ekan, bu daryoning qadimiy Ovliq shahar xarobasi yaqinidagi daryo O'rtasidan oqib o'tib, Sirdaryoga quyilganini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, daryoning ikki sohili suvga boy bo'lib, u yerlarda aholi sholikorlik bilan shug'ullangan va etishtirilgan guruch Dashti Qipchoqva Fargonaga ham olib borilgan. 1868 yilda Ohangaron bo'ylaridagi sholi dalalarini o'z ko'zi bilan ko'rgan A.P. Xoroshxin ham «...daryo sohillari deyarli sholi plantasiyalari bilan to'la bo'lib, kengligi 8 verstgacha etadi», deb yozgan edi¹. Asarda tilga olingan Toshkent viloyatidagi aholi manzilgoxlaridan yana biri ko'pab qishloqlarni birlashtirgan Ettikentdir. Muhammad Solihxo'janing bu ma'lumotlari ayni shu davrda Ettikentda bo'lgan A.P. Xoroshxin ma'lumotlari bilan bir xil bo'lib, unga ko'ra Qo'ruq,, Shahidon, Xurumsaroy, Kudash, Osh, Qamishqurg'on, Sorko'l qishloqlari Ettikent deb yuritilgan. Faqat Muhammad Solihxo'ja ularni asarning turli joylarida tilga olgan. Yana biri Ohangaron daryosi oqib o'tuvchi 4 - 6 farsax kenglikdagi darada joylashgan 92 uro'g'ning 92 qishlog'i bo'lib, ular Banokatdan Ovliqgacha cho'zilgan. Muallif o'zi eshitgan xabarlarga ko'ra Zartalosh tog'ida 130 ta qishloq bo'lib, ulardan Namdanak Nush, Parkent (Farkent) va Zarkentni, Chirchiqdaryosining ikki sohilidagi Soyliq, Xondayliq, Chimboyliq, Razalkent, Xo'jakent, BORISTON, Nanay, Xumson, Burchmulla, Pskent qishloqlarini tilga oladiki, bu qishloqdarning ayrimlari IX - XI asr arab-fors mualliflarida Namudvonak Nushkat, Zarankas, Pskat kabi nomlarda uchraydi. «Tarixi jadidayi Toshkand»da Toshkent viloyatining tog'li qishloqlaridagi ziyoratgoh mozorlar ham eslab o'tilgan. Ulardan biri Puli Barbar ko'prigi yaqinidagi Bobo Sardorota yoki turkiy aholi tilidagi Bobo Chirtarota qadamjosi bo'lib, uning ismini muallif sahobalardan Hazrati Ikrama deb tilga oladi. Qadamjo chekkasida bo'loq bo'lib, u yaqin atrofdagi yerlarni suv bilan ta'minlagan. Shuningdek BORISTON qishlog'ida shayx Umar boristoniy, Farkent kishlorida Bobo Mochin, Jeta va Mo'g'ul tog'ida Idris payrambar, Zartalosh tog'ida Muhammad parranda qadamjolari ham bo'lgan. Muhammad Solihxo'ja Toshkent viloyati tavsifida TOG' yon bag'irlaridagi qadimgi shahar harobalari va tog'lar bilan bog'liq rivoyatlar to'g'risida ham ma'lumot berib o'tgan. Xususan, Qurama yaqinida Janodil shahar harobasi bo'lib, rivoyatga ko'ra uning hukmdori Janodil Hazrat Ali tomonidan Ahtam sahoba ortidan bu yurtlarga yuborilgan. Arablar bu yerlarga kelganda mahalliy aholida to'y mavso'mi bo'lib, to'y tomoshagoxi Muhammad Solihxo'ja davriga kelib To'ytepa deb atalgan ekan². Muhammad Solihxo'ja «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining qo'qon xonlari tarixiga bag'ishlangan sahifalarida Toshkentning XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi yarmidagi siyosiy tarixini yoritib, to'rt daha tavsifi qismida shaharning bunyod bo'lishi xususida to'xtalgan. Muallif shaharning yo'zaga kelishini aholi

¹ O'rinboev A. Toshkent solnomasi // Guliston. - Toshkent, 1982. - № 3. - B. 26.

² *Sultanov O'. Xoja Ahrorning Toshkentdagi Madrasa va masjidlari // Imom ad.-Buxoriy saboqlari.-Toshkent,2004. - № 3. - B. 185-186.*

orasida mashhur bo'lgan qadimgi afsonaviy shoxlar Kaykobus va Salor faoliyati bilan bog'laydi, Shu sababli bo'lsa kerak asarda shahar ichi va atrofida qadimgi Eron shohlari ismlari bilan bog'liq nomlar ko'p tilga olingan. Buni Farak (Chirchiq)dan chiqarilgan anhor Podshoh Kaykobus farmoni bilan qazilgani va boshlanish joyi Bandi Podshoh, uning tarmoqlari — Kaykobus, Salor va Zol nomlari bilan yoki Zol arig'ining boshlanish joyining Parvizshohijahon deb atalganida ham ko'rish mumkin. Muallifning yozishicha, XIX asrdagi Shohnishintepa mavzei qadimgi shohlar qarorgohi bo'lgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»dagi rivoyatlarga asoslangan bu kabi ma'lumotlar muallifning zamondoshi, Sebzor qozisi Rahimxo'ja eshon Alixo'ja eshon o'g'lining «Turkiston viloyati gazet»dagi maqolasida va shaharning bunyod qilinishi tarixini o'rgangan rus o'lkarshunoslari e'lon qilgan maqolalarda ham uchraydi. Shuningdek, «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Shohnishintepadan tashqari Afrosiyob, Olintepa, MinguriqShurtepa, Kuxi Baidtepa (yoki Kuvaidtepa) kabi tepaliklar hamda Toshkent viloyatidagi Banokat, Janodil kabi shahar xarobalari ham Muhammad Solihxo'ja tomonidan qayd etib o'tilgan.). Muhammad Solihxo'ja qo'lida ma'lumotlar kamligi bois Toshkentning XIV-XVIII asrning birinchi yarmidagi tarixiga keng to'xtalmay, to'g'ridan-to'g'ri chor hokimlik davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoritishga o'tadi. Toshkentning 1723 yilda qalmoqlar qo'l ostiga o'tib, 1723—1758 yillarda Yo'lbars, Tulabiy, Kusekbiy kabi qozoqxonlari yoki ularning boshqa vakillari orqali idora qilingan davri, asosan, rus manbalarida keltirilgan. Asarda keltirilgan Toshkent tarixiga doir muhim ma'lumotlardan biri shaharning chor hokimlik davriga oid bo'lib, O.D. Chexovichning yozishicha, muallif ushbu ma'lumotlarni bizgacha yetib kelmagan biror bir asardan yoki mazkur voqealarning guvohi bo'lgan kishilardan eshitganlari asosida yozgan bo'lishi mumkin. Unda keltirilishicha, Toshkentda to'rt e'tiborli xonadon vaqillari, Shayxontaxur dahasida Avlayqulixon (Ablay sulton) avlodidan Boboxonto'ra, Beshyogochda ashtarxoniyalardan Rajabbek Ko'kchada Chigatoyxon avlodidan Muhammad Ibrohimbek Sebzorda Jo'jixon nasliga mansub bir kishi hokim bo'lib, ular O'rtasida tinimsiz urush talashlar bo'lib to'rgan. Mazkur holat ilmiy adabiyotlarda aks etgan «chor hokimlik» davriga tegishlidir. Xuddi shu yillarda uch daha hokimlari birlashib, Avlayqulixon avlodlariga qarshi urushgani aytiladi. Lekin qattiqjanglardan so'ng Salimsoqto'ra va Boboxonto'ra (asarda Xonboboto'ra deb ham tilga olinadi) boshchiligidagi Avlayqo'lixon avlodlari birin ketin qolgan uch dahani ham egallab, Shayx Xovand Taxur avlodlaridan Yunusxo'jani viloyat voliyasi etib saylaganlar. Muallifi noma'lum «Anjum at-tavorix» asariga ko'ra esa, Toshkent atrofiga Avlayqo'lixon davrida o'rnashgan chorvador urug'lar va toshkentliklar O'rtasida ziddiyatlar kelib chiqib, toshkentliklar e'tiborli kishilardan Yunusxo'ja, Badalxo'ja va Mulla Shamsiddinlar boshchiligida ularga qarshi ko'rash boshlagan. Ko'rashga boshchilik qilgan Yunusxo'ja Avlayqo'lixon qo'shinida bo'lmagani uchun unumsiz yerlar tekkan kangli, sanchiqli, kiyot, turk urug'lari bilan ittifoqto'zib, ralabani ta'minlagan. Bu janglarda namdanaklik Xo'ja Keldiyor mergan va mahalliy aholidan Oyxo'ja (Yunusxo'janing qarindoshi) ham faol qatnashgan. Natijada Yunusxo'ja, Badalxo'ja, Mulla Shamsiddin va Solih oqsoqol shahar dahalariga hokim bo'lib oladi. Shundan so'ng Yunusxo'ja o'z ittifoqchilari va muridlari bo'lgan sanchiqli, turk urug'lariga Toshkent tevaragidan yerlar bergan. Lekin uch yillik ahillikdan so'ng Yunusxo'ja Sebzor, ko'kcha va Beshyogoch dahalarini ham egallab olgan. Bu yillar mobaynida sanchiqli, qang'li va shaharliklardan tashkil topgan 20000 ga etadigan qo'shin to'plagan.

Yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, voliy etib tayinlangan Yunusxo'ja dastlab viloyatni o'z yaqinlari va sanchiqli urug'iga tayanib barchagan. Keyinchalik, Yunusxo'ja o'z o'g'illari - Muhammadxo'ja, Xonxo'ja, Hoshimxo'ja, Sultonxo'ja va Homidxo'jalarni Toshkent atrofidagi qal'a va qurg'onlarga hokim etib tayinlagan hamda amirlar va shahar akobirlari maslahatisiz, kuchmanchi chorvador urug'lar qo'tqusi bilan Qo'qonga yurish boshlagan¹. Lekin, Yunusxo'ja Olimxon qo'shinlari bilan Xurramsaroy yaqinidagi to'qnashuvda mag'lubiyatga uchrab, Toshkentga qaytgan va bu deyarli barcha manbalarda qayd etilgan. Biroq Muhammad Solihxo'ja boshqa mualliflardan farqli ravishda ; Toshkent qo'shinida Salimsoqto'ra lashkarboshi, Boboxonto'ra, Odilto'ra va Rustamto'ralarning qatnashganini ham yozadi. Mag'lubiyatga uchragan Yunusxo'ja Toshkentga chekinadi. Uning amirlari esa, tog'lar orqali Ettibo'ynoq yo'li bilan Shahidon, Namdanak Farkent qishloqlariga borib, u yerdan Quramaga va Qanjirali qal'asiga o'tadilar. So'ngra qanor yo'li bilan Abdullaxon rabotiga kelib, Yunusxo'ja bilan birlashib, Bashog'och darvozasidan Toshkent shahriga kirib boradi. Tez orada Yunusxo'ja kasallikka chalilib, vafot etgach, o'g'illari Muhammadxo'ja, so'ng Sultonxo'ja hokimiyatni egallaydi. Sultonxo'janing Qo'qonga qarshi harakatlari tufayli Olimxon tomonidan Umarxon boshchiligida yuborilgan qo'shin Toshkentga kelib, Yunusxo'janing boshqa o'g'li Homidxo'jani hokim etib tayinlaydi. Lekin 1808 yilda Toshkent Olimxon qo'shinlari tomonidan qayta egallanadi. Aksariyat manbalarda Olimxonga qarshi kayfiyatdagi toshkentlik amaldorlar faoliyati borasida ma'lumotlar keltirilmagan. Shu sababli, tadqiqotlarda Yunusxo'ja va Sultonxo'ja vafotidan so'ng Toshkentda Olimxonga qarshi turuvchi siyosiy kuchlar to'g'risida fiklar bildirilmaydi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlar esa bu boradagi ayrim masalalarga aniqlik kiritadi. Xususan, Yunusxo'ja amaldorlaridan, Salimsoqto'ra Xonboboto'ra o'g'li dastlab Olimxonga qarshi kurashda faol ishtirok etgan. Keyinroq, aniqrog'i Sultonxo'ja o'limidan so'ng Olimxon xizmatiga o'tgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha mazkur shaxs 1223-1224/1808-1810 yillarda Sayram va Turkistonni egallab, Olimxon huzuriga tortiq bilan kelganda, Toshkent viloyati noibi etib tayinlangan². Lekin, Olimxon o'ziga qarshi uyushtirilgan fitnada Salimsoqto'raning qo'li borligidan xabar topgach, uni bir necha yaqinlari Odilto'ra, To'pchiboshi (?) bilan Eski Juva bozorida so'roqsiz qatl qildirgan. Ta'kidlash lozimki, bu davrda toshkentlik amaldorlar Olimxon tarafdorlari va unga qarshi bo'lgan ikki siyosiy guruhga bo'linib qolgan edi. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Olimxonga qarshi amaldorlardan Qizilarlon Alparslon o'g'li va Rustamto'ra Isfandiyorto'ra o'g'li qo'qonliklarga qarshi harbiy kuch to'plash uchun Qorasaroy darvo-zasidan chiqib, Sayram va Turkistonga ketadi. Ularning Olimxonga qarshi qay tarzda ko'rash olib borganligi to'g'risidagi tafsilotlar keltirilmagan. Fikrimizcha, ularning birlashgan kuchlari Olimxonning Toshkentdagi mavqeiga kattagina xavf solgan. Chunki, Olimxonning qo'lga kiritgan Toshkent va uning shimolidagi yerlarga qayta qo'shin tortishi muarrixlar — Muhammad Haqimxonto'ra va Avaz Muhammad Attor yozganidek «besabab» emas, balki yuqorida nomlari tilga olingan ikki shaxsning Olimxonga qarshi yuritgan faoliyati bilan bog'liq edi.

¹ *Sultanov O.* Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari.- T.: O'zbekistan, 2009.-262 b

² *Muhammadjonov A.* Qadimiy Toshkent. - T.: Sharq, 2002. - 78 b.

Boshqa bir muallif Niyozmuhammad Huqandiy esa Olimxonning yangi yurishiga sanchiqli jamoasining Toshkent yerlariga talonchilik yurishlari sabab bo'lganini yozadi. Shuningdek Olimxon Chimkent, Sayram va uning atrofidagi yerlarni ham talashni rejalashtirgan. Lekin mazkur yurish davlat amaldorlarining Olimxonga qarshi fitnasi va uning natijasida Umarxonning taxtga chiqishi bilan yakun topdi. Yana shuni ta'kidlash joizki, Olimxonga qarshi bo'lgan Idrisquli biy va Muminbek boshchiligidagi amirlar Salimsoqto'ra, Odilto'ra kabi toshkentlik amaldorlar bilan bitim to'zgach, ularning yordami bilangina o'z maqsadlarini amalga oshirishga va Umarxonni taxtga chiqarishga yerishadilar. Shunday qilib, Toshkentning deyarli chorak asr (1784—1808) davom etgan mustaqilligi tugatildi. Toshkent va uning atrofi Qo'qon xonligi tarkibidagi eng yirik va muhim ma'muriy birliklardan biriga aylandi.

2.2. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkent hokimlari va ulardagi boshqaruv tizimining bayoni.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi Toshkentning ijtimoiy-siyosiy tarixiga doir ma'lumotlarning katta qismi Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olingandan keyingi davrga doir. Boshqacha qilib aytganda, muallif o'zi yashagan davr tarixiga katta e'tibor bergan, demak ana shu jihatdan asarning originallik darajasi hamsalmoqlidir. Aytish joizki, Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olingandan keyingi Qo'qon -Toshkent munosabatlari harakteriga ko'ra ikki davrga bo'linadi:

Birinchi davr XIX asrning 10 — 40 yillari;

Ikkinchi davr XIX asrning 40 — 60 yillari.

Manbalardagi ma'lumotlar taxlili birinchi davrda, ya'ni Umarxon va Muhammad Alixon hukmronligi yillarida Toshkent hokimlari va markaziy hokimiyat O'rtasida jiddiy ziddiyatlar yo'zaga kelmaganligini ko'rsatadi. Bu, avvalo, Umarxon va Muhammad Alixon davrida xon hokimiyatining kuchligi va qolaversa o'zoq vaqt Toshkent hokimi bo'lgan, Lashkar beglarbegrining katta siyosiy mavqega ega bo'lishiga qaramay, Qo'qon xonlariga sadoqat bilan xizmat qilishi bilan bo'g'liq.

XIX asrning 40-60 yillarida esa Toshkent ayrim hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishi natijasida Qo'qon-Toshkent munosabatlari murakkablashib, bir necha bor urush xujjatlari yo'zaga kelgan. Ayni shu davr voqealari «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida batafsil yoritilganligi alohida ahamiyatga ega. Xususan, Qo'qon xoni Sheralixonning o'g'li Salimsoqxonning Toshkentdagi mustaqil hokimlik davri -1261/1844—1845 yilda hokimiyatni o'z qo'liga olgan Musulmonqul mingboshi Toshkentga Mullo Holbekni hokim qilib yuborgan. Toshkent 1842 yilda amir Nasrulloning Qo'qonga yurishi va Muhammad Alixon o'limidan so'ng Buxoro qo'l ostiga o'tgan. Amir tomonidan Toshkent hokimi etib tayinlangan Muhammad Sharif otaliq 1842 -1843 yillarda HOKIMLIK qilgan. Qo'qon Sheralixon xon etib ko'tarilgach, qo'qonliklarning amir Nasrullo noiblariga qarshi harakati natijasida Toshkent ham qaytarib olinib, shaharni qaytarib olishda qo'shinga boshchilik qilgan Salimsoqxon hokim etib tayinlangan. Lekin ko'p o'tmay Sheralixon fitnada o'ldirilgach, Qo'qonga qaytishda Musulmonqul mingboshi qarshiligiga uchragan Salimsoqxon Buxoro amirligi hududiga chekinib Toshkent g'arbidagi Chordara qil'asidan boshpana toptan. Musulmonqul mingboshi tomonidan tayinlangan Toshkent hokimi Mulla Holbek tomonidan Salimsoqxonni ta'qib qilish uchun yuborilgan Davronbek parvonachi (keyinchalik badodirboshi) esa ko'kcha darvozasidan chiqib, Qoraqamish arig'iga yetganda oraga odam solib Salimsoqxon tomoniga o'tib ketgan. Shundan so'ng Salimsoqxon Toshkentga kelib, shaharni egallab, mustaqil hokimlik qila boshlagan. Mudammad Solidxo'janing so'zlariga qaraganda, bu voqea 1262 yil rabi' us-soniy oyi oxirida (1846 yil, mart —aprel) yo'z bergan. Salimsoqxon o'z mulkini kengaytirish maqsadida Toshkent qo'shinini Lashkar beglarbegi va Davronbek bahodirboshiga topshirib, To'ytepa, Nuli Mirzo (Mirzachul), Ubaydullaxon raboti yunalishi bilan Xo'jandga yurish qilgan. Bundan xabar topgan Musulmonqul mingboshi Toshkentga qo'shin tog'tgan. Salimsoqxon esa Toshkentga qaytib, mudofaaga tayyorlangan va uning bo'yrug'i bilan shahar devorlari ta'mirlangan. Aftidan Salimsoqxon va amir Nasrullo o'rtasida qandaydir o'zaro manfaatli aloqa bo'lgan. Aks holda amir Nasrullo qoshidan Rajabbek inoq qo'shbegi

boshchiligida taxminan 2000 navkar Salimsoqxonga madad uchun yetib kelmagan bo'lar edi. 1846 yilning oxirida Musulmonqul mingboshi yosh Xudoyorxon bilan birga Xo'jand yo'li bilan To'ytepa orqali kelib, Toshkentga bir farsax yerda to'xtagan. Havo sovuq bo'lishiga qaramay, shahar qirq kun qamalda ushlab turilgan. Mudammad Solihxo'janing yozishicha, Musulmonqul mingboshi bo'yrug'i bilan Beshog'och, Qo'ymas va Qo'qon darvozalariga baland narvonlar qo'yilib, qo'rg'on ichiga kirishga harakat qilingan. Lekin, Bashog'och darvozasiga Lashkar Quymas Rajabbek inoq, Qo'qon darvozasiga Davron bahodirboshi kuchlari oldindan joylashtirilgan bo'lib, ular darvozalarni qattiq mudofaa qilgan. So'ng mudofaachilarning birlashgan kuchlari tilga olingan uch darvozadan chiqib, qo'qonliklarga qaqshatqich zarba bergan va Musulmonqul mingboshi qamalni tashlab ketishga majbur bo'lgan. Biroq, Davron bahodirboshining Turkistonga ketganidan xabar topgan Musulmonqul mingboshi Kerovchi hokimi O'taboy qo'shbegini ishga solib, Miyon Fazl Halil vositachiligida Salimsoqxon bilan sulh to'zishga erishadi. Salimsoqxon nomidan Bekmuhammadbiy Nurmuhammadbiy o'g'li va Qozi Islom kelib Salimsoqxonga ziyon etkazmaslik sharti bilan sulh to'zgan. Baliqchiga hokim etib tayinlanib, Qo'qonga yuborilgan Salimsoqxon esa ko'p o'tmay yo'lda o'ldirilgan. 1263 yil muharram oyida (1846 yil, deqabr) Muhammad Alixonning sobiq maxramlaridan Aziz (Ashtiy) parvonachi amali bilan Musulmonqul mingboshi tomonidan Toshkentga hokim etib yuborilgan¹. U Toshkentning Musulmonqul mingboshiga topshirilishiga qarshilik qilgan Salimsoqxon tarafdorlaridan bir guruh shahar a'yonlarini, jumladan, Bekmudammadbiy Nurmuhammadbiy o'g'li, Samandar badodir Nurmuhammad badodir o'g'li, Eshonxo'ja oqsoqol va boshqalami Qo'qonga jo'natib, yo'ldayoq o'ldirtirib yuborgan².

Muhammad Solihxo'ja so'zlariga qaraganda, Aziz parvonachi hokimligi davri toshkentliklar uchun eng og'ir davr bo'lgan. Bu «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida keltirilgan 1263/1847 yil ramazon (avgust) oyida, Toshkentda yo'z bergan qo'zg'olon tafsilotlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallifning yozishicha, Aziz parvonachining ramazon oyi munosabati bilan lashkar sarfi uchun 4000 tillo miqdorida «iftor puli» solig'ini solishi shaharda katta norozilik harakati boshlanishiga olib kelgan. Aziz parvonachining bunday qaror qilishiga Toshkentning Mullo Holbek mingboshi (sobiq hokim) va Xudoyorxon tomonidan uch oy mobaynida qamal qilib turilishi va bu vaqt davomida yuz bergan kattiq janglar sabab bo'lgan deb aytish mumkin. Garchi bu yurishda Qo'qon qo'shini shaharni egallamagan bo'lsada, uning iqtisodiy ahvoriga, ayniqsa, harbiy salohiyatiga katta ziyon etkazgan edi. Aziz parvonachi Qo'qondan bo'ladigan yangi hujumdan xavfsirab, shahar mudofaasini va Toshkent qo'shinini ko'chaytirishga majbur bo'lgan. Chunki xonlikda urush holatlarida xon tomonidan harbiy salohiyatni ko'chaytirishga qaratilgan to'plar qo'yish uchun «mis puli», qurol uchun «miltiq puli», qo'shinni ulov bilan ta'minlash uchun «ulov puli» kabi soliqlar joriy qilinardi. Aziz parvonachining o'zboshimchalik bilan bunday soliq joriy qilishi aholining kutilmaganda ko'tarilishiga olib kelgan. Asarda keltirilishicha, aholi 12-ramazon chorshanba kuni va payshanba kuni kechasi hokim siyosatiga qarshi norozilik

¹ Vohidov Sh. XIX asr Toshkent tarixchilari. - T., 1996. - 34 b.

² Muhammadjonov A. Qadimiy Toshkent.-T.: Sharq, 2002. - 78 b.

boshlagan. Aziz parvonachi navkarlari bilan Janggoh arig'i ko'prigi yoniga kelib, bosh ko'targan haloyiqqa qarshi jangga kirgan. Muhammad Solihxo'ja qo'zg'olon etakchilari to'g'risida hech narsa demaydi. Lekin tong otgach, ikki tomon sulh to'zib, Xoja Ahror va Fo'lodboy Tinchbofiy jome masjidlarida birgalikda juma namozini o'qiganliklarini tilga oladi. Aziz parvonachi shahar kattalariga, xususan, Raximbek Qozoqboybiy o'g'liga alohida hurmat ko'rsatgan. Raximbek Qozoqboybiy o'g'lining o'sha yillarda bahodirboshi amalida bo'lganligiga e'tibor bersak norozilik harakatida shahar aholisining yuqori qatlami ham ishtirok etgan deyish mumkin. Norozilik harakatining bu qadar jiddiy tus olishini kutmagan shahar amaldorlari hokim bilan bitim tuzgan. Aftidan, yuqori tabaqaning Aziz parvonachi bilan sulh to'zishidan norozi bo'lgan aholining quyi qatlami juma kuni kechasi Janggohda norozilik harakatini yangidan boshlagan. Qo'zg'olonning ikkinchi bosqichi o'sha vaqtda Toshkentda, Jangob mahallasida yashagan muarrix Avaz Muhammad Atorning asarida ham o'z aksini topgan. Ushbu muallifning yozishicha, Parchabof mahallalik Muhammad Yusufboy boshchiligida bosh ko'tarib, juma kuni kechasi xufton namozidan so'ng, bir-birlariga xabar berib, qaytadan norozilik harakati boshlangan. «Tarixi jadidayi Toshkand»dagi voqealar davomiga qaraganda, ko'zrolonchilarning yangi olomoni Aziz parvonachi navkarlariga hujum qilgan¹. Avaz Muhammad Atorning yozishicha, Aziz parvonachi O'rdadan bir necha ming navkar bilan chiqib kelib, bozorning misgarlar rastasiga ketgan va bir qism odamlarini Sag'bon mahallasidagi olomon ustiga yuborgan. O'zi Jangob va Parchabof mahallalaridagi tartibsiz ko'zrolonchilar bilan jang olib borib, ko'chalardagi to'siqlarni olib tashlab, Xotin masjidgacha yetib kelgan. Lekin shu yerda qo'zrolonchilarning qattiq qarshiligiga uchragan. Oxir oqibat hokim qo'shinining merganlari binolar tomiga chiqib, olomoni o'qqa tutgan va ilajsiz qolgan qo'zrolonchilar qochishga majbur bo'lgan. Ko'zrolonchilar iftordan so'ng hujumni davom ettirib, to'p va miltiqlardan o'q otib, ark qal'asini to'rt tomondan o'rab olgan. Bundan havotirga tushgan shahar a'yonlari Qurama hokimi Normuhammad qo'shbegi va uning qo'shini boshlig'i Shodmonxo'ja sudurga odam yuborib yordam so'ragan. Normuhammad qo'shbegi shaharga kelgach, 12 kunlik jangdan so'ng qo'zg'olon bostirilgan. Aziz parvonachi esa oilasi bilan Qo'qonga yuborilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»dan ma'lum bo'lishicha, 1268/1851-1852 yilda Qo'qon Toshkent munosabatlaridagi navbatdagi ziddiyatlarning yo'zaga kelishiga Musulmonqul mingboshining hokimiyatga qaytib, Mullo Holbek va Muhammadyor dodxohning qatl etilishidan norozi bo'lgan Mullo Karimquli dasturxonchi, Muhammadnazar Guro'g'li va uning ikki o'g'lining (Xolmuhammad dodxoh va Xotamqo'li risolachi) mingboshiga qarshi bo'lgan Toshkent hokimi Normuhammad huzuridan panoh topishi sabab bo'lgan.

1852 yil fevral- iyun oylarida Toshkentda bo'lgan rostovlik savdogar S.Ya.Klyucharevning yozishicha, dasturxonchi va risolachining Toshkentga qochib kelishi 1852 yil 8 fevralda yuz bergan. Abu Ubaydullohning yozishicha, ko'p o'tmay Qosimboy ponsadboshi, Muhammadniyoz ponsad va Shodmonxo'ja ham Toshkentga qochib kelgan. Normuhammad qo'shbegi Musulmonqul mingboshining qochqinlarni qatl qilish to'g'risidagi bo'yrug'ini rad qilib, o'zining Xudoyorxonga qarshi emasligini va agar Musulmonqul mingboshi mansabidan tushirilmasa Toshkent qo'qonga bo'ysunmasligini ma'lum qilgan, Shundan so'ng Musulmonqul mingboshi bahorda Xudoyorxon

¹ *Sultanov O.* Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida («Tarixi jadidayi Toshkand» va «Xulosat ul-ahvob» asarlaridagi ma'lumotlar taxlili) //.-Toshkent, 2007. - № 3. - B.57-67.

hamroxligida Toshkentga yurish boshlagan. Klyucharevning qayd etishicha, Musulmonqul mingboshi 1852 yil 7 martda 40000 kishilik qo'shin bilan Toshkentga etib kelgan. Muhammad Solihxo'ja esa Chirchiqdan o'tgan qo'shin Niyozbek qil'asiga hujum boshlagani, lekin qal'ani egallay olmagan Musulmonqul mingboshi uning rufarasi Tana suydi mavzeida yangi qal'a qurdirib, u yerga qurol-yarog', oziq-ovqat zaxirasini bir qismi navkarlari bilan qoldirib, o'zi Toshkent qo'rg'oniga yetib kelganini yozadi. Jang vaqtida O'tabboq qo'shbegi ham o'g'illari va yaqinlari bilan Normuhammad qo'shbegi tomonga o'tib, shahar ichiga kirib ketgan. Natijada QO'QON qo'shinida tartibsizlik yo'z berib, Musulmonqul mingboshi Niyozbek tomonga chekinib, Parvizshoh mavzeiga kelib to'xtagan. Ertasi kuni Qo'qonga qaytishda Chirchiqdan o'tayotgan Musulmonqul mingboshi kuchlariga shahardan chiqib kelgan O'tabboq qo'shbegi boshliq Toshkent qo'shini hujum qilib, katta talafot etkazgan. Biroq, «Zafarnomayi Xudoyorxoniy» asarida yozilishicha, Musulmonqul mingboshi 1-2 oy o'tmay, Toshkentga ikkinchi bor qo'shin tog'tib, shaharni qamal qilib atrofii talon-toroj etgan. Klyucharev ma'lumotlariga qaraganda, Normuhammad qo'shbegi buni oldindan sezgan va mudofaani ko'chaytirish maqsadida shahardagi barcha savdogarlardan bir necha bor pul yiqqan, aholidan esa «tanob puli» solig'ini olgan. Bundan tashqari, amirga o'z vakilini, keyinroq tortiq sifatida 6000 qo'y yuborib, Musulmonqul mingboshiga qarshi ko'rashda yordam so'ragan. Qo'qonga yuborgan josuslaridan Musulmonqul mingboshining Toshkentga yurishga tayyorligi haqida ma'lumot olgach, shaharga kirish-chiqishni qattiq nazorat ostiga olgan, toshkentliklarga hatto Chirchiqdan o'tish ham taqiqlangan¹. Shahar qozikalonini esa mingboshi bilan xufiya aloqasi borligi uchun hibsga olgan va Toshkent a'yonlariga so'nggi nafasigacha Musulmonqul mingboshiga qarshi ko'rashish to'g'risida Qur'onni qo'lga oldirib qasam ichtirgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra ana shu paytda, 1268 yil rajab oyida (1852 yil, aprel-may) Xudoyorxon Toshkentda oq kigizga chiqarilib, qaytadan xonlikka ko'tarilgan. Katta ziyofatdan so'ng O'tabboq qo'shbegi amirlashkar etib tayinlanib, Qo'qonga Musulmonqul mingboshi tarafdorlariga qarshi yurish boshlangan. Bu yurish, ko'p o'tmay, xonlikda qipchoqlarning ayovsiz qirg'in qilinishiga olib kelgan edi.

Toshkentning Qo'qon qo'shinlari tomonidan navbatdagi qamal qilinishi 1878/1862 yil boshlariga, qisqa vaqt xonlik qilgan Shohmurodxon ibn Salimsoqxon davriga to'g'ri keladi. Muhammad Solihxo'ja bu paytda Samarqandda bo'lgan va mart oyida Samarqandda Qanoat otaliq Buxoro amiridan madad so'rab, elchi qilib yuborgan qozi askar Eshon Sharifxo'ja Eshon Podshoxo'ja Zibachi o'g'li hamda Jumanbiy Taxtapuliyni uchratgan va qozi askar bilansuhbatlashgan. Tabiiyki, Muhammad Solihxo'ja Toshkentdagi voqealarni undan eshitgan. Uning o'zi tahsilni tugatib, 1278 yil zulhijja oyida (1862yil, may) Toshkentga yetib kelgan va keyingi voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Muhammad Solihxo'ja bergan ma'lumotlarga ko'ra, Alimqo'li mingboshi(keyinroq amirlashkar) va Shodmonxo'ja mingboshi tomonidan 1862 yil fevralida Salimsoqxonning o'g'li Shohmurodning xon etib ko'tarilishidan norozi bo'lgan Qanoat otaliq mart oyidayoq Buxoro hududida yurgan

¹ Ozadaev F. Toshkent tarixidan ocherklar (XIX asning ikkinchi yarmida shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi).-T.: Fan, 1960.-268 b.

Xudoyorxonni Toshkentga keltirib, Qo'qonmi egallamoqchi bo'lgan. Buni yaxshi anglagan. Alimqo'li mingboshi 1278 yil sha'bon va ramazon oylari orasida (1862 yil, fevral-mart) Shodmonxo'ja mingboshi va Shohmurodxon hamrohligida Toshkentga yurish qilgan. Qo'qondan Alimqo'li qo'shini bilan birga Toshkentga kelgan «Xulosat ul-ahvol» muallifining so'zlariga qaraganda, qo'qonliklar shaharni 35 kun qamal qilgan, deyarli har kuni qurolli to'qnashuvlar bo'lib to'rgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Shodmonxo'ja mingboshi Oqqo'rg'on va Qorasaray darvozalariga birnecha bor hujum uyushtirgan. Lekin mudofaachilardayarli barcha hujumlarni qaytargan. Xolmuhammad zakotchi va Abdumumin qirg'izning jang maydonini tashlab ketishi hamda Toshkent hokimining amirga ko'mak so'rab yuborgan elchiligi haqidagi xabar qo'qonliklarning qamalni tashlab ketishiga sabab bo'lgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida o'sha paytda Toshkentda yo'z bergan voqealar birmuncha kengroq yoritilgan bo'lib, ulardan biri Toshkent atrofining ko'chmanchi aholi tomonidan talon-toroj qilinishi hamda shaharning ko'zga ko'ringan oilasidan chiqqan Yo'ldoshbek Qozoqboybiy o'g'lining Toshkentda hokimiyatni egallashga qaratilgan urinishi bilan bog'liq. Muhammad Solihxo'ja birinchi voqea to'g'risida «... Toshkent shahri atrofida qazoqiya va elatiya (chorvador aholi) fitna va isyon bayrog'ini ko'tarib, Toshkent davlatxohlari va muboshirlari qo'qon hukmdoriga (Xudoyorxon), Sho'rchi mavzeiga noma yubordilar. Binobarin fisqu fasodga barham berish uchun Do'stmuhammad bahodirboshi qoraqalfoq jangchilari bilan bu diyorga etib keldi va (toshkentlik)qo'rqmas fuqarolar bilan birga dushmanga qarshi jang qilib, shaharning to'rt tomonini (fitnachilardan) tozaladi», deb yozali. Bu voqea «Tarixi jadidayi Toshkand»dan tashqari «Tarixi jahonnamoyi» va «Xulosat ul-ahvol» asarida ham tilga olingan bo'lib, ular ma'lum ma'noda bir-birini to'ldiradi. Xususan, voqeaning uchi «Tarixi jahonnamoyi» asarida mavjud¹. Avaz Muhammad Attorning yozishicha, Alimquli va Shodmonxo'ja Xudoyorxon bilan muxolifat yo'zasidan Toshqora ismli kishini Toshkentga yuborib, atrofda qozoq, qoraqalpoq, sanchiqli urug'larini shaharni talashga undagan. Ular, agar Shohmurodxon taxtga qaytsa, hammalaringizni munosib taqdirlaydi, deb va'da bergan. Muhammad Solihxo'janing qayd qilishicha, Xudoyorxon Sho'rchidan Toshkentga yuborgan Do'stmuhammad bahodirboshi shaharga kelib tartibsizliklarni bartaraf qilgan. U Hoji to'ra ismli vakilini fitna uyushtirgan urug'lar bilan sulh tuzish uchun Sharobxona va Lashkar beglarbegi raboti orqali Chimkentga yuborgan. Avaz Muhammad Attorning so'zlariga qaraganda esa, voqea yo'z bergan vaqtda Xudoyorxon Toshkentga ukasi Sulton Murodbekni hokim qilib tayinlagan. Chunki, Avaz Muhammad Attor va Abu Ubaydullohning so'zlariga ko'ra, o'sha paytda Toshkent hokimsiz bo'lgan. Sulton Murodbek qipchoqlarga qarshi yurishda bo'lgani uchun uning nomidan shaharga kelgan Do'stmuhammad dodxoh yo'z bergan talonchilikni bartaraf etgan. Lekin «Tarixi jadidayi Toshkand»dagi keyingi ma'lumotlar bu bilan shahardagi notinchliklar tugamaganligini ko'rsatadi². Bunga Toshkentning e'tiborli oilasidan bo'lgan Yo'ldoshbek Qozoqboybiy o'g'lining shahar hokimligiga da'vo qilib chiqishi sabab bo'lgan. Yo'ldoshbekning otasi Qozoqboybiy Olimxon davrida Beshyog'och dahasida

¹ Vohidov Sh. XIX asr Toshkent tarixchilari. - T., 1996. - 34 b.

² Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T.: Sharq, 1998.

oqsoqol bo'lib, uning o'g'illari Rustambek (ma'lum vaqt Toshkent va Turkistonda hokim, mazkur voqea yo'z berganda Xudoyorxon qoshida dasturxonchi amalida bo'lgan), Rahimbek (Qurbonbek Mallaxonning qaynotasi), Solihbek dodxoh va barcha qarindoshlari Toshkentda ko'zga ko'ringan shaxslardan edi. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, tilga olingan tartibsizliklar vaqtida Yo'ldoshbek akasi Solihbek dodxoh uyida qarindoshlari va yaqinlarini to'plab, hokim bo'lmoqchiligini ma'lum qilgan. Solihbek dodxoh maslahati bilan sanchiqli, beshtamg'ali va boshqa urug'lar huzuriga yuborilgan Yo'ldoshbek odami ularni sulh tuzish uchun kelayotgan Hojito'raga qayrashi natijasida Hojito'raga Lashkar beglarbegi rabotida hujum qilganlar. Bu yerda Muhammad Solihxo'ja Solihbek dodxohga yaqin kishilar toifasidan bo'lgani uchun bo'lsa kerak Solihbek dodxoh va Yo'ldoshbek hatti-harakatlari bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni keltirmagan. Buni biz Yo'ldoshbek va uning aka-ukalaridan ko'p aziyat chekkan Abu Ubaydulloh yoki mazkur oilaga aloqasi bo'lmagan Avaz Muhammad Attorning yozganlaridan bilib olishimiz mumkin. Abu Ubaydullohning so'zlariga qaraganda, Yo'ldoshbek hokimsiz qolgan Toshkentga hokim bo'lishga harakat qilib, yorliq yozib yuborishini so'rab Buxoro amiri va Xudoyorxonga noma yuborgan. O'sha vaqtda Buxoro amiri ko'magida Alimquli va Shodmonxo'ja mingboshiga qarshi kurash olib borayotgan. Xudoyorxon bunga ko'nmay Sulton Murodbekni hokim etib tayinlagan. Lekin Yo'ldoshbek extimol, Xudoyorxon huzuridagi ukasi Rustambek dasturxonchiga umid boglaganmi yoki xaqiqatan ham amirdan yorliq olganmi (bunga Abu Ubaydulloh ham shubha bilan qaraydi) Solihbek dodxoh, Qurbonbek kuyovi Xolmuhammad zakotchi va 200 odami bilan Do'stmuhammad bahodirboshi kelib joylashgan hokim o'rdasini qamal qilgan. Shaharliklar Yusufboy, Gadoybiy sarkor, Abulqosimboy, Norxo'ja eshon boshchiligida toshkentliklardan 10000-12000 qorakaltak to'plab, Yo'ldoshbek odamlariga qarshi O'rdaga yo'l olgan. Avaz Muhammad Attorning yozganlariga qaraganda, Yo'ldoshbek Toshkent atrofida fitna uyushtirgan elatiyadan pora olib, Kamolon darvozasini ularga ochib bergan. Natijada fitnachilar shaharga kirib, Jangob arig'igacha etib kelgan. Do'stmuhammad bahodirboshi O'rdadan chiqib, shayxontaho'g'liklar, sebzorliklar va ko'kchaliklar bilan birga o'sha joyga borib, fitnachilarga hujum qilib, ularni to'zgitib, ayrimlarini asir olib shahardan chiqarib yuborgan. Abu Ubaydullohning yozishicha, Xoja Ahror jome masjidiga yaqinlashgan Do'stmuhammad bahodirboshi dastlab mojaroni tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida Chorsuda turgan talonchilar xuzuriga Solihbek dodxoh, Qurbonbek va Yo'ldoshbekni topshirishni so'rab, Norxo'ja eshon boshchiligidagi o'z vakillarini yuborgan. Lekin Qurbonbek Norxo'ja eshon va uning sheriklarini o'ldirgan. Shundan so'ng toshkentliklar olomon bo'lib ularga hujum qilgan. Buning natijasida Yo'ldoshbek Buxoroga qochgan. Ayni paytda ularning Bashog'ochdagi uylariga ham hujum boshlanib, talon-toroj qalangan. Guvohlarning so'zlariga qaraganda, Solihbek dodxoh uyidan 6000 dinor pul, Yo'ldoshbek va Qurbonbek uyidan esa 70 ta katta sandiq aholi qo'lga tushgan. Bu holni bayon qilar ekan, «...ularning dastidan qo'shnilarining hovlilari ham butkul vayron bo'ldi», deb yozadi Abu Ubaydulloh oshkandiy. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olingandan boshlab, XIX asr davomida Toshkentni boshqargan hokimlar haqida asarning bir joyida emas, balki to'liq ismida, har xil voqealar tafsilotlarida ma'lumot topish mumkin. Asarda bayon qilingan Toshkent hokimlari orasida Lashkar beglarbegi to'g'risida ma'lumotlar anchagina. Ma'lum bo'lishicha, u Muhammad Alixon buyrug'i bilan Toshkent devorlarini ta'mirlab, O'rda atrofida

xandaq qazdirgan hamda shahar atrofida bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirib, shaharda Madrasa, karvonsaroy, rabot va tegirmonlar qurdirgan. «Muntaxab o't-tavorix» asarida Muhammad Alixon tomonidan Lashkar beglarbegi Mahmud dasturxonchi, xonning o'g'li Muhammad Aminbeklar bilan amir Nasrullo ho'zuriga ikkinchi bor elchi qilib yuborilganda amir bo'yrug'i bilan qatl etilgani ta'kidlansada, Muhammad Solihxo'ja Lashkar beglarbegining 1262/1845 -1846 yil voqealari chog'ida Buxorodan Salimsoqxon bilan birga Chordaraga ketganini va yuqorida tilga olingan Musulmonqul mingboshi va Xudoyorxonning Toshkentga yurishida shahar mudofaasida qatnashganini qayd etgan. Hokimlar xonlikdagi boshqa noiblar ega bo'lmagan huquq va yerkinliklarga ega bo'lgan. Jumladan, Toshkentdan tashqari Chimkent, Sayram, Turkiston, Avliyoota, Oqmasjid, PishpaqTo'qmoq kabi qil'a shaharlarni hamda o'sha atrofdagi O'rta jo'z qozoqlari va qirg'izlarni boshqarish Toshkent hokimi qo'lida edi. Toshkent hokimligiga devonbegi, dodxoh, mehtar, ponsadboshi amalidagi xonning ishonchli kishilari yoki o'g'illari hamda aka-ukalari tayinlangan va ular o'z mansablaridan tashqari in'om etilgan darajalarga ham ega bo'lganlar. Xususan, 1835 yilda Lashkar qo'shbegi «beglarbegi» unvonini olgan bo'lib, bu unvonni xonlikda juda ham amaldorlar olgan. Sh.Vohidovning yozishicha, Isfara va Chahorkuh hokimi Sotiboldi dodxoxga beglarbegi unvoni ham berilgan.

Yozma manbalarda ushbu unvonga ega bo'lgan boshqa amaldorlar ham tilga olingan. Masalan, Tojirning «Raroyibi sipoh» asarida Umarxon davrida Qosim beglarbegi, Komiyning «Tavorixi manzuma» asarida Muhammad Alixon davrida Sayidqulibek (vaf. 1835 i.) beglarbegi lavozimida bo'lgani tilga olingan, Lekin, Lashkar beglarbegi ularga nisbatan ancha katta nufuzga ega bo'lgan. Boshqa bir Toshkent hokimi — Qanoat otaliqesa, Mallaxon davrida Pishpakda rus askarlariga qarshi jangdan so'ng «otaliq g'oziy» unvonini olgan¹. Aksariyat hokimlar qo'shbegi, parvonachi yoki mingboshilik darajasiga ko'tarilgan (O'tabboq qo'shbegi, Xolbek qo'shbegi, keyinroq, mingboshi, Qanoat otaliq, Normuhammad qo'shbegi, Mirzo Ahmad parvonachi, keyinroq qo'shbegi, Aziz parvonachi va boshq.). Ko'pchilik hokimlarning Toshkent hokimi bo'lguniga qadar uning atrofidagi Buka, Qurama, OBLIQ, Turkiston, Chimkent kabi ma'muriy birliklarning hokimi vazifasini bajarganligiga qaraganda, bu xonlikdagi eng katta va muhim viloyatni boshqaruvchi nomzodlar uchun o'ziga xos sinov amali bo'lgan². Ayrim qaltis vaziyatlardagina xonlar Toshkentga o'z aka-ukalari yoki Qo'qondagi ishonchli amaldorlarini hokim qilib yuborgan. Jumladan, Xudoyorxon davrida Mallaxon, Sulton Murodbekruslar istilosi paytida saroy munshiysi Yunusjon munshiy shunday holatlarda hokim etib tayinlanganini ko'rish mumkin. Shuningdek xonlar tomonidan Toshkent hokimligiga tayinlangan nomzod yosh bo'lsa yoki boshqa bir sabablarga ko'ra viloyat maxsus belgilangan shaxs tomonidan idora qilingan. Masalan, Lashkar beglarbegi Olimxonning o'g'li Shoxruxxon IV (1810) va Umarxonning o'g'li Abdullaxon (1820—1823) hokimligi paytida amalda Toshkentni idora qilgan. Yoki ayrim davrlarda Salimsoqxon nomidan Mustafuqulixon (1844), Sulton Murodbek nomidan Do'stmuhammad bahodirboshi (1863), Niyoz Ali qo'shunbegi (1863) hokimning ishonchli kishisi sifatida boshqaruvni o'z qo'lga olganligida ham ko'rish mumkin. Hokimlar siyosiy vaziyatga ko'ra yoki

¹ O'rinboev A., Buriev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida. - T.: Fan, 1983.-56 b.

² Sultanov O'. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent darvozalari haqida ma'lumotlar // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. -Toshkent, 2006 y. B. 70 -77

ish olib borishiga qarab xonlar tomonidan xohlagan vaqtda almashtirilgan. Markaziy hokimiyatni qo'lga olgan Musulmonqul mingboshi va Alimqo'li amirlashkar davrlarida esa, Toshkent hokimlarini tayinlash va vazifasidan olish ularning qo'lida bo'lgan. Lekin, ayrim hokimlar, xususan, Lashkar beglarbegi, Normuhammad qo'shbegi va Qanoat otaliq Toshkent hokimlari ichida eng e'tiborlisi bo'lib, ular turli vaqtlarda xonlikdagi siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Masalan, Lashkar beglarbegi Muhammad Alixonning Qoshg'arga yurishida Toshkent qo'shiniga, 1840 yilda Amir Nasrulloqa qarshi O'ratepaga qilgan yurishida Qo'qon qo'shiniga bosh qumondonlik qilgan. Normuhammad qo'shbegi esa, 1852 yilda Musulmonqul mingboshi hukumatiga qarshi chiqib, uning ta'qibidan qochganlarni o'z himoyasiga olgan va bo'tun mamlakatda qipchoqlarga qarshi guruhga boshchilik qilgan. Bu harakat, ko'p o'tmay, Musulmonqul mingboshining qatl etilishi va qipchoqlar kirg'ini bilan yakunlangan. 1862 yilda esa Qanoat otaliq Shohmurodxon ibn Salimsoqxonni xon etib ko'targan Alimqo'li xukumatiga qarshi chiqib, amirlik hududida yo'rgan Xudoyorxonni keltirib taxtga chiqargan edi. Toshkent hokimligi qarorgohi O'rda joylashgan Toshkent shahri bevosita hokim tomonidan shaharning ma'muriy birliklari — to'rt dahaning oqsoqollari yordamida idora qilinib, oqso-qollar shaharning e'tiborli xonadonlari vaqillaridan tayinlangan. Ular shahar ijtimoiy-siyohayotining dolzarb vaziyatlarida hokim kengashlarida ishtirok etgan. Daha oqsoqolliklari Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, o'z ma'muriyati tomonidan raqamlab quyilgan. Masalan, Shayxontahur dahasi oqsoqolli 1-oqsoqollik Sebzor dahasi 2-oqsoqollik Ko'kcha dahasi 3-oqsoqollik Beshyog'och dahasi 4-oqsoqollik deb yuritilgan. Bundan tashqari, xonlik markazida bo'lganidek hokimning o'z devonxonasi bo'lib, uning tizimida diniy mansab egalari — *qozikalon, shayx ul-islom, dahalar qozalari, qozi askar, muxtasib (rais), muftiy, naqib, oxund, xalifa, imom*; ma'muriy boshqaruvga oid mansablar — *dahalar oqsoqollari, devonbegi, xazinachi, sarkor, zakotchi, munshiy*; harbiy tizim mansablari — *bahodirboshi, sarkor, ponsadboshi, yo'zboshi, yasovulboshi, daxboshi* kabi amallar mavjud bo'lib, ular belgilangan tartibda Toshkent xazinasidan maosh olgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»dan ma'lum bo'ladiki, Toshkent hokimi viloyat boshqaruvining barcha jabhalarini idora qilgan va muhim ishlar yo'zasidan shahar a'yonlari va davlat amaldorlari bilan maslahatlashgan. Uning zimmasidagi asosiy vazifa Toshkent hamda qozoq va qirg'izlar sarhadlaridagi osoyishtalikni saqlash, yillik soliq va yig'implarni o'z vaqtida xonga etkazib berish bo'lgan. Yunusxo'ja davrida Toshkent hududida ikki xilmis pullar — rupiya va tanga muomalaga chiqarilgan bo'lib, 5 tanga 1 rupiyaga teng edi. Albatta, Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olingandan so'ng xonlikning pul tizimi doirasiga kiritilgan. Lekin «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida yoki boshqa mahalliy manbalarda Toshkent hokimlarining pul zarb ettirgani yoki Qo'qon xonlarining Toshkentdagi zarbxonalari to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi. 1865 yildan so'ng shaharda Qo'qon xonlarining tilla va kumush tangalari hamda rus rubli muomalada bo'lgan. 1866 yilda Toshkentda bo'lgan I.P. Pashinoning yozishicha, o'tla paytda shahardagi pul kursi ko'tarilib-tushib turgan va 1 tilla 3 rubl 80 tiyin, gohida 4 rublga teng bo'lgan. 1884 va 1889 yillarga oid vaqf hujjatidagi ma'lumotlarga qaraganda, bu davrda 1 rus rubli Toshkentda muomalada bo'lgan 5 tangaga teng edi. Soliqlar xonlikda joriy etilgan mezon

¹ Vohidov Sh. Qo'qon xonligida unvon va mansablar // Sharq yo'lduzi. -Toshkent, 1995 y.214-221 bet

bo'yicha, asosan, xiroj, tanobona va zakot ko'rinishida olingan. Xususan, xiroj o'troqaholining dehqonchilik yeridan hosilning 1/5 qismidan 1/2 qismigacha miqdorda yirib olingan. Tanobona poliz va bog'lardan pul hisobida o'ndirilgan. Zakot esa, turli shakllarda mol-mulkdan va chorvadan olingan. Lekin favqolodda xujjatlarda, asosan, urushlar paytida hokimlar qo'shimcha soliqlar ham yig'ib olgan. Xususan, 1847 yil ramazon oyida Toshkentda, Xudoyorxon hukumatiga qarshi bosh ko'targan Aziz parvonachi o'z kuchlarini oshirish uchun Toshkent aholisiga 4000 tilla miqdorida «iftor puli» solig'ini solgan va bu aholining hokimga qarshi ko'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan edi. 1852 yil fevral — iyun oylarida Toshkent Musulmonqul mingboshi boshliq Qo'qon qo'shinlari tomonidan qamal qilingan paytda, shaharda bo'lgan rostovlik savdogar S.Ya. Klyucharevning yozishicha, Normuhammad qo'shbegi mudofaani ko'chaytirish maqsadida shahardagi barcha savdogarlardan bir necha bor pul yiqqan, aholidan esa «tanob puli» solig'i olgan. Bunday soliqlar va yig'imglar, o'z navbatida, aholining keskin qarshiligiga sabab bo'lar va ikki O'rtada tez-tez qonli to'qnashuvlar yo'z berib to'rar edi.

2.3. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishining talqini etilishi.

O'rta Osiyo tarixini o'rganishda o'lkarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davriga doir manbalar xilma-xilligi va murakkabligi bilan ajralib to'radi. Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari ham Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarini yoritib beruvchi asosiy manbalardan biridir. Muhammad Solihxo'ja harbiy harakatlar jarayonini boshqa mualliflardan farqli ularoq, voqealar ketma-ketligi asosida batafsilroq yoritishga intilgan. Shu sababli asardagi mazkur harbiy harakatlarga doir ma'lumotlarni quyidagi mavzularda ko'rsatish mumkin:

- QO'QON xonligining shimoliy sarxadlarida Joylashgan qal'alar istilosi;
- Toshkentga bo'lgan hujumlar va shaharning bosib olinishi;
- Buxoro amirligi hududlaridagi harbiy yurishlar
- qo'qon xonligining tugatilishi;
- Xiva xonligiga yurish.

Bundan tashqari, muallif Turkiston genyeral-gubernatori N.K.fon Kaufmanning Xuroson va Sharqiy Turkistonga uyushtirgan harbiy harakatlari bilan bog'liq voqealarga ham qisqacha to'xtalib o'tgan. XIX asming 40-yillari oxiri va 50-yillariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, ichki va tashqi siyosatning barqarorlashuvi qo'qon xonligining shimoliy va shimoli-sharqiy chegara hududlarida keng qo'lamda harbiy harakatlarni boshlash imkonini berdi. Mazkur hududlardagi qal'a va qo'rg'onlar uchun bo'lgan janglar boshqa manbalar singari «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ham o'z aksini topgan. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining qo'qon xonligiga yurishlari asarda ilk bor 1267/1850—1851 yil voqealarida tilga olingan. Unda keltirilishicha, Chu daryosi bo'yidagi Marki qal'asida Toshkent hokimi Normuhammad qo'shbegi zakotchilari bilan mahalliy aholi O'rtasida yo'z bergan kelishmovchilik paytida rus askarlarining mahalliy aholiga yordam berish bahonasida mojaroga aralashishi ikki o'rtada qurolli to'qnashuvni keltirib chiqargan. Bu voqeadan xabar topgan Normuhammad qo'shbegi shahar a'yonlari bilan maslahat qilganda Miyon Halil O'rtaga gashlagan tadbir qozi Nizomiddin Pskandiy boshchiligidagi guruh tomonidan yuqqa chiqarilgan. Muhammad Solihxo'ja Marki qal'asining bosib olinganligi to'g'risida hech narsa demaydi. Mahalliy manbalar orasida faqat «Tarixi jahonnamoyi» asaridagina to'qnashuv sabablari keltirilmasada, qamal tafsilotlari qisqa bayon qilingan.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida aks etgan keyingi voqea Oqmasjidning olinishi bilan bog'liq. Muhammad Solihxo'ja imperiya qo'shinining Oqmasjidga yurishi sabablari va jang tafsiotlariga Mallaxon bilan Xudoyorxon ziddiyatlari bayonida to'xtalgan. Oqmasjidga hujumning sababini Muhammad Solihxo'ja Normuhammad qo'shbegi tomonidan Oqmasjidga hokim etib tayinlangan Sayd kassob o'g'li Pskandiyning o'sha atrofdagi barlos, argin urug'lari mulkini talashi n bog'laydi. Mazkur jamoalar Samara va Oren-rurgdagi rus ma'murlaridan mollarini qaytarib olishda yordam berishlarini so'rganlarida shuni kutgan imperiya askarlari o'z bo'linmalari bilan Birqozon ko'liga etib kelgan. Okmasjidga hujum esa yangi hokim Abduvali davriga to'g'ri kelgan. U navkarlari va aholi bilan qattiq mudofaaga kirishgan. Biroq rus askarlari 40

kunlik qamaldan so'ng qal'a devorlariga yaqinlashib, ikki minorani portlatib vayron qilgan, lekin qal'ani ololmay qaytib ketgan. Lekin Oqmasjid 1853 yil 28 iyo'lda qayta qamal qilinib, qattiq jangdan so'ng bosib olingan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida xonlik kuchlarining Toshkent hokimlari boshchiligida Oqmasjidni qaytarib olishga qaratilgan yurishlari ham o'z aksini topgan. 1853 yili Shodmonxo'ja mingboshi va 1854 yili So'fibek Davronbek bahodirboshi o'g'lining Okmasjidga uyushtirgan harbiy harakatlarini ko'zatadigan bo'lsak mazkur yurishlarda, asosan, Toshkent hokimi qo'l ostidagi qo'shin qatnashganligini ko'rish mumkin. Lekin, Xudoyorxon ularni sustkashlikda ayblab, Shodmonxo'jani Qu-krnga chaqirib olib, mag'lubiyati uchun tuyaga teskari mindirib sharmanda qildirgan, So'fibekni esa hokimlikdan tushirgan. Muhammad Solihxo'ja 1858 yilda taxtni egallagan Mallaxonning xonlikning harbiy salohiyatini tiklashga va o'z navbatida istilochilar qo'liga o'tgan qal'a va qo'rg'onlarni qaytarib olishga qaratilgan o'rinlarini tilga olib, Mallaxon buyrug'i bilan og'irligi 100 dehqon maniga teng, o'zunligi 15 qarich, kengligi 7 qarich bo'lgan zambaraklar quyilganini eslab o'tgan. Shundan so'ng Mallaxon 1860 yil avgust-sentyabr oyi boshlarida polkovnik Simmyermanning To'qmoq va Pishpak qal'alarini egallashiga javoban sentyabr oyida Qanoat otaliq Toshkentga hokim etib tayinlab, istilochilar egallab turgan Ashtak va Ashfara qil'alariga yurish qilish haqida bo'yruc beradi. Qanoat otaliq Lashkar beglarbegi davridan qolgan Toshkent qo'shinini qayta qurollantirib, Chimkent yo'li bilan yurishga chiqqan. Lekin, Ashtakdagi jangda qo'qon kuchlari sardori Olimbek dodxoh Qanoat otaliqqa bo'lgan shaxsiy adovati tufayli, jangga kirmay, qo'shini bilan orqaga chekingan. Bu haqida mazkur jangda qatnashgan muarrix Niyoz Muhammad Huqandiy ham ta'kidlab o'tgan. Mallaxondan yangi bo'yruc olgan Qanoat otaliq Turkiston va Yangiqo'rg'on oraliqidagi qal'a va qo'rg'onlarni egallab turgan istilochilarga qarshi o'z qo'shinini tayyorlab, Chimkent, Turkiston orqali Sirdaryo sohilidagi Yangiqo'rg'on mavzei(qal'asi)ga kelgan. Cho'loq yaqinidagi qisqa to'qnashuvdan so'ng toshkentliklar Yangiqo'rg'on qil'asini ta'mirlashga kirishgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, ta'mirlangan qil'aning to'rt burjiga to'rt minora qurilib, alohida boshliqlar tayinlangan. Huddi shu paytda Mallaxonning fitnada o'ldirilishi hamda taxtga chiqarilgan Shohmurod ibn Salimsoqxon va Alimqo'li mingboshi (keyinchalik amirlashkar) hamda Xudoyorxon o'rtasidagi ziddiyatlar xonlik harbiy kuchini yanada zaiflashtirib, istilochilarning Sirdaryo bo'ylarini bosib olishini osonlashtirdi. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1863 yilda Sulton Sa'idxonni taxtga chiqarib, hokimiyatni o'z qo'liga olgan Alimqo'li amirlashkar Normuhammad nayzabardor Zodiyoyni (keyinroq qo'shbegi) Toshkentga, Mirza Davlat dodxoh Qorateginiyni Turkistonga, Niyozali ponsadboshi Shahrizabziyni Avliyootaga, shuningdek PishpaqTo'qmoq qal'alariga ham o'z odamlaridan tayinlab, istilochilarga qarshi ko'rashga tayyorgarlik uchun Qo'qonga qaytgan¹.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida istilochilarning Turkistonni bosib olishi borasida qiziq bir ma'lumot keltiririlgan. Unda ramazon oyi (1862 yil, mart-aprel) o'tgach, bahorda Oqmasjiddagi Rossiya tobeligiga o'tgan chorvador aholining chorva mollari uchun yerlar torligini aytib, Turkistongacha bo'lgan yerlarga yurish qilishni targ'ib qilgani keltirilgan. Muhammad Solihxo'janing

¹ Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-T.: Sharq, 1998.

fikricha, Buxoro amiri Qo'qondan Buxoroga qaytar mahali (1863) amir ho'zuriga rus hukmdoridan bir elchi maktub bilan kelgan. Maktubda agar amir qarshi bo'lmasa, Oqmasjiddagi o'z askarlariga bo'ruq berib, Turkistondan Toshkent, Jizzax O'ratepa, Xo'jand, Marg'ilon va Andijongacha bo'lgan yerlarni o'z tasarrufiga kiritishini ma'lum qilgan va agar amirning e'tirozi bo'lmasa, elchisini yuborishi so'ralgan. Bunday muomalani ko'tmagan amir o'z elchisini rus hukumati huzuriga yuborgan va shunga ko'ra Rossiya davlati Oqmasjiddan Turkistonga, Qiziljar, Shamay va Omatudan Avliyootaga hujum boshlagan. Muhammad Solihxo'ja ham boshqa mualliflar singari Turkiston mudofaachilarining to'rt kunlik qamaldan so'ng mag'lubiyatga uchraganligini qattiq iztirob bilan bayon qilgan. Qirq zambarak bilan Chimkentga hokim qilib qoldirilgan Mirzo Ahmad qo'shbegi qal'ani ta'mirlashga kirishgan. Abu Ubaydullohning so'zlariga qaraganda, Alimqo'li amirlashkar Mirzo Ahmad qo'shbegi ixtiyoriga 10000—15000 navkar va to'plar qoldirgan. Bundan tashqari, u atrofdagi qozoqlardan ulov puli sifatida 5000 — 6000 tilla pul yig'ib olgan va ming kishilik mardikor olib kelinib, xandaq qazishga jalb qalangan. lekin hali xandaklar bitmay turib, istilochilar Chimkentga hujum boshlab, qal'ani egallagan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, M.G.Chyernyaev boshliq askarlar bir tomondan, yana bir guruh Turkiston tomondan hujumga o'tib, qal'a devorlarini vayron qilib, mudofaani yorib kirgan. Chimkentning olinishi Avaz Muhammad Attorning ma'lumotiga ko'ra, 1281 yil jumod ul-avval oyining 3-kunida (1864 yil, 4 oktyabr) yo'z bergan. Shundan so'ng M.G. Chyernyaev bo'linmalari Toshkentga yurib, shaharning sharq tomonidagi Darvishak qofqa mavzeida Kaykobus arig'idan o'tgan va Xoja Ahrorning Oqq'org'ondagi vaqf yerida to'xtagan. Bundan xabar topgan toshkentliklar to'rt dahadagi merganlarni yig'ib, o'z dahalari bo'yicha joylashtirgan. Toshkent hokimi Qo'sh farmonchi qipchoq navkarlari bilan shaharning sharqiga, Mirzo Ahshad qo'shbegi Oqqo'rg'on darvozasiga, Xayrmuhammad afg'on to'pxonaboshi ularning oraliriga joylashib, mudofaaga tayyorlangan va barcha darvozalar yopilib, Qo'qonga odam yuborilgan. Bu paytda o'z masjidida bo'lgan Muhammad Solihxo'ja shaharliklarning tunu kun shahar mudofaasini mustahkamlash bilan shug'ullangani va uch kun o'tgach, istilochilarning Oqqo'rg'on mavzei tomonidan zambaraklar bilan hujumga o'tganini yozadi¹. Mazkur xabarni o'sha vaqt Toshkentda bo'lgan «Xulosat ul-ahvol» asari muallifi Abu Ubaydulloh ham tasdiqlaydi. Muhammad Solihxo'ja o'sha kunlarda do'stlari bilan Qo'qon darvozasi to'pxonasiga kelib, Xayrmuhammad afg'on navkarlariga ko'maklashgan. Uning yozishicha, istilochilar shahar devori atrofidan hujumga o'tgach, ayrim chapdast rus askarlari xandakdan ham o'tib, devorga yaqinlashgan va ulardan 76 tasi o'ldirilgan². M.G. Chyernyaev bo'linmalarining shaharga kirish uchun xandakdan o'tishga o'rinishi va xandaq atrofida 80 ga yaqin rus askarlari o'ldirilganini boshqa bir muallif K.K. Abaza ham ta'kidlab o'tadi. M.G.Chyernyaev Eski Qo'qon yo'li bilan Salor arig'i ko'prigidan Afrosiyob tepaligiga kelganda, Alimqo'li amirlashkar va Sulton Sa'idxon kelayotganini eshitib, Bo'zsuv ko'prigidan o'tib Chimkentga qaytib ketgan. Toshkentga kelgan Alimqo'li amirlashkar mudofaada jonbozlik ko'rsatganlarni taqdirlagan.

¹ *Sultanov O.* Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari.- T.: O'zbekistan, 2009.-145 b

² Shorahimov Sh., Ro'zieva M. Toshkent darvozalari // Fan va turmush. - Toshkent, 1982. - №

9. - B. 4 -5.

Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, 1280/1864 yil navro'zida Alimqo'li amirlashkar qo'qonda davlat ishlari yo'zasidan qurultoy chaqirib, yig'inda Mullo Yunusjon munshiyni vaqtinchalik Toshkentni idora qilish uchun yuborgan. U Toshkentga kelgach, Chimkentga, ya'ni rus ma'murlari yoniga Hofiz Ko'haqiy mahallalik Muhammad Sayid ismli savdogarni elchi qilib yuborgan. Mazkur elchi rus hukumatining amirga yuborgan nomasi va amirning javob elchiligi to'g'risidagi xabar bilan Toshkentga kelgan. Mullo Yunusjon munshiy bu axborotni tezlik bilan Qo'qonga etkazgan. Mazkur xabar Alimqo'li amirlashkar va Sulton Sa'idxonning Turkistonga yurishiga sabab bo'lib, ikki tomon O'rtasidagi Iqonda bo'lib o'tgan jang asarda batafsil yoritilgan. Jumladan, yurishga Qo'qon qo'shini bilan birga Sag'bon darvozasidan Turkistonga yo'l olgan Mirzo Ahmad qo'shbegi, Qo'sh farmonchi, Yusufboy dodxoh O'tabboq qo'shbegi o'g'li, Muso Muhammadbiy Bekmuhammadbiy o'g'li boshchiligidagi Toshkent qo'shini ham jalb qilingan. Qo'shin Turkistondan 3 farsax bo'lgan Iqon qishlog'ida Chimkentga yordam uchun ketayotgan rus askarlariga tunda hujum qilgan. Bu yasovul Serov boshchiligidagi kazaklar otryadi bo'lib, ular mudofaada mustahkam turgan. Muhammad Solihxo'jaesa ilojsiz qolgan rus askarlari Turkistonga qochganini yozadi. Voqeaning boshqa guvohi ham ruslarning chekingani va Iqon qal'asining bo'zilib, aholisi xonlik hududiga ko'chirilganini ta'kidlaydi.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida tarixiy jihatdan muhim va ancha batafsil bayon qilingan voqealar — bu istilochilarning Toshkentga asosiy yurishi va shaharning bosib olinishi voqealaridir. Janglarda shaxsan o'zi qo'lida qurol bilan ishtirok etgan Muhammad Solihxo'ja mudofaaga boshchilik qilgan Hakimxo'ja qozikalon, Solihbek dodxoh kabi shaxslar bilan yaqindan tanish bo'lgan va bu unga harbiy harakatlarning borishidan xabardor bo'lib turishga imkon bergan. Bundan tashqari, u bir necha bor davlat ahamiyatiga molik kengashlarda, ruslar bilan to'zilgan sulh marosimida ham ishtirok etgan. Shu sababdan, mazkur voqealarga batafsilroq to'xtalamiz. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1281 yil zulhijja oyida (1865 yil, aprel-may) M.G. Chyernyaev o'z askarlari bilan Chimkentdan Toshkent shahar devori shimolidagi Darvishak qofqa mavzeiga yetib kelgan. Abu Ubaydulloh esa rus askarlari dastlab Toshkentdan 8 farsax bo'lgan Sharobxona mavzeiga kelib, 20-30 nafar askar bilan Turbat mavzei atrofini o'rganganini yozadi. «Tarixi jadidayi Toshkand» dagi voqealar davomiga ko'ra, M.G. Chyernyaev toshkentlik Abdurahmonbek ko'rsatmasi bilan Parvizshohi mavzei qarshisidagi shaharga suv kiradigan Niyozbek qil'asini qamal qilib, uning o'zi boshchiligida elchi yuborgan¹. Bu paytda Toshkentdan 3 ming kishilik ximoyachilar 2 zambarak bilan Niyozbek qal'asi himoyachilariga yordamga kelgan. Lekin ularning hujumi qaytarilib, uch kundan so'ng Niyozbek bosib olingan va Kaykobus arig'i Chirchiq daryosiga burib yuborilib, Toshkent suvsiz qoldirilgan. Shundan so'ng M.G. Chyernyaev o'z askarlarini Niyozbekdan 2 farsah Toshkentdan 3 farsax bo'lgan Durmoncha QISHLOG'I ortidagi Sho'rtepa mavzeidagi tepalikka joylashtirib, hujumga tayyorlangan. Bundan xabar topgan shahar hokimi Qo'sh farmonchi kengash o'tkazib, yordam so'rab Oqmasjid mahallalik Eshon Boboxo'ja aminni qo'qonga yuboradi.

¹ *Sultanov O.* Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari. - T.: O'zbekistan, 2009. - 149-151 b.

Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1281 yil 19 zulhijjada (1865 yil, 15 may) Alimqo'li amirlashkar yordamga o'tlanib Jomador to'pxonaboshi Hindistoniy va Hindubacha ponsadboshi boshchiligidagi xonlik artillyeriyasi hamda Qurama, Andijon, O'ratepa, Namangan, Xo'jand, Marg'ilon navkarlaridan iborat qo'shin bilan To'ytepa orqali Afrosiyob tepaligidagi Mingo'rik chorbog'iga kelib loylashgan. Tez orada Sulton Sa'idxon ham Toshkentga etib kelgan. Afrosiyob tepaligida o'tkazilgan davlat kengashida Siddiqto'ra Kenisari o'g'li bosh qumondon, ukasi Arslonto'ra sipohsalor amaliga tayinlangan. Ko'p o'tmay, istilochilarning 2 firqa bo'lib, Sh'ortepadan Oltintepaga, Nazarbek qurboshi kur-ronidan o'tib, otliqlar va piyodalarga bo'linib, Salor arigi bo'yiga kelib to'xtagani ma'lum bo'lgach, Alimquli amirlashkar buyrug'i bilan dastlab Jomador to'pxonaboshi boshchiligidagi to'pchilar 36 ta zambarak bilan, ularning ortidan barchalar jangga tashlangan. Salor arig'i bo'yida turgan rus askarlariga qarshi mudofaachilarning otliqlari Tarxonsayyod arig'i bo'yiga keltirilgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, ruslar hujumni boshlagach, mudofaachilar otliqlari va piyodalari uch tomondan tez harakat qilib, Nazarbek qo'rboshi qo'rg'onchasi, so'ng Olimchek yo'li va Oltintepadan o'tib, Sho'rtepani o'rab olgan. Ilojsiz qolgan M.G. Chyernyaev askarlari bilan chekinishga majbur bo'lgan. Shu kuni Salor arig'i bo'yida o'tgan kengashda toshkentliklar va atrofdagi elatiya, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatdan foydalanib, Siddiqto'ra va Arslonto'ra boshchiligidagi qo'shinning dastlab Chimkentga, so'ng ikki qismga bo'linib, biri Turkistondan Oqmasjidgacha, ikkinchisi Avliyoota, To'qmoq, Ashfara, Olmatu va G'uljagacha bo'lgan yunalishda hujumga o'tishini taklif qiladi. Lekin Qo'qon amaldorlari (Otabek sharbatdor boshchiligidagi) bunga rozi bo'lmaydi. Muhammad Solihxo'ja Salor arig'i bo'yida o'tgan kengashning yertasiga — yakshanba kuni bo'lgan jangni shunday tasvirlaydi: Asardagi ma'lumotlarga qaraganda, janglarda shahar aholisi ham faol ishtirok etgan. Biroq, yaxshi qurollangan rus askarlari hujumni ko'chaytirib, Salor arig'igacha yetib kelgan. Alimquli amirlashkar faqat navkarlarning o'z o'rnida qolishini tayinlab, jang maydonidagi shaharliklarning qurg'on ichiga qaytishi to'g'risida bo'yruq bergan. Bu paytda dushman Durmonchadan ham hujumga o'tgan. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, istilochilarning sebzorliklar mudofaasini yorib o'tganini ko'rgan Qo'qon navkarlari g'alabadan umidini o'zib, qo'lga kirgan narsani olib, Chirchiqdan o'tib Qo'qonga ravona bo'lgan. Xuddi shu vaqtda Alimqo'li amirlashkarning yarador bo'lib, jang maydonidan hokim o'rdasiga olib ketilishi ham mudofaachilarning ruhan tushkunlikka tushishiga va tartibsiz harakatlanishiga olib keladi. Muhammad Yunus Toyib va Abu Ubaydulloh Toshkandiyning so'zlariga qaraganda, Alimqo'li amirlashkar o'limidan so'ng Mirzo Ahmad qo'shbegi, Bekmuhammad qo'shbegi va Qo'sh farmonchi taxminan 6000 — 7000 nafar farg'onalik navkar bilan Toshkentni tashlab ketgan. Aslida esa, ularning maqsadi Qo'qonda hokimiyatni egallash edi. Bundan foydalangan istilochilar Oqqo'rg'on yeriga kelib, to'plar yordamida hujumni davom ettiradilar. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Otabek sharbatdor boshliq amaldorlar Qo'qonda taxtni Xudoyorxon egallashidan xavfsirab, Sulton Sa'idxonni Qo'qonga olib ketmoqchi bo'lgan. Lekin Solihbek dodxoh, Bobojonbiy ponsadboshi, Siddiqto'ra, Arsloto'ra va boshqalar sa'y-harakati bilan Sulton Sa'idxon Toshkentda oq kigizga solinib, qaytadan xonlikka ko'tarilgan. Jangda og'ir yaralanib vafot etgan Alimqo'li amirlashkar Shayx Xovand Taxur mozoriga, Langar hovo'zining shimol tarafidagi qayrag'och

daraxti ostiga vaqtincha dafn etilgan. Dafn marosimida ishtirok etgan Muhammad Solihxo'ja bu to'g'rida batafsil to'xtalib o'tgan. Muhammad Solihxo'janing ta'kidlashicha, ko'p o'tmay Mulla Qanbar ismli bir xitoy yoki habash qul M.G.Chyernyaev oldiga borib, Alimqo'li amirlashkarni miltiqdan men otib o'ldirdim, deb aytgan. Otasi Avliyoota mudofaasini tashlab ketgani uchun qatl qilingan Usmon Ali Niyoz Ali ponsadboshi o'g'li esa Qo'qonga, Xudoyorxon oldiga borib, Alimqo'li amirlashkarni men otib o'ldirdim, deb gap tarqatgan. Lekin, Muhammad Solihxo'ja ikkalasining ham gapi buxton ekanligini ta'kidlab, Alimqo'li amirlashkar o'limining guvohlari borligini yozadi, Muhammad Solihxo'janing yozishiga ko'ra, Alimqo'li amirlashkarning vafoti 1281 yil zulhijja oyining 25-kuni yakshanbadan do'shanbaga o'tar kechasi (1865 yil, 21 may, yakshanba) yuz bergan. Ko'p o'tmay, o'sha joyga alohida sag'ana hozirlab, qayta dafn etilgan. Rus manbalariga qaraganda, ikki yildan so'ng Alimqo'li amirlashkar suyaklari qarindoshlari tomonidan yashirin ko'chirilib, o'z yurtiga olib ketilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»da o'sha paytda Toshkentdagi murakkab vaziyat ham aniq tasvirlab berilgan. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, 1282 yil muharram oyining 2-kuni (1865 yil, 28 may) bo'lib o'tgan kengashdagi kelishuvga binoan yordam so'rab uch tomonga, ya'ni Buxoro amiriga, Xudoyorxonga va Toshkent viloyatida to'rgan Qo'sh farmonchi va Mirzo Ahmad qo'shbegiga maktub va elchilar yuborilgan. Otabek sharbatdor boshliq guruh esa, yosh xonni Buxoroga olib borishga qaror qiladi. Mirzo Ahmad, Qo'sh farmonchi va boshqa amaldorlardan iborat ikkinchi guruh Sulton Saidxonni xuzuriga chaqirib olib, qo'qonda hukumatni o'z qo'liga olmoqchi bo'lgan¹. Qo'qonlik amaldorlar va Toshkent a'yonlari O'rtasidagi kelishmovchiliklar to'g'risida voqealarning boshqa bir guvohi Abu Ubaydulloh ham eslatib o'tgan. Bu paytda istilochilar hujumni davom ettirib, Quvaidtepa mavzeiga, Mirobod mavzeidagi ko'chaga, Afrosiyob tepaligi yonidagi qadimiy Katta Qo'qon yo'liga, Xoja Darvoz yeridagi Azizberdi oqsoqol yeriga piyoda va otliq askarlarini joylashtirib, qil'adan 3000 qadam narida zambaraklardan ota boshlaydi. Toshkentliklar ularga qarshi Qirilmos tepaligi va darvozasi to'pxonasiga, Sherdor, Qo'qon darvozalari to'pxonalariga, Qosim mingboshi ko'chasi oxiridagi Hindubacha to'pxonasiga zambaraklar o'rnatib, mudofaani saqlab to'rganlar. Bu orada Otabek sharbatdor turli yo'llar bilan Sulton Sa'idxonni Samarqandga borishga ko'ndiradi va muharram oyi oxirida (1865 yil, iyun) bo'lgan kengashda amirning yosh xonni Samarqandga yuborish to'g'risidagi taklifi qabul qilingan². Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Sulton Sa'idxon Shayxontaxur dahasida yaqinlari (ular orasida muallif ham bo'lgan) bilan xayrlashib, Mir Hamid Mir Hasan oqsoqol o'g'li va 50 kishilik navkar hamroxligida ko'kcha darvozasidan chiqib, Samarqandga yo'l olgan. Ana shundan so'ng istilochilarning Toshkentga hal qiluvchi hujumi 1282 yil safar oyining 10-kunida (1865 yil, 5 iyo'l) tongda boshlanib, asosiy e'tibor shaharning janubi-g'arbidagi xiyobon dar-vozasiga qaratilgan. Bundan tashqari, avvalgidek Azizberdi oqsoqol va Salimsoqbiy tepaligiga ham zambaraklar o'rnatilgan. Muallifning so'zlariga qaraganda, qo'shinga faqat o'zini o'ylovchi Otabek sharbatdor bosh bo'lishi ham mudofaachilarning

¹ *Sultanov O'*. Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida («Tarixi jadidayi Toshkand» va «Xulosat ul-ahvol» asarlaridagi ma'lumotlar taxlili) //.-Toshkent, 2007. - № 3. - B.57-67

² *Vohidov Sh.* Qo'qon xonligida unvon va mansablar // Sharq yo'lduzi. -Toshkent, 1995 y.214-221 bet

noroziligiga va sidqidildan jangga kirmasligiga sabab bo'lgan ekan. Dastlab Qirilmos darvozasi yaqinidagi tog' yo'lak Qorabadal Qiyotiy va Jontoy Qiyotiy ismli kishilar o'z joylarini tashlab qochgach, istilochilar tomonidan ISHG'OL qililib, shaharga yo'l ochilgan. Ko'p o'tmay, Sherdor darvozasi ham qo'ldan ketgan. Sherdor darvozasidan kirib kelgan istilochilar guruhlariga bo'linib, ko'hna arkka yetib kelgan, u yerda zambaraklari bo'lgan otliq va piyoda guruxlarga bo'linib, ulardan biri Ko'hna ark qal'asi teshigidan o'tib, Anhor bo'yidagi qadimiy yo'l bilan arkning g'arbiy darvozasidagi bozorgacha yetib kelgan. Ular ham ikkiga bo'linib, biri darvozadan ark ichiga kirgan, ikkinchisi guzar bozorhasidan o'tib, Anhor ko'prigiga kelgan. Mana shundan so'ng toshkentliklarning kichik-kichik guruhlari dushmanga qarshi shaharning turli joylarida, ko'chalarda jang olib borgan. Bunday guruhlarning biri Muhammad Solihxo'ja va uning do'stlari guruhi bo'lib, ular, asosan, Shayxontaxur dahasining Qiyot, Ganjtepa, Minor, Qoshg'ariyon, Yangishahar, Qiyot mahallalarida, Sebzor dahasining Oxun guzar mahallasida hamda Qo'qon, Sherdor darvozalari atroflarida istilochilarning kichik guruhlari bilan yo'zmayuz jang olib borgan. Shaharliklarning ko'chalardagi qarshiliklari haqida Abu Ubaydulloh ham yozib, bu guruhlarda 20, 40 — 50 tadan kishi bo'lganligini ta'kiddaydi. Uning o'zi keksayib qolganiga qaramay, mahalladoshlari bilan Kamolon ko'chasida bo'lgan janglarda qatnashgan. Xiyobon va Bashog'och darvozalaridan kirgan rus askarlariga qarshi bashog'ochliklarning shunday bir guruhi, Qirilmos tepaligidagi jarlikda va Qirilmos darvozasida Siddiqto'ra va Arslonto'ra guruhda jang qilgan. Bundan tashqari, xalifa Abduhalimjon, Abduraxim yasovulboshi va boshqalar O'rda atrofida shahar mudofaasida jonbozlik ko'rsatgan.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, mudofaachilar rus askarlarining harakatlanishidan xabardor bo'lib turgan va ularning yunalishidagi ko'chalarni aravalar bilan to'sib, barrikadalar barpo qilgan. Lekin hal qiluvchi imkoniyatdan foydalanayotgan M.G. Chyernyaev ham hujumga puxta tayyorgarlik ko'rgan. Bundan tashqari, toshkentliklarning harbiy usulini yaxshi o'rganib olgan va o'z askarlarini shunga ko'ra harakatlantirgan. Ayni paytda umidsizlikdan Siddiqto'ra va Arslonto'raning amir huzuriga, Sheralibiy, Muhammad Sharif otaliq va boshqalarning Qo'qonga ketishi natijasida mudofaachilar yetakchisiz qolgan¹. Shaharliklar Solihbek dodxoh, Hakimxo'ja qozikalon ko'rsatmalari asosida harakatlangan. aholi kattiq talofat ko'rib, ko'plab ayollar, bolalar va qariyalar o'z uylarini tashlab, qo'rg'on tashqarisiga chiqib ketgan. Qo'qon darvozasi atrofidagi binolar, Ko'hna ariq, Anhor ko'prigi va ko'plab do'konlarga o't tushib, alanga atrofga yoyila boshlagan. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, u o'z do'stlari bilan birga halok bo'lganlarni dafn qilish, yaradorlarga yordam ko'rsatib, yaqinlariga xabar berish hamda yong'inni o'chirish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Ana shu mahallarda muallif o'zining janglarda halok bo'lgan o'spirin shogirdlaridan Otaxo'ja va Mulla Sodiq daftardor o'g'li murdalarini ham ko'zida yosh bilan dafn qilganini tilga oladi. Oxir-oqibat shahar kattalari Solihbek dodxoh ho'zurida to'planib, o'sha yerda istilochilar bilan ayanchli sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'lgan.

¹ *Sultanov O.* Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari.- T.: O'zbekistan, 2009.-149-151 b.

III –bob. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentning madaniy-ma'naviy hayoti to'g'risida.

3.1. Muhammad Solihxo'janing "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida XIX asrning 80 yillarida Toshkentda faoliyat yuritgan masjidlar, madrasalar tavsifi.

Muhammad Solihxo'ja "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkentdagi mavjud to'rt dahadagi madrasalarni hammasini o'rganib chiqib, ular haqida quyidagicha to'xtalib o'tadi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Toshkent shahri manzarasiga ko'rk berib turuvchi asosiy me'moriy inshootlar, shubxdsiz, madrasalar va masjidlar bo'lgan. Bundan tashqari, ular Toshkent-ning ta'lim maskanlari vazifasini bajaribgina qolmay, shahar madaniy-ma'naviy hayoti vakillari o'zaro fikr almashadigan dargoh ham edi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent shahridagi Madrasa va masjidlar hamda ularning faoliyati to'g'risida boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar keltirilgan.

Muhammad Solihxo'ja, Toshkentdagi 20 ta Madrasa to'g'risida boshqalarga qaraganda to'liqroq ma'lumot beradi. Quyida Toshkent madrasalari haqida «Tarixi jadidayi Toshkand» asari hamda boshqa manbalardagi ma'lumotlarni havola qiladi.

XOJA AHROR MADRASASI

Toshkent madrasalari orasida qadimiysi bo'lgan Xoja AHROR madrasasi 1451 yilda qurilgan bo'lib, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Xoja Ahror jome masjidining shimolida, pishiqRISHT va yunilgan toshlardan bino qilingan. U 20 ta xujra, bir darsxona va besh vaqt namoz uqiladigan masjidni (jome masjididan tashqari) o'z ichiga olgan. Asarda muallif shaharning sharqida joylashgan Okdurron mavzeida Xoja Ahror madrasasining vaqf yerlari borligi va uni boshqarish Xoja Ahror avlodlaridan bo'lgan Musaxonto'ra Saidxonto'ra o'g'lining qo'lida ekanligini ta'kidlaydi¹. 1884 yilda madrasaning tilga olingan Oqqo'rg'on mavzeidagi hamda ushbu mavzening Yangi Tarnov degan joyidagi vaqf daromadining o'zi yiliga jami 1292 so'mni tashqil etgan. Bundan tashqari, shaharning boshqa qismlarida madrasaning vaqf mulklari — yerlar va bozorlarda ko'plab do'konlar ham bo'lgan. Madrasaning vaqf mulklaridan keladigan tushumlarning yuqoriligi bu yerda boshqa madrasalarga qaraganda ko'proq talabalarning tahsil olishiga va mudarrislarining faoliyat ko'rsatishiga sharoit tug'dirgan. Xususan, 1884 yilda madrasada quyidagi mudarrislar talabalarga saboq bergan:

1. Sharifxo'ja qozi mudarris Poshshaxo'ja o'g'li.
2. Domla Umarbek oxund mudarris Mulla Jonibek o'g'li.
3. Azizlarxon qozi mudarris Oyxo'ja eshon o'g'li.
4. Domulla Muhammad Obid oxund mudarris Mulla Bobojon oxund o'g'li.

¹ O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. - T.: O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - 704 b.

eng ko'p tilga olingan Madrasa Eshonquli dodxoh madrasasi bo'lib, u rus manbalarida Shayxontaxur madrasasi deb ham qayd etilgan. Eshonqo'li dodxoh, Lashkar beglarbegining o'g'li bo'lib, u Turkiston hokimi bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, u o'z nomida Turkiston va Toshkent shaharlarida madrasalar qurdirgan. Toshkentdagi Eshonquli dodxoh madrasasi 1256/1840 yili (sigir yili)da Toshkent hokimi Lashkar beglarbegining o'g'li, Turkiston hokimi Eshonquli dodxoh tomonidan Yunusxon madrasasining janubi-sharqida, Katta ko'chaga to'tash yerda qurdirilgan¹. Madrasa to'rt tarafdin bir-biriga qaratib solingan binolardan tarkib topgan. O'rtada qolgan qadimiy bir tanoblik Langar hovo'zi esa Eshonquli dodxoh buyrug'i bilan to'ldirilib, Madrasa sahniga aylantirilgan va evaziga Yunusxon madrasasi chorbog'ida bir tanoblik yangi hovo'z barpo qilingan. Eshonquli dodxohning otasi Lashkar beglarbegi esa Kaykobus arig'iga ikkita tegirmon qurdirib, ularning daromadini shu madrasaga vaqf qilgan. Ma'lumotlariga qaraganda, madrasaga 200 ga yaqin turli do'kon, shuningdek Qiyot mahallasida 2 ta, Turk va Zanjirlik mahallalarida 1 tadan tegirmon vaqf qilingan bo'lib, 1884 yilda Madrasa ulardan yiliga 31800 so'm daromad olgan. 1884 yilda Eshonqo'li dodxoh madrasasida quyidagi mudarrislar talabalarga saboq bergan:

1. To'raxo'ja eshon Xonxo'ja eshon o'g'li.
2. Mahmudxo'ja eshon Ne'matxo'ja eshon o'g'li.
3. Ya'qubxo'ja eshon mudarris.
4. Ahmadilloxo'ja Azamatxo'ja eshon o'g'li.
5. Mulla maxzum.
6. Nasrulloxo'ja eshon Qoraxo'ja eshon o'g'li.
7. Mulla Abdusattor maxzum Aliakbarxo'ja eshon o'g'li.
8. Orifxon maxzum Sharifxo'ja eshon o'g'li.
9. Eshonxo'ja maxzum Mahmudxo'ja eshon o'g'li.

Eshonquli dodxoh madrasasi binosida Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li 1920 yilda Vaqf sho'bbasi qaramog'ida isloh qilingan diniy va dunyoviy darslar tashkil qilgan. Keyinchalik qarovsiz qolib harobaga aylangan madrasaning oxirgi qoldiqlari 1964 yilga kelib yuq bo'lib ketgan.

YUNUSXON MADRASASI

Muhammad Solihxo'ja Yunusxon madrasasi haqida to'xtalarkan, uning Yunusxon makbarasi g'arbida pishiqrishtdan qurilgani, 12 ta hujrasi borligi, Yunusxon mozoriga vaqf qilingan yerlardan tushgan daromad xisobiga faoliyat yuritishi, madrasaning Alachaxon (Sulton Ahmadxon, 1485-1502 yillarda Sharqiy Mo'g'uliston xoni) muhri bosilgan vaqfnomasi bo'lgani, mozor va madrasaning Salor arig'i sharqida joylashgan Pul yemas degan joyida vaqf yeri bo'lganini yozadi².

Sulton Ahmadxon yoki uning akasi Toshkent xoni Sulton Mahmudxonning (1487—1503) Toshkentda otasi nomida Madrasa qurdirgani haqida Yunusxonning nabiralari Zahiriddin Muhammad Boburning (1484—1530) «Boburnoma» hamda Mirzo Haydarning (1499—1551) «Tarixi Rashidiy» asarlarida hech kanday ma'lumotlar uchramaydi. Madrasaga 1881 yiddagi saylov

¹ Jalilov O. Madrasalar ta'rifida // Fan va turmush. Toshkent, 1983. - B.12-13.

² Yunusxo'jaeva M., Mirismoilova U. Toshkent tarixiga doir hujjatlar. - T.: Fan, 1983. - 19 b.

natijasida Sulton Mahmudxo'ja eshon Sulton Sayidxo'ja eshon o'g'li mudarris etib tayinlanib, uning qo'lida 20 talaba tahsil olgan.

QOSIMBOY QORATUTIY MADRASASI

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida keltirilishicha, mazkur Madrasa Qosimboy Qorato'tiy tomonidan Mo'g'ulko'cha guzarida qurilgan. Madrasa binosi ikki tomoni ayvonli, bir xonaqoh, 10 ta xujra va G'ISHTLI gumbazdan iborat bo'lib, pishiq g'ishtdan bo'lgan. Mo'g'ulko'cha mahallasida Mo'minshayx azizlar mozori yaqinida qurilgan ushbu Madrasa jome masjid, darsxona va 15 yog'och xujradan iborat bo'lgan. Madrasa joylashgan mahalla nomi bilan Mo'g'ulko'cha madrasasi deb tilga olinadi va uning 1871 yili qurilgani ham qayd qilingan. Madrasaga 1877 yilda Qosimboy tomonidan shahar tashqarisidagi Mirzo Yusuf mavzesida yer va masjidga to'tash bir hovlini vaqf qilingan. Madrasaga Qori Minxojiddin ismli shaxs mudarris va imom-xatib qilib tayinlangan. 1297/1879—1880 yilda Madrasa mo'tavallisi Ibrohimboy Azimboy o'g'li tomonidan madrasaga qo'shimcha yana 2 ta yog'och hujra solingan. Shuningdek Ibroximboy o'z hisobidan har biri 19 tangaga teng bo'lgan 950 kumush tanga pul ham vaqf qilgan. Madrasani qurdirgan Qosimboy shaxsi haqida batafsil ma'lumotlar yuq. «Qorato'tiy nomini olishiga qaraganda, asli shaharning Qorato't mahallasidan bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing aytiishicha, Qosimboy Qorato'tiy shaharning e'tiborli boylaridan bo'lib, 1865 yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, ikki o'rtadagi sulh jarayonida Solihbek dodxoh, Hakimxo'ja qozikalon safida ishtirok etgan. Qosimboyning ushbu madrasadan tashqari shaharda bir necha masjid ham bino qilgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

MAHMUD DASTURXONCHI MADRASASI

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Mahmud dasturxonchi madrasasi Degrez mahallasida joylashgan bo'lib, madrasaning shifti va devori yog'ochdan ishlangan. Madrasada masjid, xujralar va hovlisida hovo'zi bo'lgan va ularga aloxida vaqflar ajratilgan. Abu Ubaydulloxning so'zlariga qaraganda, Mahmud dasturxonchi Muhammad Alixonning vaziri va Lashkar beglarbegining yaqin do'sti bo'lgan, Toshkentdagi 25 ta xujrani o'z ichiga olgan Mahmud dasturxonchi madrasasi 1833 yilda qurilgan va vaqfnoma shartiga ko'ra Qo'qondagi Madrasa bilan birga Mahmud dasturxonchi avlodlari tomonidan boshqarilgan. Jumladan, 1868 yilda Madrasa va Mahmud dasturxonchi tomonidan qurilgan masjidga uning o'g'li Ishoqxon mutavalli bo'lib, u vaqfnoma shartlariga ko'ra jami daromaddan 12 tilla olgan. 1887 yilda esa Mahmud dasturxonchining Qo'qonda yashovchi nabirasi Mulla Sultonxon otasi Eshonxon vafotidan so'ng Toshkent shahar gubernatori nomiga ariza yozib, Madrasa vaqfnomasida ko'rsatilgan tartibda Toshkentdagi Mahmud dasturxonchi madrasasi mo'tavallisi etib tasdiqlanishini so'ragan. Mulla Sultonxon iltimosi Shayxontahur qozisi tomonidan ko'rib chiqilib, qonuniy deb topilgan va bu iltimos qondirilgan. Madrasada 1868 yilda Mulla Lutfillo oxund mudarris Mulla Mirxon o'g'li, Mulla Mir Rahim mudarris Mulla Mir Alim o'g'li, Mulla Salimjon mudarris Mulla Halimjon o'g'li

talabalarga saboqbergan¹.1920 yilda Toshkentga kelgan Suriyalik mashhur olim Shomiy domulla — Sayd ibn Muhammad ibn Abdulvohid ibn Ali al-Asali at-Tarablusi ash-Shomiy ad-Damashqiy (vaf. 1932) bir qancha vaqt Maxmud dasturxonchi madrasasida joylashib yashab turgan.

BAROQXON MADRASASI

Sebzor dahasidagi qadimiy madrasalardan biri bo'lgan Baroqxon madrasasi Qaffol Shoshiy maqbarasi yaqinida qurilgan. Keyinchalik masjidga aylantirilgan ushbu Madrasa, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1886 yilgi zilziladan qattiq zarar ko'rgan. Ya'ni madrasaning 22 metrli gumbazi qulab tushgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Madrasa bundan oldin ham bir necha bor vayron bo'lib, qayta tiklangan. Baroqxon madrasasi 1868 yilda 34 xujra, bir masjid, bir darsxonadan iborat bo'lgan.

MO'YI MUBORAK MADRASASI

Mo'yi Muborak madrasasi, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, 1274/1857 yili Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qushbegi tomonidan Qaffol Shoshiy maqbarasi janubida, pishiq g'ishtdan bunyod etilgan. Madrasa bitgach, Mirzo Ahmad unga Abdulmajidxon eshon ibn Yunusxon eshonni mudarris etib tayinlagan. Muhammad Solihxo'ja o'sha davrda madrasa o'rni aholi tomonidan Xoja Ahror tugilgan joy deb tushunilib, Xoja Ahror maydoni deb atalganini ta'kidlaydi. Asarda keltirilishicha, madrasaning alohida bir gumbazi bo'lib, unda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) mo'yi (soch tolasi) -«Mo'yi muborak» q'oyilgan. Yaqin kunlargaacha Mo'yi Muborak madrasasining ayrim qismlari Tilla shayx masjidi hovlisida joylashgan edi. Madrasa 13 ta hujra va bir masjiddan iborat bo'lib, ikki mudarris Imomxon mahdum va Abdulmajidxon eshon talabalarga saboqbergan. Mirzo Ahmad qo'shbegi mazkur madrasaning bekamu kust faoliyat yuritishi uchun o'z hokimligi davrida Eski Toshkent, Sariog'och va Xonqo'rg'onda o'z lashtirilgan yerlarni hamda boshqa turdagi mulklarni vaqf qilgan.

BEGLARBEGI MADRASASI

Beglarbegi madrasasi 1254-1256 (1838-1840) yillarda Toshkent hokimi Lashkar beglarbegi (XIX asrning birinchi yarmi) tomonidan qurilgan bo'lib, 2 kavatli, 58 xujradan, iborat .Muhammad Solihxo'ja ma'lumotlarga ko'ra 59 xujradan, bir masjid va darsxonadan iborat bo'lgan. Lashkar beglarbegi shahar Registonida qurdirgan karvonsaroyini ushbu madrasaga vaqf qilgan. ma'lumotlariga qaraganda, 1868 yilda shahardagi Zakotxona, Mahramboshi va Xishtin saroy (karvonsaroy)lari mazkur madrasaning vaqf mulki bo'lib, ulardan 500 tilla, yuz do'kondan 30 tilla, bir tegirmondan 12 tilla, jami 542 tilla Madrasa harjlariga sarflangan.Mazkur madrasaning shimol tomoni rufarasi, Katta ko'cha tomonda Fulodboy Tinchbofiy jome masjidi, sharq tomonda esa Jo'bo (Eski Juva) /mavzeidagi O'razaliboy jome masjidi bo'lgan. Madrasa

¹ O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. - T.: O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - 704 b.

binosi shahardagi chiroyli inshootlardan biri bo'lib, 1873 yilda Toshkentga kelgan amerikalik sayyoh Yu. Skayler uni Toshkentdagi eng "ko'rkam Madrasa deb tilga olgan edi.

SHUKURXON MADRASASI (1)

Sebzordagi Shukurxon madrasasi hujralar, bir masjid va darsxonadan iborat bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, bu Madrasa Sebzor dahasining Tinchbof guzarida bo'lgan. Madrasaning vaqf mulklari bo'lgan ikki saroydan 180 tilla, sakkiz do'kondan 11 tilla, jami 191 tilla Madrasa sarfi uchun ishlatilgan. 1868 yilda madrasada 30 ta talaba bo'lib, Ular ikki mudarris qo'lida — Mirzo Muhammad a'lamda 20 ta, Mulla Mavlonda 10 ta talaba tahsil olgan.

SHUKURXON MADRASASI (2)

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarning dalolat berishicha, Toshkentda Shukurxon nomida ikkita Madrasa bo'lgan. Sebzor dahasidagi Shukurxon madrasasi haqida yuqorida to'xtaldik. Ko'kcha dahasidagi Shukurxon madrasasi esa daha bozori yonida bo'lgan. Ikkala madrasaning ham nima sababdan bir xilda nomlanishi (ikkala Madrasa bir shaxs tomonidan qurilgan bo'lishi ham mumkin)xususida hozircha aniq bir ma'lumot yuq.Ko'kchadagi Madrasa xujjatlarida uning Shukurxonboy ismli shaxs tomonidan qurilgani aytilgan. Mirzo Ahmad Qo'shbegi ikkinchi hokimligi vaqtida ushbu madrasaning qibla tarafida bir saroy qurdirib vaqf qilgan. Bu Madrasa keyinchalik haroba holiga kelib qolgan. Bunga sabab ushbu Madrasa binosining 1901 yilda O'lka maorif boshqarmasi tomonidan faoliyat olib borishga yaroqsiz hamda talabalar va aholi uchun xavfli deb topilganidir. Keltirilgan dalillarga ko'ra, madrasaning vakf mulkidan tushgan 1900 yilgi bir yillik daromadi 350 so'mni tashkil etgan va bu mablag' Madrasa faoliyatini ta'minlay olmasligi inobatga olinib, u yopilgan. Madrasaning Shayxontaxur dahasida vaqf mulki -Ahmad qo'shbegi tomonidan bunyod etilgan karvonsaroy Mo'yi Muborak madrasasi vaqf xo'jaligiga o'tkazilgan, Mavjud hujjatlardagi ma'lumotlarga qaraganda, 1884 yilda tilga oliingan karvonsaroyning o'zidan madrasaga yiliga 600 so'm, 7 do'kondan 12 so'm pul tushib to'rgan. Lekin XX asr boshiga kelib, madrasaning vaqf mulklaridan keladigan daromadi kamayyab. iqtisodiy jihatdan qiynalib qolgan.

ISOXO'JA QOZI MADRASASI

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, bu madrasa asli sebzorlik Qo'qon xoni Muhammad Alixon davrida qozikalon etib tayinlangan Isoxo'ja qozikalon Yunusxon eshon o'g'li tomonidan pishiq g'ishtdan va yog'ochdan qurilgan bo'lib, uning tarkibiga bir necha xujra, ikkita darsxona, xonaqoh masjid va hovo'z kirgan¹. 1868 yilda Madrasa 14 ta xujra, bir masjid, bir darsxona, bir taxorat xonadan iborat bo'lib, uning kunchiqar tarafida kattagina mozor joylashgan edi. Madrasada Toshkentning

¹ Sultanov O'. XIX asr Toshkent madrasalari hujjati // - Toshkent, 2007. - № 3. B. 64-72.

ko'zga ko'ringan shaxslari Hakimxo'ja qozikalon mudarris va imom, uning akasi Oyxo'ja shayx ul-islom esa mo'tavalli sifatida faoliyat olib borgan. Tilga olingan davrda madrasaning har bir hujrasida 4 talaba, ya'ni 56 talaba istiqomat qilgan. Vaqf qilingan o'n besh do'kondan 42 tilla olinib, Madrasa harajatlariga sarflangan. Shuningdek yana madrasa yaqinida bir hovli va maydon, Changalzor mavzeid ataxminan 3botmon bog', bedazor vaochiq yer, Okdurrion va Qoramurt mavzellarida kata bo'lmagan yer vaqfi bo'lgan. 1884 yilda Madrasa vaqflari yanada ortgan va Halimxo'ja qozikalon vafotidan so'ng (1875 i.) madrasada uning o'g'li Muhiddinxo'ja va Ahmadxo'ja eshon mudarrislik qilgan.

HOFIZ KO'HAKIYDAGI MADRASASI

Muhammad Solihxo'ja Hofiz Ko'hakiy mahallasi XIX asrning 80-yillarida Qo'shtut nomi bilan mashxo'g'ligini yozib, Madrasa hujralari va xonaqohi asosan yog'ochdan qurilgani uchun «Madrasai chubin» deb atalganini qayd etadi. Madrasa Toshkent shahrining shu qismida yashab o'tgan (mahalla keyinchalik Hofiz Ko'hakiy nomini olgan) alloma Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy (vaf. 1584) tomonidan kurdirilgan va uning o'zi mudarrislik qilgan. Tadqiqotlar ham, Madrasa binosining tashqi ko'rinishi va qurilish uslubiga ko'ra XVI asrga mansubligini tasdiqlaydi. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Madrasa Normuhammad qushbegi davrida Buxoroda o'qib kelgan Mulla Nor oxund sa'y harakatlari bilan obod bo'lgan. Mulla Nor oxund Mallaxon zamonida vafot etgach, talabalar orasida bo'linish yuz berib, Madrasa faoliyati yana vaqtincha to'xtab qolgan.

SHARAFIBIY MADRASASI

Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Sharafibiy madrasasi ko'kcha dahasi Pichokchilik mahallasida joylashgan bo'lib, taxminan 1285/1868 -69 yilda pishgan g'ishtdan qurilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» va boshqa manbalarda «Sharofibiy», «Sharafiboy», «Sharofiddinboy Zaynobiddinboy o'g'li» nomlari bilan tilga olingan mazkur shaxs asli kelib chiqdshi tatar bo'lib, Toshkent istilosidan keyingi 60 —70-yillarda eski shahar mahalliy boshqaruv tizimida ishlagan. Faoliyati yillarida Madrasa, bir necha masjidlar qurib, vaqflar ajratgan. Madrasa tarkibida hujralar va jum'a namozi o'qiladigan masjid bo'lgan. Sharafiboyning mazkur Pichokchilik mahallasidagi masjidining bir necha do'kon va yerlardan iborat vaqfi bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Madrasa masjidi ana shu vaqflardan keladigan daromad hisobiga faoliyat yuritgan. Hozirda Sharafiboyning Pichokchilik mahallasidagi masjidi saklanib qolgan.

ABULQOSIMXON MADRASASI

Mazkur Madrasa Abulqosimxon eshon Xonto'raxon eshon o'g'li tomonidan qurdirilgan bo'lib, Muhammad Solihxo'ja bu Madrasa to'g'risida keng to'xtalmagan. Abo'lkrsimxon hayotligi davrida madrasada undan tashqari yana Mulla Muhammad Olim oxund Mulla Bobojon oxund o'g'li va Mir Badi'

maxdum ham talabalarga saboqbergan. Madrasaga 1280 yil shavvol oyi (1864 yil mart-aprel) Qo'qon xoni Sulton Sa'idxon tarafidan ko'plab mulklar — Mahkama mavzeida 1 saroy, eski Namozgoxda 14 ta do'kon, Poyakilikda 3 ta, Arpapoya mahallasida 2 ta tegirmon, saroy, shuningdek boshqa mahallalarda ham ellikdan ortiq do'konlar, bir necha saroy va tegirmonlar vaqf qilinib, Abulqosimxon eshon mutavalli etib tayinlangan. Abulqosimxon eshon 1892 yilda Toshkentda tarqalgan vabodan vafot etgach, madrasada uning o'g'li Hoshimxon eshon bosh mudarris va mutavallilik qilgan. XX asrning 20-yillarida mutavallilik Abulqosimxon eshonning ukasi Saidqosimxon farzandlari qo'lida bo'lgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlar Toshkent madrasalari to'g'risidagi ma'lumotlarini to'ldiradi va birmuncha aniqlik kiritadi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asari ma'lumotlariga ko'ra Abulqosimxon Beshyog'ochiy XIX asr o'rtalaridan boshlab Toshkentdagi ko'zga ko'ringan ulamolardan biri bo'lgan. Shu sababli ko'rsatilgan ikkinchi sana mazkur Madrasa qurilgan sanaga yaqin. «Tarixi jadidayi Toshkand»da yozilganidek XIX asr 2-choragida, Lashkar beglarbegi hokimligi davrida pishiq g'ishtdan qurilgan. Isoxo'janing o'zi esa, Muhammad Alixon davrida qozikalon mansa-biga tayinlangan. Shuningdek Beglarbegi madrasasi ham 1816 yilda emas, Muhammad Solihxo'ja qayd qilganidek 1838—1840 yillarda qurilgan. Toshkent hokimi — Lashkar qo'shbegiga «beglarbegi» unvonining berilishi ham 1835 yilga to'g'ri keladi¹. Sharafibiy madrasasi esa 1820 yilda emas, balki Rossiya istilosidan keyingi davrda, 1868 — 1869 yillarda pishiq g'ishtdan qurilgan. Albatta, Toshkentda ham XVI —XVII asrlarda Xoja Ahror, Ko'kaldosh, Baroqxon kabi katta-kichik madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Lekin aksariyati davrlar o'tishi bilan ta'mirga muhtoj bo'lib qolgan. Shu sababli ularning o'rnida XIX asrga kelib yangilari bunyod etilgan. Jumladan, Muiy MuboraqJumanbiy Bo'rixo'ja Sanchiqmoniy madrasalari ancha oldin mavjud bo'lgan, aniqrog'i yaroqsiz bo'lib qolgan masjid-madrasalar o'rnida bunyod etilga-nini ko'rish mumkin.

TOSHKENT MASJIDLARI

Toshkent masjidlari soni to'g'risida manbalarda turlicha ma'lumotlar berilgan. Xususan, Bashog'och dahasida 54 ta, Shayxontaxur dahasida 105 ta, ko'kcha dahasida 60 ta, Sebzor dahasida 78 ta masjid borligi qayd etilgan bo'lsa, N. Maev Beshyog'ochda 68 ta, Shayxontaho'rda 60 ta, ko'kchada 51 ta, Sebzorda 10 ta katta masjidni tilga olgan. Ayrim mualliflar, shaharda 280 — 310 ta atrofida masjid borligini yozgan bo'lsa, A.I. Dobrosmislov Toshkentdagi masjidlar sonini 400 ga yaqin deb qayd etgan edi. A.P. Xoroshxin esa toshkentlik suhbatdoshidan olgan ma'lumotlariga aniqlik kiritib, masjidlarning 260 tasi shahar ichida, 40 tasi tashqarisida deb ko'rsatadi.

Mavjud ma'lumotlar asosida shahardagi masjidlarni qurilish sabablariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- jome masjidlar;
- mahalla-guzar masjidlari;
- madrasalar tarkibidagi masjidlar;
- ziyoratgoh mozorlar tarkibidagi masjidlar;

¹ Sultanov O'. XIX asr Toshkent madrasalari hujjati // - Toshkent, 2007. - № 3. B. 64-72.

- bozorlardagi masjidlar;
- nomozgoh-iydgohlar.

Aksariyat masjidlar asosan usti gumbaz bilan yopilgan xonaqoh, ayvon, darvozaxona, minora (mezana)dan iborat bo'lgan.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida tilga olingan Toshkent masjidlari haqida so'z ketganda, shahardagi Xoja Ahror (1404—1490) nomi bilan bog'liq masjidlarga to'xtalmaslikning iloji yuq. Xoja Ahror nasabi ona tomondan Shayx Xovand Taxurga borib ulanadi. U o'z faoliyatini Toshkent shahrida boshlagan. Vir katog' yozma manbalarda Xoja Ahrorning Madrasa tahsilidan so'ng Samarqanddan Toshkentga qaytib, ziroatchilik va savdo bilan shug'ullanganligi ta'kidlanadi. Garchi Xoja Ahror o'z hayotining ko'p qismini Samarqandda o'tkazgan bo'lsada, Toshkentdagi madaniy-ma'naviy hayotda ham faol ishtirok etgan. Shu sababli Xoja Ahror shaxsi nafaqat XV asrda, balki keying asrlarda ham Toshkent ma'naviy muhitida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Ko'kaldosh madrasasining sharqi va Katta ko'cha oralig'idagi yerlar aholi orasida Xoja Ahror tug'ilgan joy deb tushunilgan va bu yer Xoja Ahror maydoni deb atalgan. 1274/1857 yilda Toshkent hokimi Mirzo Ahmad qo'shbegi Mo'yi Muborak madrasasini hamda bir gumbazni ana tu maydonda qurdirgan edi.

Bundan tashqari, Toshkentdagi Xoja Ahror nomi bilan bog'liq masjidlar ham buning dalilidir. Bu borada «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida kengroq ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular bizga ushbu masjidlarning XIX asrdagi qiyofasini tasvirlab beradi. Shuningdek asarda Xoja Ahror faoliyatiga doir ayrim ma'lumotlarni uchratamiz. Jumladan, Xoja Ahror shaharda Madrasa va masjidlardan tashqari Shayx Xovand Taxur maqbarasidagi chillaxonada bir gumbaz qurdirib, uning o'rtasida tosh lavh o'rnatgan, Shayx Xovand Taxur mozori obodonchiligiga ham alohida e'tibor qaratgan. «Tarixi jadidayi Toshkand»da batafsil tavsifi keltirilgan masjid -asardagi shahristonida joylashgan bo'lib, Xoja Ahror madrasasi bilan birga shahar Registonining asosiy binolarini tashkil etgan. Muhammad Solihxo'ja ma'lumotlariga qaraganda, mazkur masjid Boboi Obrez degan joyning g'arbida, Chorsu bozori boshida joylashgan bo'lib, ko'kaldosh va Xoja Ahror madrasalari, bozor do'konlari va Katta ko'cha bilan to'tash bo'lgan. Uning yonidan Shayxontahur (boshqa bir nomi Kaykobus) arig'i o'tgan¹. Masjid binosining shimoliy va janubii tarafida 22 ravoq va 22 gumbaz, janubi sharqda esa 14 ravoq va 14 gumbaz hamda g'arb tomon o'rtasida bir peshtoq, katta gumbaz va g'ishtli, burji naqshlangan me'morii mexrob, janubi va janubi sharqiy tomonida esa darvozalari bo'lgan. Masjidida juma va hayit namozlari o'qilgan. Xoja Ahrorning Toshkentdagi jome masjidi O'zbekiston hududidagi eng katta jome masjidlarning uchinchisidir. Birinchisi - Samarqanddagi Bibi Xonim masjidi (tarhi 167x109 m), ikkinchisi — Buxorodagi Kalon masjidi (tarixd 126,5x81,4 m), uchinchisi ushbu Xoja Ahror masjidi (tarhi 91x35,6 m). Turli davrlardagi tabiiy ofatlar, ayniqsa, zilzilalardan zarar ko'rgan mazkur Jome masjid ta'mirlanib turilgan. Xususan, Sheralixon (1842 — 1845) davrida Solihbek dodxo'ning shaxsiy mablari va Xoja Ahrorning vaqf yerlaridan tushgan mablar hisobiga ta'mirlangan. Masjidning gumbazi 1866 yilda Toshkentda yo'z bergan zilzila chogida ham qo'lab tushgan. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga

¹ Jalilov O. Madrasalar ta'rifida // Fan va turmush. Toshkent, 1983. -B.12-13.

qaraganda, Shayxontaxur ko'chasidan o'tuvchi Katta ko'chadagi imoratlar va bozordagi unga yaqin ko'chalar hamda shayx Shibli arig'idan sharqda joylashgan yerlar Xoja Ahror masjidi va madrasasining vaqfi bo'lgan. Asarda Oqqo'rg'on mavzei deb atalgan yerlar 1840 yil voqealarida ham Xoja Ahrorning vaqfi sifatida tilga olinadi. Bundan tashqari, masjid yon atrofi va bozor ichidagi 102 ta do'kondan yiliga 120 so'm, masjid yaqinidagi Solihbek. dodxoh avlodlariga qarashli bir saroydan yiliga 120 so'm fonda olgan. Mazkur vaqflar mo'tavallisi esa, yuqorida nomi tilga olingan Xoja Ahror avlodi Musaxonto'ra Saidxonto'ra o'g'lining farzandi Muminxonto'ra Saidxonto'ra o'g'li bo'lgan. Toshkentdagi Xoja Ahror nomi bilan bog'liq masjidlar haqida to'xtalsak ularning hammasi ham Xoja Ahror tomonidan qurdirilgan emas. Ayrim masjidlarning bunyod bo'lishi Xoja Ahror shaxsi bilan bog'liq yoki aholi tomonidan shunday tushunilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida unga yaqin masjid Xoja Adrorga nisbat beriladi. Ularning o'rniga ko'ra beshtasi Shayxontaxur, to'rttasi Bashog'och va uchtasi ko'kcha dahasida bo'lgan deb aytilish mumkin. Shayxontaxur dahasidagi masjidlar Havzbor mahallasida (2 ta), Sho'rtepa guzarida, Barqi sarimast valiy mozori yaqinida (Xushtmasjid masjidi) bo'lgan. Yana bir masjid esa, dastlab Shayx Xovand Taxur tomonidan bino qilingan bo'lib, keyinchalik Xoja Ahror tomonidan ta'mirlangan. Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Shayx Xovand Tahur mozori yaqinida, Yunusxon mozori g'arbida, ostiga Nurota tog'idan keltirilgan marmar tagkur-silar o'rnatilgan, shamshod va sarv daraxtidan ishlangan hashamatli ustunlar quyilgan, uch tomoni ayvonli Jome masjid va iydgoh bino qilingan. Muhammad Solihxo'ja yashagan davrda bu masjid aholi orasida «Oltinlik masjid» nomi bilan atalgan va XIX asrning 80-yillariga mansub arxiv hujjatlarida ham shu nom bilan tilga olinadi. Yunusxon maqbarasi gumbazi zilziladan qulab tushgan yili ushbu masjid ham qattiq shikastlangan. Bu voqeadan so'ng ikki yil ichida Xo'ja Kalon Toshkandiy Shayxontaxuriy uni o'zining dehqonchilikdan kelgan mablari va Shayx Xovand Taxur mozoriga tushgan nazr-niyoz hisobiga qayta ta'mirlangan. Lekin masjidning asosiy qismi va darsxonasi bitib, uning shimol tarafi, ya'ni darvozaxona va peshtoq qismidagi ta'mirlash ishlari oxiriga yetmay qolgan. Ta'mirlash ishlari Mallaxon davrida eshon Sharifxo'ja rais qozi tomonidan Mallaxonning buyro'g'i va moldiy ko'magi bilan nihoyasiga yetkazilgan¹. Bu paytga kelib masjid xona-krh uch xujradan iborat bo'lib, darvozaxonasi Katta ko'cha tarafda bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing ta'kidlashicha, katta darvozadan tashqari ko'cha tomonda yana bir necha darichalari bo'lgan, masjidda ko'plab kitoblar bo'lgan ekan. Ko'kcha dahasida esa Langar, Charmgaron va Mahkama masjidlari Xoja Ahror masjidi sifatida tilga olinadi. Jumladan, Xoja Ahror Langar masjidiga o'z xalifalaridan birini tayin qilganligi aytiladi. Maxkama masjidi esa, daha bozori yaqinida pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, Xoja Ahror zamonidan to Qo'qon xoni Olimxon davrigacha shahar qozilari ushbu masjidda hukm chiqarganlar². Shu sababli masjid Maxkama masjidi deb atalgan, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, masjidda har dushanba ko'p Xoja Ahmad Yassaviy tariqati bo'yicha zikri jaxr bilan mashg'ul bo'lingan.

¹ Muhammadjonov A. Qadimiy Toshkent. - T.: Sharq, 2002. - 78 b.

² Ozadaev F. Toshkent tarixidan ocherklar (XIX asrning ikkinchi yarmida shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi). - T.: Fan, 1960. - 268 b.

Charmgaron masjidi pishiq g'ishtdan tiklangan darvozaxonali bo'lib, minorasi toshdan qurilgan. Uning xujralarida talabalar istiqomat qilgan.

Bashog'och dahasidagi Xoja Ahror masjidlaridan ikkitasi Samarkand darvoza ko'chasida, bir-biriga yaqin masofada joylashgan¹. Yana bir masjid esa, ko'kmasjid deb atalgan va ustunlarining tagkursisi marmar toshlardan qilingan. Xoja Ahror nomi bilan bog'liq masjidlar yana Xushtmasjid gazarida, Burqi Sarimast mozori yaqinida hamda Gulzorda bo'lgan. Muhammad Solihxo'ja boshqa jome masjidlardan Eski Juvada joylashgan Fulodboy Tinchbofiy jome masjidi, O'razaliboy jome masjidi, Qanoat otaliq qurdirgan jome masjid (keyinchalik Baland masjid deb atalgan) hamda O'rda jome masjidini ham qayd etgan. O'rdadagi jome masjid kim tomonidan bino qilingani to'g'risida asarda ma'lumot keltirilmagan. Agar Abu Ubaydulloh so'zlariga tayanib aytadigan bo'lsak mazkur masjidni Lashkar beglarbegining zakotchisi Hakim devonbegi qurdirgan deyish mumkin.

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Jo'bo mavzeida, Beglarbegi madrasasi sharqida joylashgan Fulodboy Tinchbofiy jome masjidi pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uch tomoni ayvon, minora, bir necha gumbaz va naqshkor ustunlar bilan bezatilgan. Muallifning yozishicha, Registondagi bozor axli va do'kondorlar besh vaqt namozini, juma va iyd namozlarini shu masjidda o'qiganlar. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida 1847 yili Toshkentda Aziz parvonachi hukumatiga qarshi yuz bergan g'alayon yetakchilari va hokim odamlari sulh to'zgandan so'ng juma namozini Xoja Ahror va Fulodboy jome masjidlarida birgalikda o'qiganliklariga qaraganda Fulodboy masjidining qurilishi XIX asrning 1-yarmiga to'g'ri keladi. Qolavyersa, Fulodboyning o'g'li, taniqdi boylardan bo'lgan Qosimboy 40 -90 yillarda yashagan. Balandmasjid deb nomlangan Qanoat otalik jome masjidi balandlikda hashamatli qurilgani uchun shunday deb atalgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, masjidning gumbazi 8 burjli bo'lib, ayvonlari naqshinkor ustunlar bilan bezatilgan.«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi bu kabi masjidlar to'g'risidagi ma'lumotlar XIX asrning 60 -80yillariga mansub bo'lib, ular bir-birini to'ldirishi bilan muhim ahamiyatga molikdir.Muhammad Solihxo'ja qalamga olgan qadimiy Namozgoh «Kuhna Namozgoh», «Baroqxon iydgohi» va «Darvishxoi iydgohi» nomlari bilan ham atalgan. IX asrdan musulmon mamlakatlarida masjidlar vazifalariga ko'ra bir necha turlarga ajralgan bo'lib, ular orasida namozgoh, iydgoh va musallo shahar aholisining namozni ommaviy ado qilishlariga muljallangan. Namozgohlar o'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lib, XIV —XVII asrlarda Xuroson va Movarounnahrda «namozgoh», «musallo» nomlari bilan yuritilgan². Muhammad Solihxo'janing xalq orasida yo'rgan rivoyatlar asosida yozishicha, xalifa Umar buyrug'i bilan bu yerlarga kelgan Hazrati Ukkosha shu joyda kofirlar bilan jang qilgan ekan. aholi tomonidan muqaddas sanalgan bu joyga keyinchalik Baroqxon namozgoh qurdirgan. Muallifning yozishicha, namozgoh to'rt tomoni devor bilan o'ralib, qiblasi pishiq g'ishtdan ko'tarilgan, tomi esa yog'ochdan ishlangan. Namozgohning 170 ta ustuni naqshlangan chinor daraxtidan bo'lgan. Atrofida shamshod va boshqa mevali daraxtlardan bog' barpo qilinib, o'rtada bir tanoblik hovo'z qazilgan. Baroqxonning o'g'li Darvishxon davrida esa Namozgoxda pishiq

¹ Sultanov O'. Xoja Ahrorning Toshkentdagi Madrasa va masjidlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2004. - № 3. - B. 185-186.

² Vohidov Sh. XIX asr Toshkent tarixchilari. - T., 1996. - 34 b

g'ishtdan, peshtoqlari va ravoqlari baland bir masjid qurilgan. Bu paytda masjidning ustunlari 1400 taga etgan. Qalmoqlar hujumi davrigacha (XVIII asrning 20-yillari) mavjud bo'lgan Namozgoh keyinchalik qarovsiz qolib, vayronaga aylangan va bir necha yillardan so'ng qisman tiklangan. XIX asrga kelib «Ko'hna namozgoh» yoki «Namozgoh» degan nom ko'cha nomiga aylangan.«Tarixi jadidayi Toshkand» asarida esa mahallalardagi katta-kichik masjidlar ularni qurdirgan shaxs yoki mahalla yoxud imomlari nomi bilan tilga olingan. ShuningdekXoja Ahror Mahmud dasturxonchi, Qosimboy Qorato'tiy, Eshon Bo'rixo'ja Sanchiqmoniy, Sharafibiy, Shukurxon kabi madrasalar binosida hamda mahallalar hududlarida joylashgan Shayx Xovand Taxur, Qaffol Shoshiy, Zayniddin Ko'hi Orifon, Xoja Rushnoyi, Xoja Yakka, Hazrat Ukkosha, Zangi ota, YIRLOQota kabi mozorlar masjidlarining ayrimlari jome, ayrimlari esa maxalla masjidi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ta'kidlash joizki, ayrim masjidlar o'ziga xos me'moriy uslublarda qurilgan bo'lib, buni Xayrobod eshon masjidi misolida ham ko'rish mumkin.

3.2. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asarida Toshkent shahridagi madaniy–ma'naviy hayoti, ziyoratgoh va mozorlar tasnifi.

Qadimdan bir qator musulmon shaharlari singari O'rta Osiyo shaharlari dovrug'i ham uning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan birga, u yerda mashhur allomalar, fiqixlar va mo'tasavviflarning yashab o'tganligi va gavjum qadamjolarining mavjudligi bilan ham belgilangan. Afsuski, bunday qadamjolarining aksariyati tarixning turli davrlaridagi o'zgarishlar sababli vayronaga aylangan yoki umuman yuq bo'lib ketgan. Bugungi kunda bunday maskanlarni ta'mirlash va obodonlashtirish borasida samarali ishlar olib borilayotgani quvonarli holdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'tmishda yaratilgan bir qatog' asarlar hamda arxeologik topilmalar respublikamiz hududida mavjud bo'lgan islom olamida mashhur shaxslarning mozorlari va ziyoratgohlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Jumladan, Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» (IX asr), Abu Hafis Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamo-i as-Samarkand» (XI asr), Ahmad ibn Mahmudning «Tarixi Mullazoda» (XVI asr), Abu Tohirxojaning «Samariya» (XIX asr), Nosiriddin to'raning «Tuhfat o'z-zoirin» (XIX asr) asarlari Buxoro, Samarkand shaharlari va ularning atrofidagi mozorlar to'g'risida ma'lumot beruvchi asosiy yozma manbalardir. Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari shunday asarlardan biri bo'lib, u va viloyatida mavjud bo'lgan ko'plab mozorlar, qadamjolar va ularning XIX asrdagi ahvoli to'g'risida ma'lumot beradi.

Toshkentdagi ayrim mozorlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsada, ularda, asosan, mozorlarning me'moriy jihatlarigagina e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, Shayx Xovand Tahir, Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota maqbaralari atrofida shakllangan mozorlar o'rganilgan. Toshkent shahri va uning atrofidagi mozorlar to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar Mavlono Muhammad qozining «Silsilat ul-orifiyn», Faxriddin Ali as-Safiyning «Rashahot-u aynul hayot» (1503), Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma (XVI asrning 80-yillari)», Muhammad Olim Siddiqiyning «Lamaxat min nafaxt ulquds» (1624), Toxir Eshonning «Tazkirai Tohir eshon» (XVIII asrning 30-yillari), Xoja Abduraxim Hisoriyning «Tuhfat ul-ansob Alaviya» (1737), Muhammad Sharif ibn Muhammad Husayn Buxoriyning «Xujjat ul-zokirin» (1697), Abu Ubaydulloh Toshkandiyning «Xulosat ul-axvol» (1865), Avaz Muhammad Attor Xukandiyning «Tarixi jahon-namoyi» (1874), Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin» (1884) asarlarida ham uchraydi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlar esa birmuncha tularoqhamda bir tartibda bo'lib, ular, asosan, asarning Toshkent shahrining to'rt dahasiga bagishlangan qismida keltirilgan. Shunisi dikdatga sazovorki, asarda keltirilgan Qaffol Shoshiy, Shayx Muhammad paranda, Shayx Xovand Taxur, Xoja Dovud, Boboi Obrez, Xdzrat Ukkosha, Xoja Alambardor, Xoja Yakka, Zangi ota, Shayx Zayniddin, Ko'hi Orifon, Xoja Chirorbardor, Sayid Rabotakxo'ja kabi bir qatog' shaxslar mo-zorlarining shaharda joylashgan o'rni, ularga to'tash binolar va O'rtasidagi masofalar hamda muallif zamonidagi holati to'g'risida aniqroq ma'lumotlar olish mumkin¹.

Ma'lumki, Toshkent vohasi Yassaviya tariqati keng tarqalgan hududlardan biri bo'lgan, Bu hududdagi qadamjo va mozorlarning ayrimlari Xoja Ahmad

¹Sultanov O'. Toshkent qadamjoylari va mozorlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2007. - № 2. - B. 101-105.

Yassaviyning xalfalari, izdoshlari va avlodlariga mansub. Yuqorida tilga olingan manbalarda ham bunday mozorlar to'g'risida qisqa ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Ali as-Safiy Ismoil ota qabrini Toshkent va Sayram oralig'idagi Xo'ziyon qaryasida, ularning o'g'illari Ishoqxoja qabri esa Toshkent va Sayram oraliridagi Ispijob qaryasida deb ma'lumot beradi. Yassaviya tarikati shayxlari xayotini yorituvchi Mudammad Olim Siddiqiyning «Lamaxat» asarida Ismoil ota qabri Xo'ziyonda, Sadr ota qabri Toshkentdan 2 farsang bo'lgan O'rta Saroy qaryasida, Badr ota qabri esa Toshkentdan 4 farsang bo'lgan Ko'hak qaryasida ekanligi tilga olinadi. «Tuhfat ul-ansob Alaviya» asari muallifi Xoja Abdurahim Hisoriy Sadr ota qabrini ham Ko'hak qaryasida joylashgan deb yozadi. «Hujjat ul-zokirin» asari muallifi Muhammad Sharif ibn Muhammad Xusayn Buxoriy esa, Sadr ota qabrini Toshkentdan 2 farsang bo'lgan Avsar(?) qaryasida deb ko'rsatadi. Albatta, bu kabi asarlarda Yassaviya tariqati shayxlarining hayot yo'llari, avlodlari va muridlari to'g'risida birmuncha to'liq yoritilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asari esa ushbu tariqatning ayrim namoyandalarining Toshkent va uning atrofida joylashgan mozorlari va qadamjolari to'g'risida ma'lumot beradi¹.

«Tarixi jadidayi Toshkaid» asari keng shahardagi boshqa mozorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boshqa manbalardan ajralib to'radi va ular quyidagi tartibda joylashgan.

Shayxontaxur dahasida: Shayx Xovand Taxur, Qaldirrochbiy, Tunqatog' ota, Tongotar avliyo, Yunusxon, ko'ktunlik ota, Xoja Dovud, Xoja Rushnoyi (Xoja Chirorbardor), Boboi Obrez, Xdzrat Ukkosha, Xoja Iso, Muminshayh Burqi Sarimast valiy; Sebzor dahasida: Qaffol Shoshiy, Nizomuddin Xomush, Kox. ota, Ibrohim ota, Ko'hak ota, Turkchi [ota, Sayid Rabotakxo'ja, Xoja Tarozishikan; Ko'kcha dahasida: Zayniddin Ko'hi orifon, YIG'LOQ OTA, Xoja Bekxo'ja; Bashog'och dahasida: Zangiota, Abdujalil bob, So'zukota, Xoja Nuriddin, Xoja Alambardor. Bundan tashqari, shahar ichida etti birodar (xdfttanlar) qabri bo'lib, muallifning yozishicha, ular shaharning etti joyiga dafn etilgan. Ular dan biri O'razaliboy jome masjidi g'arbida, shuningdek Havz borda, Charmgaron masjidi orqasida, yana biri Xoja Ahror jome masjidi mexrobi ortida ekanligi aytilgan². Etti birodar qabri haqidagi ma'lumotlar eski shaharning hozirgi aholisi orasida ham saqlangan. Rabot mahallasidagi keksalarning aytishicha, Saxb ota (Sohib ota), Garv ota, Sultonxri ota (Sultonshayx azizlar) qabrlari ham ana shu etti birodarlar qabrlariga tegishli ekan. Umuman olganda, shaharda egasi noma'lum qabrlar deyarli har bir dahada bo'lgan. Aholi bu qabrlar to'g'risida hech narsa bilmagan. Muhammad Solihxo'ja esa yoshi katta kishilardan so'rab surishtirib, ayrimlarini aniqdashga erishgan. Shuningdek Toshkent va uning atrofida turli adabiyotlarda va aholi orasida Qoraxo'ja ota (XI asr), Chupon ota (XV asr), Oqil ota (XVII asr ikkinchi yarmi), Xoja Baxriddin Dono (XIX asr boshi) Oqota, Quyliqota, Ilonli ota, Qabz ota, Sahb ota va boshqa ko'plab mozorlar tilga olinadi. Shuningdek shaharda Xoja Muhammad Nomiy, Xoja Shihobiddin, Sufishayx azizlar, Tularshayx azizlar, imom Qosim hazrat, Xoja Masto'ra, Xoja

¹ O'rinboev A., Buriev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida. - T.: Fan, 1983.-56 b.

² Bo'rieva H. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari):-T., 2007. - 154 b

Makki (Mahsido'zlikda), Qilichlik ota (Juyda), Xoja Mir Ya'qub (Xo'jako'chada), ZarradoqOta (Murod mahallasida) Xoja Parvoz ota (Qo'shmozorda), Murodbaxsh (Xishtko'prikda), Tursun shayx azizlar, Olim shayx va Xolim shayx (Kallaxonada) Xoja Abdullo Shomiy (Katta Taxtapulda), Himmatlik azizlar (Qozikalonda), Avaz shayx azizlar, shahar devori tashkd-risida Tursun ota, Hazrat Xoja Baxdul, Quychi-mozor ota, Kuyuqxo'ja ota kabi mozorlar qayd etilgan. Tadqiqotchi X. Burieva esa Toshkent shahri mozorlarini dahalar va joylashgan mahallasi bo'yicha keltirilgan arxiv xujjatlariga asoslanib, bu kabi ayrim qabrlar joylashgan shahardagi 84 ta mozorni qayd etib o'tgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida yoki arxiv ma'lumotlarida tilga olingan mozorlar tarixiy va afsonaviy shaxslarning ziyoratgoh qabrlari bo'lib, ular turlidavrlarga mansub. Ayrim mozorlar afsonaviy yoki ramziy qabrlar o'rnida yo'za-ga kelgan va bu shaxslarning boshqa joylarda hamqabrlari borligi qayd etilgan. Xususan, sahobalardan bo'lgan Ukkosha nomi bilan bog'liq qabr Balx shahrida ham bo'lib, shahar darvozalarining biri uning nomi bilan yuritilgan. Aslida Hazrat Ukkosha (Abu Muhsin ibn Muhsin al-Asadiy) xalifa Abu Bakr davrida (632 — 634) soxta payg'ambar Tulayxa ibn Xuvaylidga qarshi jangda o'ldirilgan va, demaqToshkent, Balx shaharlaridagi qabr-lar ramziy hisoblanadi. Yoki Ibroxim Adxdmning (vaf. 161/778 i.) bobosi Darvish AdhamSokdning Balx shahridagi qabri ham Xoja Rushnoyi deb atalgan¹. Qarshi shahrida esa, Xoja Rushnoyi kdb-ristoni va m'asjidi, Kitob shahri kur goni tash-kdrisida Xoja Rushnoyi nomi bilan bog'liqmozor va uning nomida darvoza Tojikiston Respubli-kasida Isfara viloyatining Qil'acha mozor kish-lorida, Falrar viloyati Xushekat kdshlorida hamda Xo'jand shahrining Saribaland mahallasida Xoja Rushnoyi mozori bo'lgan.Toshkent aholisi orasida Bobo Rushnoyi nomi bilan mashhurbo'lgan ziyoratgoh mozor Chirchiqning chap sohilidagi O'ljakent deb atalgan qadimiy shahar xarobasi joylashgan mavzeda ham bo'lgan. Bundan tashqari, manbalarda Boboi Obrez qabri Samarqanddagi Chokardiza qabristonida, Ko'hak ota nomli mozor Samarqandning Shavdor tumanida, Ko'hak daryosi yuqorisida, Xoja Alambardor, So'zuk ota yoki Ko'ktunlik ota nomi bilan ataluvchi Xoja Abdusalom qabri Sayram shahrida, Farg'ona viloyatida ham qayd etilgan.Sulaymon payrambar zamondoshi bo'lgan Osaf Burxiyo nomi bilan bog'liq Burqi Sarimast mozori esa Ko'hna O'rganch va Buxoroda ham uchraydi Shahardagi tarixiy shaxslarning mozorlari orasida Qaffol Shoshiy, Zayniddin Ko'hi Orifon, Zangi ota va Shayx Xovand Taxur mozorlari juda gavjum bo'lgan. Ularning hayoti va faoliyatiga oid biografik agiografik asarlar va xalq orasida turli naqilarning ko'pligi bois oddiy shaharliklardan tortib Markaziy Osiyo hududidan tashqari mamlakatlarda ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Xususan, O'rta asrlarda va keyingi XVIII —XIX asrlarda Qaffol Shoshiy, Zayniddin Ko'hi Orifon, Zangi ota mozorlaridagi ziyorat holatini mintaqaning yirik qadamjolari — Imom Buxoriy, Imom Motirudiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi mashhur shaxslar mozorlari ziyoratiga o'xshatish mumkin edi. Ayrim tarixiy shaxslar mozorlari XVIII —XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, Mo'in xalfa eshon (XVIII asr tasavvuf namoyandasi), Eshon Vali (Eshon Vali Sanchiqmoniy — XIX asr tasavvuf namoyandalaridan), Hodixon azizlar (XIX asr tasavvuf namoyandasi) kabi mozorlar ana shular

¹ Bo'riev O., Sultanov O'. Toshkentning XIX asrdagi ma'naviy-ma'rifiy hayoti tarixidan (Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari asosida) // Toshkent 2007 yilda islom madaniyati poytaxti. Toshkent kolleksiyalarida islom qo'lyozmalari. 2007y

jumlasidandir. Shahardagi shaxsi noma'lum qabrlar barcha mintaqalarda bo'lganidek turli laqablar bilan tilga olingan. Masalan, Xoja Tarozishikan, Turkchi ota, Ko'hak ota, Tunqator ota, Tongotar avliyo, Zarg'aldoqota, YIG'LOQota, Sandiqlik ota, Olmazor ota, Qilichlik ota, Parvoz ota kabi. Bu guruhga mansub ayrim ziyoratgoh mozorlar egalarining ismi sharifi ma'lum bo'lsada, ularning kelib chiqishi va hayot yo'li bilan bog'liq aniq ma'lumotlar yuq hisobi. Ayrim mozor egalarining esa u yoki bu mamlakatdan kelib qolganligi ta'kidlanadi. Masalan, «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida, Abdujalil bob Yamandan, Xorun Rumi Rumdan, Shom ota Shomdan, Xoja Iso mujarrad Bardoddan, Xoja Nuriddin Qoshg'ardan kelganligi ta'kidlanadi. Ta'kidlash joizki, toshkentliklar ma'naviy hayotida shahardagi ziyoratgoh mozorlar muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Islom olamida mashhur sahobalar, tariqatning ko'zga ko'ringan vaqillari, xalq orasida mashhur bo'lgan so'fiylar va ular bilan bog'liq shaxslar qabrlari keyingi davrlarda aholi tomonidan muqaddas deb tushunilib, ularni ziyorat qilish o'z maqsadlariga yetishtirishiga, turli kasalliklardan forig' etishiga yoki, aksincha, ularga hurmatsizlik qilish balo va kasalliklarga yo'liqtirishiga qattiq ishonganlar. Bu xujjat Toshkent aholisi orasida ham keng tarqalgan bo'lib, bu borada asarda ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ayniqsa, shahardagi to'rt ulug' siymo — Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota va Shayx Xovand Taxur mozorlari toshkentliklar va shahar mehmonlarining e'tiborli ziyoratgoxdaridan hisoblanib, ularning avlodlari nazorati ostida bo'lgan. Tilga olingan to'rt qadamjodan tashqari, shahardagi boshqa mozorlardagi chillaxonalar, muqaddas deb tushunilgan buloqlar bo'yi barcha toshkentliklarning gavjum joylari bo'lgan. Ko'plab so'fiylar va talabalar mozorlardagi chillaxonalarda ibodat bilan mashg'ul bo'lsalar, oddiy aholi kundalik turmush tarzida yoki turli maqsadlarda ziyorat qilib turganlar va mozorlarning o'ziga xos fazilatlariga ishonganlar. Shuning uchun ham bunday mozorlar atroflarini obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berilgan. Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovand Taxur, Yunusxon mozorlari yaqinida yirik Madrasa va masjidlar qurilgan. Aksariyat mozorlarga kattagina ekin maydonlari, do'konlar, karvonsaroy va tegirmonlar vaqf qilingan. Ayrim mozorlar esa ko'chalar, hovlilar, madrasa va masjidlar chetlarida ko'rimsizgina bo'lib to'rgan. Vaqtlar o'tishi bilan ziyoratgoh mozorlar joylashgan ayrim mahallalar gavjumlashgan va mahalla ko'chalari kengayib, mozor atrofida kichikroq do'konlar joylashgan guzarlar yo'zaga kelgan. Jumladan, atrofida Eshonquli dodxoh hamda Yunusxon madrasalari va masjidi joylashgan Shayx Xovand Taxur mozori yaqinidagi maydonda har juma namozidan so'ng va hayit kunlarida xalq sayllari bo'lib turgan. Zangi ota mozorida esa har yili qovun pishar maxali shahar aholisi uch kun shu yerni sayr va ziyorat qilgan. Quyida «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida ta'riflangan mozorlar tog'risidagi ma'lumotlarning qisqacha mazmuni keltiriladi.

SHAYXANTAXUR DAHASIDA

ShAYX XOVAND TAXUR

Shayxontaxur dahasidagi eng yirik mozorlardan biri bo'lib, mazkur dahaning O'rtasida joylashgan. Maqbara imorati Normuhammad qo'shbegi hokimligi davrida pishiq g'ishtdan bino qalangan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, bundan oldin maqbaraning devorlari va tomi yog'ochdan bo'lgan. Qabrning

shimol tarafidan suvi juda mazali ariq oqib o'tgan. Uning bo'yidagi bir to'p chinor odamlar dam oladigan joy bo'lib, ayrim bemorlar shu chinor ostiga kelib, niyat qilgan holda ariqdan suv ichganlar. Shayx Xovand Taxur qabri atrofi katta qabriston bo'lib, maqbara gumbazining g'arb tomonida, ya'ni qabristonning O'rtasida bir necha xonalar va ichida gumbazdan iborat pishiq g'ishtdan qurilgan chillaxona bo'lgan. Mazkur gumbazni ona tomondan Shayx Xovand Taxurga avlod hisoblangan Xoja Ahror bino qildirib, uning o'rtasiga bir tosh lavha ham o'rnatgan. O'sha paytlarda Shayx Xovand Taxur maqbarasidan to qabristongacha ikki tomoni sarv daraxtli xiyobon bo'lgan¹. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida mazkur xiyobon Shayx Xovand Taxur, ba'zan Yunusxon maydoni deb tilga olinib, aholi XIX asrda ham iyd namozidan so'ng sayr qiladigan joy bo'lgan. Aholi gavjum bo'ladigan bu yerda savdo do'konlari ham ishlab to'rgan.

QALDIRG'OCHBIY

Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Shayx Xovand Taxur maqbarasining shimol tarafida chodirga o'xshash baland gumbaz ichida Dashti Qipchoq shahzodalaridan birining qabri bo'lgan. Asardagi ma'lumotlarga qaraganda, ushbu shahzoda shayx Umar BORISTONIYNING muridlaridan bo'lib, ulardan qabr joylashgan yerda keyinchalik o'zi dafn qilinishi uchun bir parcha yer so'rab olgan, Shahzoda juda taqvodor bo'lib, o'z umrini mozor joylashgan yerda toatibodat bilan o'tkazgan va shayx Umar BOBISTONIY farzandlaridan birining bu yerga kelishi va bu joylar obod bo'lishiga sabab bo'lishini bashorat qilgan. Shahzoda o'zi yashagan imoratning tomiga uya solgan qaldirg'ochlarga mexr bilan qaragani uchun ham turkiy tilli aholi og'zida Qaldirgochbiy nomini olgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, obida XIV asrlarda qurilganligi taxmin qilinadi. Qaldirg'ochbiy mozoriga qozoqlarning Katta jo'z oqsoqoli To'labiy Alibek o'g'li(1663—1756) dafn qilingan degan taxminlar ham mavjud.

YUNUSXON

Asarda yozilishicha, Alachaxon (Sulton Ahmadxon) Shayx Xovand Taxur maqbarasining garb tomonida, taxminan 6 tanob yer olib, otasi qabri ustiga maqbara bunyod qildirgan. Maqbara 8 burjli tosh gumbaz va pishiqrishtdan, to'rt tomoniga solingan hujralardan iborat bo'lgan. Maqbara yaqinida tilovat qiluvchilar uchun bir gumbaz ichiga ikki xujra hamqurilgan. Maqbaraga Alachaxon tomoni-dan Salor arig'i sharqidagi Pul emas degan joydan taxminan 100 man yer vaqf qilingan bo'lib, Muxdm-mad Solihxo'ja davrida ham maqbara vaqfnomasi mavjud bo'lgan. Yunusxon maqbarasi gumbazi Toshkentda yuz bergan zilziladan qulab tushgan. Shundan so'ng Qo'qon xoni Mallaxon

¹ O'rinboev A. Toshkent solnomasi // Guliston. - Toshkent, 1982. - № 3. - B. 26.

buyrug'i va moddiy ko'magi bilan 1275 (1858) yilda eshon Sharifxo'ja rais qozi ul-qo'zzot tomonidan ta'mirlangan. Aholi orasida Yunusxon mozoriga odobsizlik bilan kirgan kishi oxiri og'ir va bedavo dardga chalinadi degan tushuncha bo'lgan. Yunusxon Chigatoyxon avlodiga mansub bo'lib, 1462-1487 yillarda Mo'g'ulistonda xonlik qilgan. Uning nabirasi bo'lgan Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarida yozilishicha, temuriy Shoxrux Mirzo davrida Yunusxon 13 yoshidan Yazdda mashxur muarrix olim Sharafiddin Ali Yazdiy qo'lida tarbiyalangan. Fors, Ozarbayjon, Qazvin va Sherozda ko'plab shayxlar va olimlar suhbatida bo'lgan. Keyinroq o'z saroyida ham bo'sh vaqtlarini Qur'oni karimni ixlos bilan o'qish va ko'chirish hamda boshqa san'at turlari bilan shug'ullanib o'tkazgan. Yunusxon taqvodorligi bilan Xoja Ahromi ham hayratga solgan va uning musulmon hukmdorlariga Mo'g'ulistondagi islomga kirgan mo'g'ullarni bundan buyon qul qilib sotmaslik va sotib olmaslik to'g'risida nomalar yuborishiga sababchi bo'lgan. Yunusxon Xoja Ahror bilan 1482 yilda Marg'ilon va 1485 yilda Toshkentda ikki bor uchrashgan. Xoja Ahrorga hurmati yuzasidan Yunusxonni Xoja Ahrorning bobosi Shayx Xovand Taxur mozoriga dafn qilingan.

KO'KTO'NLIK OTA

Ko'kto'nlik ota qabri yuqorida tilga olingan Shayx Xovand Taxur maqbarasi yaqinidagi chinor daraxti ostida, ariqning janubida bo'lgan. Ko'kto'nlik ota Shayx Xovand Tahurning jorubkashi bo'lib, kim Shayx Xovand Taxur ziyoratiga kelsa, Ko'kto'nlik otani duo qilib yodga olar ekan. Umuman olganda, shaharda Ko'kto'nlik ota nomida ko'plab mozorlar tilga olingan. Shaharning Chuvalachi mahallasida olib borgan kuzatuv ishlarimiz jarayonida bu yerdagi Ko'kto'nlik ota qabriga bugungi kunda hama holi yosh bolalarni olib kelib, mozor haqqiga sadaqa berib ketishining guvohi bo'ldik.

Ko'kto'nlik ota nomli mozor Uyg'ur avtonom viloyati (XXR)ning Masagit nohiyasida ham bor. Lekin, ushbu mozor nomining etimologiyasi bir oz boshqacharoq, ya'ni u «Ko'k to'llik» bo'lib, ko'chada tollar borligi bilan izohlangan.

XOJA DOVUD

Xoja Dovud Shayx Xovand Tahurning o'g'li bo'lib, uning qabri Shayxontaxur dahasining Oqmasjid mahallasi g'arbida, mahalla masjidining orqasida joylashgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida keltirilishicha, o'sha masjid ham Xoja Dovudning masjidi hisoblangan¹. O'sha paytda shaharliklar Xoja Dovud qabri masjidida uch kun shar'iy shartlar bilan e'tikofda bo'lib, nafl Ro'zasini tutganlarga xudoyi taolo ilohiy ilmlar qilishiga ishonganlar.

XOJA RUSHNOYI

Xoja Rushnoyining laqabi Xoja Chirog'bardordir. Uning qabri Xoja Dovud maqbarasidan 150 qadam g'arbda, qabriston o'rtasida bo'lgan. Rivoyat qilishlaricha, shaharliklarning biror-bir murod maqsadi bo'lsa, juma kuni kechasi Xoja Rushnoy maqbarasi boshida sham yoqib, tilovat qilib, buning

¹ Sultanov O'. Toshkent qadamjoylari va mozorlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2007. - № 2. - B. 101-105

savobini ul zotning ruhi poklariga bag'ishlagan. Mavjud ma'lumotlar o'zbek-turkiy aholi tilidagi «Chirog'bardor» yoki fors-tojik tilli aholi tilidagi «Xoja Rushnoyi» deb nom olgan ziyoratgoh-qabrlar egalari o'tmishda biror-bir tasavvuf namoyandasi yoki taniqli shaxslar mozorining (odatda o'sha qabr yaqinida) chiroqchisi bo'lganidan darak beradi. Xususan, Toshkentdagi Xoja Rushnoyi Shayx Xovand Tahurning o'g'li Xoja Dovud mozorining chiroqchisi bo'lgan.

HAZRAT XOJA UKKOSH A

Chorsuning janubi g'arbida Hazrat Xoja Ukkoshaning (r.a.) mu'tabar qadamjosi joylashgan bo'lib, asardagi ma'lumotlarga ko'ra u kishi Madinadan din da'vati uchun kelgan sahoba mujohidlardan bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, jang paytida juma namozi tahorati uchun muborak asolari bilan pastlik yerga ishora qilganlarida, qadamlari ostidan chashma paydo bo'lib, suv favvoradek otilib chiqqan ekan. Kimki jarob (qichima) kasaliga muhtalo bo'lgan bo'lsa, ixlos va e'tiqod bilan shu suvda g'usl qilib, ikki rakat namozni ularning masjidlari yonida ado etsa va savobini Hazrat Ukkoshaning ruhi poklariga bag'ishlab, Kalomi rabboniyini tilovat qilsa, guyo o'sha kasaldan shifo topgan.

TUNQATOR MAQBARASI

Shayxontahur dahasining Turk maxallasida, Shayxontahur arig'ining yuqorisida Tunqator maqbarasi joylashgan. Tunqator Xoja Admad Yassaviyning muridlaridan bo'lib, shu nom bilan tanilgan va karomatguylik xislatiga ega bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, umrlarining oxirlarida shu ariq bo'yida yashagan.

MO'MIN SHAYX AZIZLAR

Mo'min shayx mozori Shayxontahur dahasining Mo'g'ulko'cha mahallasida, Qosimboy Qoratutiy madrasasiga tutash yerdagi balandlikda joylashgan bo'lib, «ular o'z davri suluki soliqlari va sajdaneshin murshidlaridan, toliblar hodiysi va zokirlar rahnomosi bo'lganlar», deb yozadi Muhammad Solihxo'ja. 1883 yilga mansub Qosimboy Qoratutiy madrasasi vaqfnomasida ham mazkur madrasaning Mo'min shayx azizlar mozoriga tutash bo'lganligi tilga olingan.

Sebzor dahasida

QAFFOL Shoshiy

Qaffol Shoshiy mozori Hazrati Imom mahallasida bo'lib, mozor atrofida tosh va pishiq g'ishtdan baland gumbazli imoratlar qurilgan. Eshon Azizxon Abdulqumxo'ja o'g'li mozor yaqinida qurilish olib borib, bu yerda bir necha gumbaz, pishiq g'ishtli minoradan iborat jome masjidni 1292 (1875/76) yilda ko'rib bitkazgan. Asarda qayd etilishicha, Qaffol Shoshiy mozorining ortida ko'plab suluk mashoyixlari va ulamolari dafn qalangan ekan. Sebzor dahasi ham dastlab Imom Qaffol Shoshiy nomi bilan yuritilgan. Shahar ichida va

tashqarisida ko'plab do'konlar va yerlar Qaffol Shoshiy mozoriga vaqf qilingan. Mozorning Qo'qon xoni Umarxon davriga tegishli vaqf nomasida keltirilishicha, Mulla Mir Badal maxzumcha ibn Mir Sharif ibn Mir Nadrboy ismli shaxs o'z mulki bo'lgan Toshkent shahri qo'rg'oni tashqarisida, Chahordara mavzeyidagi Ko'rxo'ja ota arig'i tarmog'i bo'lgan Darvozakent arig'idan suv ichuvchi taxminan 3 tanob dehqonchilikka yaroqli yerini Qaffol Shoshiy mozoriga vaqf qilgan. Hijriy 1269 yil zulxijja oyida (1853 yil, sentyabr) tasdiqlangan yana bir vaqfnomada esa, o'sha vaqtda Toshkent hokimi bo'lib turgan Shodmonxo'ja parvonachining (keyinroq qushbegi) o'g'li Sayidg'ozixo'ja tarafidan ajratilgan mol-mulklar tilga olingan¹. Unda keltirilishicha, Sayidg'ozixo'ja maqbaraning g'arb tomonida 10 ta do'kon, shu mavzeda yana 16 ta do'kon, Qaffol Shoshiy maqbarasi yaqinidagi Hazrat Xoja Mohruiy mozori ortida joylashgan 10 ta do'kon, jami 36 ta do'konni Qaffol Shoshiy mozoriga vaqf qilgan. Mutavalli etib tayinlanayotgan Sarimsoqxo'ja eshon Sayidxon o'g'lining vaqf mulklaridan keladigan tushumlarni shar'iy hukmlar asosida maqbara ta'miriga sarflashi shart qilib belgilangan. Vaqf hujjatida mozordagi masjidning bir necha hujralarida talabalar tahsil olishi ham aytilgan.

NIZOMUDDIN XOMUSH

«Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Kaffol Shoshiy maqbarasining janubiga Nizomuddin Xomush dafn qilingan bo'lib, ularning maqbarasi janubida Baroqxon madrasasi joylashgan. Ushbu mozor haqida aniq ma'lumotlar kam.

XOJA TAROZISHIKAN

Sebzor dahasida Xoja Tarozishikanning maqbarasi mavjud bo'lib, ular o'z davrida rais va muxtasib, hol va qol ilmida olim, sara muallim va mudarris bo'lganlar. Ularning ajoyib karomatlaridan biri shuki, agar bozor ahlining tarozisida nuqson bo'lsa, tarozi pallalarini bir-biriga urib nuqsonini izhor qilgan. Uning bu harakatidan fribgar bozor ahli, ya'ni savdogarlar sharmisorlikdan xijolat bo'lib qolganlar va bu zotni bozorda ko'rganlar «Tarozi sindiruvchi xoja kelyapti», der ekanlar. Shunga ko'ra ularni Xoja Tarozishikan degan laqab bilan ataganlar.

XOJA YAKKA

Sebzor dahasida Beglarbegi madrasasi g'arbidagi bir qabr Xoja Yakka qabri nomi bilan mashhur bo'lgan. Asardagi ma'lumotlarga qaraganda, Xoja Yakka qadim zamonlarda kofirlar bilan bir necha bor muhoraba qilgan. Shunday muhorabalarining birida kofirlar Xoja Yakkaning boshini tanasidan judo qilganda, u o'z boshini bag'riga bosganicha anchagina yurib, bir mavzega etib yiqilgan va muborak jasadlari o'sha yerga dafn qilingan. Bu joy XIX asrda shahar aholisining ziyoratgohlaridan bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga

¹ Muhammadjonov A. Qadimiy Toshkent. - T.: Sharq, 2002. - 78 b.

qaraganda, Xoja Yakka Kaffol Shoshiyning mulozimlari va mujohidlaridan bo'lganlar

TURKCHI OTA

Chig'atoy darvozasi yaqinidagi mozor. Turkchi ota nomi bilan mashhur bu shaxs aqliy va naqliy ilmlarda olim, Ahmad Yassaviy suluki soliklaridan bo'lgan. Turkchi ota arab tili va boshqa ilmlardan darsgo'ylik qilgan va talabalar bilan turkiy tilda suhbat va bahs olib borgani bois ana shu nomni olgan ekan.

KOH OTA

Taxtapul darvozasi yonida Koh ota mozori bo'lib, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Koh ota Xoja Axmad Yassaviy sulukiga mansub bo'lgan. Muhammad Solihxo'ja ko'plab kishilarning Koh otaning chillaxonalarida poklanish uchun, o'zining royibiy maqsadlariga yetishish uchun sidqi dildan o'tirganliklarini ta'kidlaydi. XIX asr boshlarida Sebzor dahasida Koh ota yoki Kohotay buzrug mahallasi va mavzei bo'lgan¹. Hozirgi kunda bu joyda shu nomda mahalla mavjud bo'lib, Koh ota nomida masjid ham faoliyat ko'rsatadi. Masjid ichida Koh ota maqbarasi bo'lib, ziyoratchilar kelib turadi. Maqbara hashar yo'li bilan ta'mirlangan, lekin alohida qayta ta'mirlanib atrofi obodonlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

IBROHIM OTA

Qorasaroy darvozasining tashqarisida Ibrohim otaning mozori joylashgan. Ibrohim ota maqbarasidan to Qorasaroy darvozasigacha yarim farsaxdan kamroq masofa bo'lgan. Ularning ziyoratiga ko'plab odamlar qadam ranjida qilgan. Ayniqsa, XIX asrda aksariyat tolibi ilmlar Ibrohim ota chillaxonasida ibodat bilan mashg'ul bo'lgan.

KO'HAK OTA

Ko'hak ota qabri Sebzor dahasida, shahar qo'rg'onining tashqarisidagi mozorda joylashgan, Muhammad Solihxo'janing hisobiga ko'ra maqbaradan Taxtapul darvozasigacha 2000 qadam masofa bo'lgan. Maqbaraning shimolidan Kaykobus arig'i oqib o'tgan. Ko'hak ota mashoyixi kiborlardan sanalib, agar biror kishi bu mozorga beodobona qadam bossa, oxir-oqibat bedavo molixuliyo (ruhiy kasallik) kasaliga muhtalo bo'lgan.

Ko'kcha dahasida

ShAYX ZAYNIDDIN KUHI ORIFON

Ko'kcha dahasi shayx Zayniddin Ko'hi Orifon mozori joylashgani uchun shayx Zayniddin Ko'hi Orifon dahasi deb ham atalgan. Bu daha Toshkand shahrining ga'rbida joylashgan, shayx Zayniddin Kuhi Orifon maqbarasi esa ko'kcha darvozasining tashqarisida bo'lib, maqbaradan Muhammad Solihxo'ja hisob-kitobiga ko'ra 1800 qadam bo'lgan.

XOJA BEKXO'JA

¹ Jalilov O. Madrasalar ta'rifida // Fan va turmush. Toshkent, 1983. -B.12-13

Ko'kcha dahasidagi mozorlardan. Xoja Bekxo'ja Toshkandiy Sajdaneshin va din soliklari rahnamalaridan biri bo'lib, maqbarasi ko'kcha darvozasi va shahar bozori orasida, Zax arig'i bo'yida joylashgan. Xoja Bekxo'ja faoliyati haqida aniq ma'lumot yo'q.

YIRLOQ OTA

Bu dahadagi mu'tabar mozorlardan yana biri YIRLOQ OTAnomi bilan atalgan. «Ularning mozorining bunday nomlanishiga sabab shuki, kishilar u zoti bobarakot ziyoratiga qadam ranjida qilsalar, avvalo, tahorat olib, so'ng bu dargoh uchun ikki rakat namoz ado qilib, Kalomi rabboniy tilovat qiladilar. Shundan so'ng sidqidildan e'tiqod qilgan holda jomasini echib, ul xonaga kiradilar va qibla tomondagi novvadon ostiga yalang oyoq xolda tik turadilar. Har kimki pok e'tiqodli va tamoman ixlosli bo'lsa, bir ozdan so'ng quruq novvadondan yiriga o'xshagan (tovush bilan) suv oqib (kishining) boshiga quyiladi. G'usldan suv to'xtaydi. Ba'zi (ya'ni ixlos qilmagan) kishilarga bir qatra ham suv tushmaydi», deb yozadi Muhammad Solihxo'ja.

Bashog'och dahasida

ZANGIOTA

Zangi ota mozori Samarkand darvozasi tashqarisida joylashgan bo'lib, maqbaradan shahargacha bir farsax yo'lda o'zluksiz bor, hovo'z, chorbog' va daraxtzor hamda bir qancha karvonsaroy va do'konlar barpo etilgan. Muhammad Solihxo'janing ta'kidlashicha, Zangi ota maqbarasi imoratini Amir Temur bino qilgan. Mozorning uch tomonidagi imoratni Normuhammad qo'shbegi Madrasa qilib, hujralar solgan. Qanoat otaliqesa, 1870 yilda ayvoni olib tashlab, pishiqrishtdan masjid kurdirgan, gumbazlarni ta'mirlagan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida yozilishicha, har qovun pishar mahali shahar aholisining akobirlari uch kun u yerga sayr va sayohat qilishga kelganlar va bu tomosha atrof shaharlarga ham ma'lum bo'lgan. XIX asr oxirlariga kelib, Zangi ota maqbarasi atrofida o'ziga xos me'moriy ansambl, yo'zaga kelgan bo'lib, u Zangi ota va Anbar bibi maqbarasi, yuqorida tilga olingan madrasa-masjiddan iborat bo'lgan. 1866 yilgi zilziladan zarar ko'rgan Zangi ota

go'rxonasi 1887 -1888 yillarda ta'mirlangan. 1914—1915 yillarda esa minora qurilgan.

ABDUJALIL BOB

Hazrat Zangi ota mozorining janubida Abdujalil bobning qabri mashhur bo'lgan. Ularning qabridan to Zangi otaning mozorigacha yarim farsaxlik yo'l bo'lgan. Hozirda Abdujalil bob qabri Zangiota — Yangiyo'l yo'lidagi Abdujalil mozori o'rtasidagi shiyponda. Shiypon ostida ikkita qabr bo'lib, ular imkon darajasida ta'mirlangan bo'lsada, qarovsiz ahvolda. Mahalliy aholi orasida asli Yaman mamlakati podshohi bo'lgan va keyinchalik g'azot uchun Shosh o'lkarsiga kelib vafot etgani ta'kidlanadigan Abdujalil bob mozori bilan bog'liq voqealar asosini Muhammad Hanafiya avlodlari faoliyati tashkil etadi. Mazkur shaxs bilan bog'liq nasabnomalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Abdujalil bob ibn Abduraxmon bob ibn Abduqahhor ibn Abdujabbor ibn Abdufattoh ibn Muhammad Hanafiya ibn Ali (r.a.) Yaman podshohi bo'lgan.

XIX asrda shaharlik aholi tomonidan Abdujalil bobga turkiy elatlarning 92 mashoyixlaridan biri sifatida baho berilgan.

SUZUK OTA

Muhammad Solihxo'janing yozishiga qaraganda, Bashog'och dahasida So'zuk ota maqbarasi joylashgan bo'lib, ularning nasabi Hakim otaga ulangan. «Hujjat o'z-zokirin» asarida bu shaxsning ismi «Suzuk ota» va «Suksuk ota» deb tilga olinib, asl ismi shayx Mustafouli bo'lib, Sayramda to'g'ilganligi ta'kidlanadi. A. Nosirov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Suzuk ota Ismoil otaning kenja o'g'illari bo'lgan. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra, Mustafouli Ahmad Yassaviyning Gavhari Xushtoj ismli kizining kenja farzandi bo'lib, 1140—1217 yillarda yashagan. Ularning bunday atalishiga «Buzurgoni Sayram» asarida keltirilishicha, qoshlari qalin va qorako'z bo'lganlaridan, bobolari Ahmad Yassaviy «Bizning suzugimiz keldilar, keling, keling», deyishlari sabab bo'lgan ekan. Suzuk ota balog'atga etgach, Toshkentning Bashog'och dahasidagi Chuqur ko'priq Mirlar va Chaqar mahallalari oraliridagi joylarga kelib urnashgan. Suzuk ota usta xunarmandlarning piri bo'lib, keyinchalik u yashagan ustalar mahallasi Suzuk ota nomini olgan.

XOJA NURIDDIN

Bashog'och dahasi Zangi ota mahallasida Xoja Nuriddinning maqbarasi bo'lgan. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, mazkur shaxs Mahdum A'zam avlodlaridan Ofoqxo'ja silsilasidan. Ma'lumotlarga qaraganda, Xoja Nuriddin Farg'ona, Dashti Qipchoq va Qoshg'arda mashhur bo'lgan, Toshkentga esa umrining oxirlarida kelib yashab qolgan ekan. Boshqa ma'lumotlarga qaraganda, Xoja Nuriddin bobo Sayyid Muhammad Toshkandiy ismli shaxsni o'g'li bo'lgan. U Xoja Ahrorning muridi va Toshkentdagi Xoja Ahror madrasasi mudarrisi bo'lgan Xoja Nuriddin maqbarasi gumbazi 1866 yildagi zilziladan qattiq shikastlanib qulab tushgan va keyinchalik qayta tiklangan. Makbara hozir Shayxontaxur tumanidagi 85-o'rta maktab hovlisida joylashgan.

XOJA ALAMBARDOR

Xoja Alambardor mozori Toshkent qal'a devorlaridan tashqarida 300 qadam masofada joylashgan. Muhammad Solihxo'ja «Tarixi Bayzobiy» asaridagi ma'lumotlarga tayanib yozishicha, chiltonlardan biri dunyodan o'tganda qolganlari o'z sheriklari o'rniga Xoja Alambardorni munosib ko'rgan ekanlar. Maqbara atrofida olib borilgan qazishmalar natijasida X asrga tegishli turarjoy qoldiqlari topilgan.¹ Xoja Alambardor qabristoni XV-XVI asrlardan buyon mavjud bo'lsada, maqbaraning o'zi XVIII asr oxiri — XIX asr boshlariga tegishli. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Xoja Alambardorning asl

¹ Sultanov O'. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi Jadidayi Toshkand" asari. - T.: O'zbekiston, 2009. 106-115 b.

ismi Sayid Abdulaziz bo'lib, u Toshkent vohasi va Fargona vodiysida islom dinini tarqatish uchun ko'rash olib borgan Muhammad Xanafiya avlodi Ishoqbob qo'shinida bayroqdor bo'lgani aytiladi. Ishoqbobning qaxramonliklari yoritilgan nasabnomalar va agiografik asarlarda keltirilishicha, Sayid Abdulaziz Sayram uchun bo'lgan jangda yetmish yeridan yaralanib shahid bo'lgan. Bundan tashqari, Sayram mozorlariga bag'ishlangan maxsus risolalarda ushbu shaharda Xoja Alambardorning qabri ham borligi qayd qilingan. Ayrim rivoyatlarda esa, Xoja Alambardorning Qaffol Shoshiy mulozimlaridan bo'lganligi ham tilga olinadi. Shaharda Xoja Alambardor mozorining vaqf mulklari ham bo'lgan va ularni boshqarish o'zlarini Xoja Alambardor avlodlari deb hisoblovchi kishilar qo'lida bo'lgan. Xususan, mozorning saqlanib qolgan hujjatlaridan birida, ya'ni ashtarxoniy Subxonqulixon (1681 — 1702) yorlig'i bilan Xoja Alambardor avlodi, Xoja Ya'qub ismli shaxs mozorining Toshkent namozgohidagi vaqf yerlariga mo'tavalli etib tayinlangan. 1866—1867 yilda esa Toshkent qozixonasi tomonidan Xoja Alambardorning avlodlari bo'lgan Eshon Obidxo'ja, Yusuf Alixo'ja va Shamsiddinxonlarga ushbu vaqf yeriga mo'tavallilik qilishga guvoxnoma berilgan.

IDRIS PAYG'AMBAR QADAMJOYI

Chotqol tog'larida Idris payrambar mozori bo'lib, aholi u yerni Idris payrambar qadamjoyi deb atagan. Muhammad Solihxo'jayashagan davrda ko'plab kishilar asosan yoz fasli, sunbula burjida o'sha joyga ziyoratga borganlar. Muallif Idris payg'ambarning masjidi nishonalari Sayram shahrida ekanligini ham qayd qilib o'tgan.

ARSLONBOB ZIYORATGOHI

Muhammad Solihxo'janing so'zlariga qaraganda, Sir daryo daryosi bo'yida joylashgan bo'lib, yon atrofdagi turkiy aholining gavjum ziyoratgohlaridan biri bo'lgan. Bu yerdan o'tuvchi savdogarlar albatta Arslonbob mozorida to'xtab uni ziyorat qilib, so'ng yo'lga tushganlar. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ziyoratgoh-mozorlar shahar tashqi ko'rinishiga va, ayniqsa, topografiyasiga katta o'zgarishlar olib kirdiki, ularni quyidagilarda ko'rsatish mumkin:— mozorlar o'z o'rniga ko'ra shahar ichi va tashqarisida aholi uchun shahar tomonlari va yunalishlarni aniqlashtiruvchi asosiy mo'ljal obekt vazifasini o'tagan. Mozorlar joylashgan ko'chalar, mavze va mahallalar hamda ulargacha bo'lgan masofa (farsax yoki qadam ulchovida) aholi orasida ma'lum bo'lgan;

— mozorlar nomi shahar toponimiyasida keng tarqalib, daha, mahalla va mavzelarga, ko'chalarga nisbatan ham qo'llanilgan. Xususan, to'rt daha nomi ham dastlab shaharda yashab o'tgan Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Shayx Xovand Tahur, Zangi ota nomlari bilan atalgan¹.

¹ Sultanov O'. Toshkent qadamjoylari va mozorlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2007. - № 2. - B. 101-105.

— mozorlar atrofida madrasalar va katta-kichik masjidlar barpo etilgan. Ularga Qaffol Shoshiy mozoridagi Baroqxon, Beglarbegi, Yunusxon mozoridagi Yunusxon, Zangi ota mozoridagi Normuhammad qushbegi, Hazrat Ukkosha mozori yaqinidagi Xoja Ahror madrasalari va ko'plab masjidlarni misol qilib keltirish mumkin. Darvishxon namozgohi nomi bilan atalgan, Baroqxon davrida bunyod etilgan qadimiy Namozgoh ham Hazrat Ukkosha qabri atrofida yo'zaga kelgan;

— mozorlar yaqinida ziyoratgoh majmualar shakllanib, shaharning me'moriy tuzilishiga katta ta'sir o'tkazgan. Ziyoratgoh-mozorlar atroflarida ozodalikka va obodonchilikka katta e'tibor berilgan va ularga olib boruvchi yo'llarda, ularning yaqinlarida xiyobonlar va hovuzlar barpo qilingan.

Xulosa

«Tarixi jadidayi Toshkand» ko'proq siyosiy tarix uslubida yozilgan asarlar sirasiga kirsada, unda Toshkent shahri madaniy-ma'naviy hayoti bilan bogliq ma'lumotlar hamanchagina. Ular asarning, asosan, Toshkentda bag'ishlangan qismida uchraydi. O'rta Osiyo xonliklarida XVIII —XIX asrlarda hamdiniy fanlar bilan bir qatorda tor doirada bo'lsada, ilm-fan va san'at namoyandalari yetishib chiqdi. Jumladan, Qo'qon xonligida, Umarxon saroyi doirasida yaratilgan adabiy muhit mintaqadagi adabiy yuksalishning so'nggi bosqichlaridan biri bo'ldi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, bu davrda Toshkentdagi madaniy-ma'naviy hayot, asosan, Toshkent-Qo'qon, Toshkent -Buxoro madaniy aloqalari asosida rivojlanishda davom etgan.

Toshkent ko'plab madaniy-ma'naviy hayot vakillari yashab ijod qilgan madaniyat markazlaridan bo'lib, XVI — XVIII asrlarda «Toshkandiy» nisbasi bilan mashhur bo'lgan ko'plab ilm-fan, adabiyot, hattotlik va kitobat ishi ustalari faoliyat olib borganini ko'rsatib o'tish mumkin. Albatta, XVIII — XIX asrlarda ilm-fanning u kddar kuchli vakillari chiqmagan bo'lsada, toshkentlik ilm ahli va ma'naviy hayot namoyandalari shahardagi madaniy muhitni ma'lum ma'noda jonlantirishga muvaffaq bo'lganlar¹. Jumladan, bu davrda Holis Toshkandiy, Mirza Aziz Toshkandiy, Umarbek Oxund Toshkandiy, Kulfat, Zoir Toshkandiy, Azizulloxon Toshkandiy, Shohxo'ja Hakim Sharifxo'ja o'g'li — Shohi Toshkandiy, Abu Ubaydulloh Toshkandiy, hattot Oyxo'ja Toshkandiy kabilar ayni shu davrda faoliyat ko'rsatgan, «Tarixi jadidayi Toshkand» asarining Toshkent tavsifiga oid qismida Muhammad Solihxo'ja har bir dahadagi taniqli shaxslar to'g'risida ham qisqa biografik ma'lumot beradi. Ularni ijtimoiy holatiga ko'ra diniy mansab egalari (qozi, muftiy, a'lam, oxund), tariqat vakillari (eshonlar, so'fiylar), mudarrislar va boshqa kasb egalari (hunarmandlar, tabiblar, musiqachilar) kiritish mumkin. Tilga olingan shaxslar muallifning uzoq-yaqin tanishlari va do'stlari bo'lib, ular haqida yozganida, negadir aniq bir mezonga asoslanmagan, barchasining ham hayoti va vafot yillarini aniq keltirmagan va ular yashagan davrni taxminiy aytib o'tgan, xolos. Masalan, Azizlarxo'ja a'lam Olimxon davridan ruslar istilosigacha, Eshon Abdusami'xo'ja xatib Olimxon davridan Lashkar beglarbegi hokimligining oxirgi yillarigacha, Shayx Xovand Taxur avlodi Eshon Rahmatullaxo'ja muftiy Muhammad Alixon davridan ruslar istilosigacha, Eshon Vali Sanchiqmoniy Olimxon davridan Muhammad Alixon zamonigacha

¹ Karimov I. Turkiston umumiy uyimiz.-T.:O'zbekiston,1995.-12 b

yashagani ta'kidlangan. Lekin, ayni chog'da, tilga olingan aksariyat shaxslarning nima sababdan va qanday kasallikdan vafot etgani xususida ancha aniq va izchil yozilgan. Mazkur ma'lumotlarda Toshkentning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida muham rol o'ynagan kishilar bilan birga, muallifning oddiy tanish-bilishlari haqida ham yozilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida bu kabi ma'lumotlarda aynan XIX asrda Toshkentdagi madaniy-ma'naviy hayot aks etgan deb aytish mumkin. Lekin, Toshkent adabiy muhitiga doir aniq ma'lumotlar batafsil keltirilmagan va buning sababi bizga qorong'u. Biroq muallifning o'zi, uning tanishlari va do'stlari orasida she'r mashq qiluvchilarning o'zaro mushoiralari bo'lib turganini asardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Almai, Dilkash, Kamiy, Miskin kabi shoirlar ijodi va merosi keyingi yillarda keng tadqiq etilgan. Shu sababli ko'pchilikka hali yaxshi tanish bo'lmagan Akmalxon to'ra, Ulfat, Mulla Mir Ahmadxon va Axtariy xaqida to'xtalib o'tish o'rinlidir. Shulardan Akmalxon to'ra Toshkentning Beshyog'och dahasida, Yalangqor mahallasida 1835 yoki 1840 yilda tavallud topgan. U dastlab Toshkentda, so'ngra Qo'qonda tahsil olgan, o'z davrining yetuk shoir laridan biri bo'lgan va amir Abdulahadxon (1885 — 1910) hukmronligining dastlabki yillarida Buxoroda vafot etgan. Muhammad Solihxo'ja zamondoshlaridan biri Mullo Solihbek dodxohning o'g'li Sobirbek «To'xtamish», keyinroq «Ulfat» taxallusi bilan ijod qilgan. Sobirbek 1850 yili Beshyog'och dahasida tug'ilgan. Ulfat yaxshi she'rlar bitgan, shu bilan birga, tanbur va do'tor chalishda mohir, benihoyat xushxat va xushxon bo'lgan. O'zi yasagan tanbur da shashmaqomlardan ijro etgan, Fuzuliy, Hofiz, Navoiy va Bedil g'azallarini ashula qilib aytgan. Ulfat 1873 yilda Toshkentda tarqalgan vabodan vafot etgan. Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li Ulfatning o'z qo'li bilan chiroyli ko'chirilgan, yaxshi muqovali qo'lyozmasini uning toshkentlik Muhammad Ali ismli savdogar do'sti qo'lida ko'rib, undan so'rab olib o'qib chiqqanligini ta'kidlaydi. Mazkur devon Bedil va Xoja Hofiz she'rlariga muhammas, Navoiy, Fo'zuliy she'rlariga tazmindan iborat bo'lgan ekan.

Mulla Mir Ahmadxon esa Toshkentda ulamolar oilasida to'g'ilgan bo'lib, «Mir» taxallusi bilan ijod qilgan. Mulla Mir Ahmadxon hushxat muhrkan ham bo'lgan. Shuningdek keng bilimli bo'lgan Mir Ahmadxon qozixonada muftiy va a'lamlilik vazifasini ham bajargan. Murodxo'ja Solihxo'janing yozishicha, u «Fiqxi akbar» asarini arabchadan o'zbek tiliga nazmda tarjima qilgan. Yana bir shoir - Axtariyning asl ismi Afandixon bo'lib, Toshkentning Hasanboy qishlog'ida mashhur Ortuqxo'ja eshon Qurbonshayx azizlar o'g'li xonadonida tug'ilgan. Toshkent va Buxoroda tehsil olgan Afandixon keyinchalik otasi va bobosi kabi Toshkentning e'tiborli eshonlaridan biriga aylangan va shu bilan birga o'z she'rlari bilan ham tanilgan. Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'lining yozishicha, Axtariy taxminan 1938 yilda vafot etgan. Muhammad Solihxo'ja tilga olgan shaxslar orasida sozanda va qo'shiqchilardan

Ko'kchalik Shahloxo'ja va Yusufxo'jalar, beshyog'ochlik Isoi Mulloyi sozanda, tabiblardan Ko'kchalik Eshon Sildiyo'ja tabib, beshog'ochlik Mulla Muhammad Rasul oxund Yalangqaryagiyo'g'risida qisqa ma'lumotlar mavjud. Muhammad Solihxo'janing yozishicha, Muhammad Rasul tabib tibbiyotdan tashqari xandasa, jug'rofiya, ilmi nujum, kimyo va tarix fanlarini ham chuqur bilgan. Mazkur shaxsni «Xulosat ul-axvol» asari muallifi Abu Ubaydulloh ham shahardagi taniqli tabiblardan biri sifatida tilga olib o'tgan, Muhammad Rasul tabib toshkentlik mashhur tabib va olim Bositxon ibn Zohidxon Shoshiyga ham ustozlik qilgan.

Mohir xunarmandlardan esa, Mulla Bobojon oxund zargar tilga olingan bo'lib, u Sulton Sa'idxon davrida Qo'qonda xon saroyi guldastasiga o'rnatgan katta soatning ovozi bir farsax yergacha eshilib to'rgan. Mulla Bobojon Amir Mo'zaffarning Qo'qonga yurishi davrida Buxoroga olib ketilgan, soat esa Buxoro arki darvozaxonasining naqoroxonasiga o'rnatilgan.

Tilga olingan xattotlardan tarixchi Mulla Yunusjon munshiy — Muhammad Yunus Toyib Toshkandiyini ham ko'rsatish mumkin. Mulla Yunusjon munshiy Toshkandiy Xudoyorxon, Mallaxon, Sulton Sa'idxon hukumatida turli mansablarda ishlagan. Alimqo'li amirlashkar davrida unga munshiy va shig'ovul etib tayinlangan. 1865 yildan so'ng Qoshg'arga borib Yokubbek badavlat hukumatida yovar, devonbegi va Qoshg'ar hokimi mansablarida bo'lgan. Yoqubbek Badavlat asos solgan Etti shahar davlati tugatilgach, Qo'qonga qaytib kelib ijod bilan mashg'ul bo'lgan. «Toyib» taxallusi bilan bir necha asarlar yozgan. Hozirda uning «Tuhfai Toyib», «Hadiqat ul-anvor», «Tarixi Alimquli Amirlashkar» kabi asarlari O'zR FA Sharqshunoslik instituti qulyozmalar xazinasida saqlanadi. Asli shahrisabzlik bo'lgan Mulla Yunusjon munshiyning ota-bobolari va keyinchalik uning o'g'li Muhammad Yahyo ham xattot bo'lgan. Uning otasi Bobojonbiy Shahrisabzdan Toshkentga ko'chib kelib, Qashg'ar mahallasida yashagan¹. Mulla Yunusjon munshiy nash nasta'liq, shikasta xat turlarida yozishni puxta egallagan. U Navoiyning «Hamsa», «Lison uttayr», «Mahbub ul-qulub», «Majolis un-nafois», «Raroyib us-sigar» kabi ko'plab asarlarini ko'chirgan. Shayxontaxur dahasidan bo'lgan Abdulvahobxo'ja muhrkan eshon Abdusami'xo'ja xatib o'g'li ham mohir xattot va muhrkan bo'lib, keyinchalik Buxoroga ko'chib ketgan. Bundan tashqari, Muhammad Solihxo'janing yozishicha, ustoz domulla Mir Inoyatulloh, asarlar yozish bilan birga xattotlikda ham mohir bo'lib, Abduraxmon Jomiyning «Sharhi muammo» asarini yoshligida husnixat bilan ko'chirgan ekan. A. Murodov ham o'zining xattotlik tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida Muhammad Solihxo'ja yuqorida tilga olgan ikki shaxsni Toshkentdagi ko'zga ko'ringan xattotlar sifatida tilga olgan. Uning yozishicha, Mir Inoyatullox. Jomiyning «Favoyidi ziyoiya» asarini ham xusnixatda ko'chirgan. Toshkentdagi madaniy muhitning shakllanishida, albatta, maktab va madrasalarning o'rni katta bo'lgan. Asosiy ta'lim maskanlari esa madrasalar edi. Ta'kidlash joizki, qato madrasalarda tahsil olgan Muhammad Solihxo'ja o'zoqyillar o'zi imomlik qilgan masjid qoshidagi maktabda bolalarga ta'lim berish bilan ham mashg'ul bo'lgan. Chunki, o'sha vaqtlarda Turkiston o'lkarsida, jumladan, Toshkentda maktablar, asosan, masjid qoshida ochilgan va masjid imomi muallimlik qilgan.

¹ O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. - T.: O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - 704 b.

Turkiston general-gubernatorligi Maorif boshqarmasi ma'lumotlariga qaraganda, 1890-1893 yillarda Turkistonda jami 214 ta madrasa bo'lib, shundan 21 tasi Toshkentda joylashgan edi. Rossiya imperiyasi istilosining dastlabki yillarida madrasalardagi ta'lim va o'qitish ishlari an'anaviy tartibda belgilangan qoidalar asosida olib borilgan bo'lsa, keyinchalik ularning faoliyatini nazorat qilish va o'quv ishlarini tartibga solishni Turkiston general-gubernatorligi o'lka maorif boshqarmasi o'z qo'liga olgan. Bu paytda Toshkentda Abo'lqosimxon madrasasida 120 ta, Xoja Ahror madrasasida 80 ta, Beglarbegi madrasasida 150 ta, ko'kaldosh madrasasida 80 ta, Sharafiboy madrasa talabalar Toshkent madrasalari bilan qanoatlanmay va, qolavyersa, tuzukroq ish topish maqsadida Buxoro, Samar-kand, Qo'qon madrasalarida o'z bilimlarini oshirib qaytganlar. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi mudarrislar, ulamolar va tasavvuf namoyandalari to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar o'sha davrdagi bu toifa vaqillarining faoliyati hamda turmush tarzini o'rganishda muhim ma'lumotlar beradiki, tilga olingan shaxslar bir paytning o'zida ham mudarris, ham diniy mansab egalari yoki shahardagi taqvodor mo'tasavviflardir. Taniqli shaxslar orasida muallifga zamondosh bo'lgan toshkentlik yirik diniy ulamolar, jumladan, qozi Mahdum Baland masjidiy, qozi Shodmonxo'ja eshon Orqako'chagiy, Eshonxonxo'ja qozi Merganchagiy, domulla Mir Inoyatulloh Qatog'teragiy kabi, muallif tili bilan aytganda, fikriy ilmlar bilimdonlari, mufasssir va muhandislarni ham ko'rish mumkin. Ularning deyarli barchasi bu sohadagi faoliyati bilan birga Toshkent madrasalarida mudarrislik qilganlar.

Yana bir tomoni, Muhammad Solihxo'ja taniqli shaxslar haqida so'z yuritganda, ko'proq o'ziga yaqin muhit — o'quv tizimi kishilari, ya'ni Madrasa mudarrisleri biografiyalariga ko'proq o'rin bergan. Jumladan, ular orasida Eshonqo'li dodxoh madrasasida — qozi alquzzot Buzrukxo'ja Zanjirliqiy, Muzrob Xorazmiy, Eshon Abdurasulxo'ja, Eshon Sulaymonxo'ja, domulla Esonbek oxund; Mahmud dasturxonchi madrasasida — eshon Shohmansurxo'ja, domulla Mir Muhammad Rahim oxund; Beglarbegi madrasasida — muallifning ustozlari Mir Sharofiddin mahdum, domulla Mir Inoyatulloh; Mo'yi Muborak madrasasida xalifa Abdumajidxon eshon, Yunusxonda — Abdulazizxo'ja eshon; Eshonxo'ja qozi, eshon Abdusami'xo'ja xatib; Xoja Ahror madrasasida — domulla Umarbek oxund Chi-ratoiy mudarris va boshqa mudarrislar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, shaharda taniqli mudarrislar oilalari yuzaga kelgan. Xususan, Mir Inoyatulloh. Qatorteragiy (vaf. 1859 — 1860 i.) Toshkent va Buxoro madrasalarida o'qigan, mudarris bo'lish bilan birga tafsir ilmini ham puxta egallagan. Yuqorida ta'kidlanganidek bir necha asarlar muallifi bo'lib, xattotlikdan ham boxabar bo'lgan. U dastlab Muhammad Alixon tomonidan Registonda qurilgan madrasaga, Toshkent hokimi Sufibek tomonidan esa, Yunusxon madrasasiga mudarris qilib tayinlangan, keyinchalik Beglarbegi va ko'kaldosh madrasalarida hamtalabalarga saboq bergan. Mir Inoyatulloh Toshkentda qozikalon bo'lgan Haqimxo'ja qozikalonga ham arab tili grammatikasidan daryo bergan edi. Keyinchalik uning ukasi Mir Iso oxund va o'g'li Mir Sharofiddinlar ham Beglarbegi madrasasida mudarrislik qilgan. Eshonquli dodxoh madrasasida darsguylik qilgan qozi ulkuzzot Bo'zrukxo'ja Zanjirliqiy (vaf. 1838 i.) oilasini ham mudarrislar oilasi deb aytish mumkin. Uning ukasi «eshoni mudarris» laqabi bilan tanilgan Sulaymonxo'ja va o'g'li Sayid Ahmadxo'jalar Toshkentdagi ko'zga ko'ringan mudarrislar hisoblangan. «Tarixi jadidayi Toshkand»da

Toshkentning o'sha davrdagi ma'naviy hayotining muhim qismini tashkil qilgan tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq ma'lumotlar ham mavjud va ular ko'proq XIX asrda Toshkentda yashab o'tgan tariqat peshvolari to'g'risida yozilganlarda o'z aksini topgan. Keltirilgan ma'lumotlar mazkur toifaning faqat tariqat doirasidagi faoliyati bilan emas, balki diniy amallarda hamda mudarrislik bog'dorchilik dehqonchilik va kitobchilik kabi turli sohalarda mehnat qilib tirikchilik o'tkazganidan dalolat beradi. Ta'kidlash joizki, barcha davrlarda bo'lganidek bu paytda ham tasavvuf ahliga yuqori tabaqa ularning muxlisi sifatida iqtisodiy jihatdan homiylik qilib kelgan¹. Masalan, eshon Shohmansurxo'ja shahardagi naqshbandiylik tariqatining yirik peshvolaridan bo'lib, Muhammad Alixonning vaziri Mahmud dasturxonchi o'zining Degrezlar mahallasidagi madrasasini eshon Shohmansurxo'jaga talabalarga saboq berish uchun, Toshkent hokimi Ahmad qushbegi esa Mo'yi Muborak madrasasini Abdulmajidxon eshon Yunusxon eshon o'g'li uchun o'z hisobidan qurdirib, ularni doimiy mudarris etib tayinlagan. Shuningdek boshqa tasavvuf namoyanddlari — domulla Fozil oxund Qiyotiy kitob ko'chirish bilan, domulla Ya'qubjon oxund Qorabog'diy va Mulla Sami'jon oxund Qorabog'diy, asosan, o'z bog'laridagi dehqonchilik orqasidan tirikchilik o'tkazganlar. Toshkentning tasavvuf namoyandalari «Xulosat ul-ahvol» asarida ham tilga olingan bo'lib, unda Bahodir shayh Xalifa Qo'zi, eshon Yusufxon, domulla eshon Vali, xalifa Oxundjon, eshon Shohmansurxo'ja, domulla Tursun Muhammad oxund, Maxzum Safo, Abo'lqosimxon eshon, eshon Shayx Ali Qoratoshiy kabilar to'g'risida qisqa ma'lumotlar uchraydi. Lekin Muhammad Solihxo'ja ehtimol o'zi nakdnbandiya tarikati vaqili bo'lgani bois naqshbandiy va mujaddidiy yunalishi vakillarinigina tilga oladi, xolos. Jumladan, N. Likoshin Toshkentdagi tariqat vaqillarining muridlari, daromadi, kundalik turmushi haqida muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Muhammad Solihxo'ja shahardagi Mahkama masjidida ushbu tariqat ahlining har dushanba kuni zikri arra bilan mashg'ulligini tilga oladi. Bundan tashqari, asosan masjid va madrasalar qoshida badavlat kishilar tomonidan qurilgan xonaqoh va qorixonalar ham ana shu maksad ulida xizmat qilgan. Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari fanda Toshkent tarixi bo'yicha muhim manba ekanligi ancha ilgari e'tirof etilgan va bu sohada bir qancha tadqiqotlar ham chop etilgan. Mazkur monografiyani ana shu dolzarblikning davomi deb tushunish mumkin. «Tarixi jadidayi Toshkand» Qo'qon xonligida yuzaga kelgan o'ziga xos tarixnavislik maktabi doirasida yozilgan yirik manbalardan biri bo'lib, davri, geografik qamrovi va hajm jihatdan XIX asrda yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan ajralib to'radi. Ikki jildidan iborat bu asarning birinchi jildi O'rta Osiyo va unga qo'shni mamlakatlarning qadimgi va O'rta asrlardagi tarixiga bag'ishlangan va mazmunan kompilyativ qismdir. Ikkinchi jildi esa, XVIII —XIX asrlar tarixi, aniqrog'i Qo'qon xonligi va ayniqsa, Toshkent tarixini o'rganishda birlamchi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Asar muallifi Muhammad Solihxo'ja mulla Rahmat Qoraxo'ja o'g'li o'z davrining ziyoli tabaqasidan bo'lib, Shayx Xovand Taxur avlodlari sifatida Toshkentning ijtimoiy va ma'naviy xayotida muhim rol uynaganlar, ma'muriy va diniy amallarni egallaganlar. Bu holat Muhammad Solihxo'janing ziyoli, bilimli shaxs sifatida shakllanishida muhim omillardan biri bo'lgan. Mudammad Solihxo'janing tarixnavis sifatida

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997

shakllanishida esa uning o'z bilimini turli ilm maskanlarida muntazam oshirib borishi va Toshkent tarixiga oid asar yozishni niyat qilgani bosh omil bo'lib xizmat qilgan. U o'zining «Tarixi jadidayi Toshkand» asarini 25 yildan ortiq vaqt (1863 — 1889) ichida yozdi va ushbu kitob Toshkent tarixiga oid yagona mudim tarixiy va tarixiy-geografik manba bo'lib qoldi.«Tarixi jadidayi Toshkand» asari ko'pgina manbalarga tayanib yozilgan va muallif uni yozishda turli mavzulardagi asarlar, rivoyatlar hamda voqealarning guvohlaridan eshitgan ma'lumotlaridan foydalangan; XIX asming 40 -80 yillariga mansub voqealar esa bevosita muallifning o'z ko'zi bilan ko'rganlari asosida yoritilgan..«Tarixi jadidayi Toshkand» asari Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo dududlarida olib borgan harbiy harakatlari, xususan, Oqmasjid, Turkiston, Chimkent va, ayniqsa, Toshkent uchun bo'lgan janglar boshqa manbalardan hududiy va davriy jihatdan keng yoritilganligi bilan ajralib turadi. Mudammad Solihxo'ja Toshkentda bo'lgan janglarda shaxsan ishtirok etgani sababli, Toshkent mudofaasi damda Alimqo'li amirlashkar, Hakimxo'ja qozikalon, Solihbek dodxoh kabi mudofaa tashqilotchilarining Vatan uchun bo'lgan janglari tafsilotlarini ancha mufassal bayon qilgan va bu ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramaydi. Toshkent tarixi bilan bogliqayrim voqealar «Tarixi Shoxruxiy», «Tarixi jahonnamoy», «Xu-losat ul-ahvol» kabi asarlarda ham tilga olingan bo'lsada, Muhammad Solihxo'ja voqealarni eshitganlari va ko'rganlari asosida boyitib, boshqa mualliflarga qaraganda batafsil yoritgan. Xususan, chordoqimlik Yunusxo'ja va uning o'g'illari Sultonxo'ja, Homidxo'ja hokimligi davriga doir ma'lumotlar boshqa asarlarda uchramaydi. Qo'qon xoni Olimxonning Toshkentga yurishi yoki Sheralixonning o'g'li Salimsoqxonning Toshkentdagi mustaqil hokimligi davri barcha manbalardagi tarixiy voqealarga aniqlik kiritadi. «Tarixi jadidayi Toshkand»da Qo'qon xonlarining Toshkentdagi yigirmadan ortiq noiblari hokimligi davri, xususan Salimsoqto'ra, Lashkar beglarbegi, Normuhammad qo'shbegi, Aziz parvonachi, Qanoat otaliqva Admad qo'shbegi davridagi siyosiy-ma'muriy boshqaruv, ular olib borgan obodonchilik hamda bunyodkorlik ishlariga doir keltirilgan ma'lumotlar Toshkentning XIX asr ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid yangi ma'lumotlar bera oladi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida shahar topografiyasi uchun mudimo'rin tutgan asosii inshootlardan yigirmata Madrasa va ko'plab masjidlar, o'ttizga yaqin ziyoratgoh mozorlar, shaharning Yunusxo'ja va qo'qon noiblari davridagi o'rdalari, katta-kichik hammomlar, karvonsaroylar, bozorlar damda shaharda joylashgan turli inshootlarning qurilishi, joylashgan o'rni, me'moriy tuzilishi hamda o'sha davrdagi ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar bizga Toshkent shahrining XIX asrdagi qoyofasini kengroq tasavvur qilish imkonini beradi.Asarda Toshkent shahridagi o'ttizga yaqin ziyoratgoh mozorlar va ular bilan bog'liq ma'lumotlar qayd etilgan bo'lib, bu boshqa turdagi manbalarda uchramaydi. «Tarixi jadidayi Toshkand» asaridagi ma'lumotlarni chuqur o'rganish shahar madaniy-me'moriy yodgorliklarini asrab-avaylashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Muhammad Solihxo'janing Toshkent shahri tavsifida va asarning turli yerlarida o'z davrida Toshkentda yashagan 80 ga yaqin taniqli kishilar — davlat amaldorlari (shahar hokimlari va uning yordamchilari, qozilar, a'lam, muftiy va boshq.), tasavvuf ahli, mudarrislar va qisman qo'shiqchi, sozandalar hamda mohir hunarmandlarning qisqacha biografiyasi hamda turmush tarzi haqida yozganlari shaharning XIX asrdagi madaniy-ma'naviy hayotidan hikoya qiluvchi qimmatli ma'lumotlar sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.Toshkent "O'zbekiston",1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq,iqtisod,mafkura I-jild.Toshkent "O'zbekiston",1996.
3. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida 4-jild. Toshkent "O'zbekiston",1996.
4. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-T.: Manaviyat,2008.
5. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998.
6. Karimov I. Turkiston umumiy uyimiz.-T.: O'zbekiston,1995.
7. Abu Tohirxoja. Samariya // Meros. - T.: Kamalak1991. - B. 7-81.
8. Axmedov B. O'zbekistan tarixi manbalari- T.: O'qituvchi, 2001. - 244 b.
9. Bo'riev O., Sultanov O'. Toshkentning XIX asrdagi ma'naviy-ma'rifiy hayoti tarixidan (Muhammad Solihxo'janing «Tarixi jadidayi Toshkand» asari asosida) // Toshkent 2007 yilda islom madaniyati poytaxti. Toshkent kolleksiyalarida islom qo'lyozmalari. 2007y.
- 10.Bo'rieva H. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari): - T., 2007. - 154 b
- 11.Buryakov Yu.F., Qosimov M.R., Rostovsev O.M. Toshkent oblastining arxeologik yodgorliklari.- T.: Fan, 1975. -120 b..
- 12.Jalilov O. Madrasalar ta'rifida // Fan va turmush.Toshkent,1983. -B.12-13.
- 13.Mirza Alam ibn Mirza Raxim Toshkandi. Ansab as-salatin va tavorix al-xavakin /- T., 2007.- 255 b.
- 14.Molliskiy N.G. Toshkent mahalla va mavzelari. - T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. - 23 b.
- 15.Muhammadjonov A. Qadimiy Toshkent. - T.: Sharq, 2002. - 78 b.
- 16.Muhammadkarimov A. Toshkentnoma. - T.: Movarounnaxr, 2004. - 170 b.
- 17.Munirov Q., Irisov A., Nosirov A. Toshkent tarixida ba'zi siymolar. - T.: Fan, 1983. - 54 b.
- 18.Muqminova R. To'rt asr oldingi Toshkent. - T.: Fan, 1984. - 48 b.
- 19.Nurmuhammedov N., Habibullaev N. Toshkentning qadimiy darvozalari, - T.: O'zbekistan, 1996. - 23 b.
- 20.O'rinboev A. Toshkent solnomasi // Guliston. - Toshkent, 1982. - № 3. - B. 26.
- 21.O'rinboev A., Buriev O. Toshkent Muhammad Solih tavsifida. - T.: Fan, 1983.-56 b.
- 22.O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi. Miriy-Parxish. 6-jild. - T.: O'zbekistan Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. - 704 b.
- 23.O'zbekistonning yangi tarixi. I jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - T.: Sharq, 2000.
- 24.Ozadaev F. Toshkent tarixidan ocherklar (XIX asrning ikkinchi yarmida shaharning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi). - T.: Fan, 1960. - 268 b.
- 25.Qoraev S. Toshkent toponimlari. - T.: Fan, 1991.
- 26.Shorahimov Sh., Ro'zieva M. Toshkent darvozalari // Fan va turmush. - Toshkent, 1982. - № 9. - B. 4 -5.
- 27.Sultanov O', XIX asrdagi Toshkent jome' masjidlari // O'zbekistonning islom sivilizasiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. - Toshkent, 2007. - B. 265-267.

28. Sultanov O'. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent darvozalari haqida ma'lumotlar // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. -Toshkent, 2006 y. B. 70 -77 b.
29. Sultanov O'. Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari. Mas'ul muharrir: t.f.d. A.O'rinboev. - T.: O'zbekistan, 2007. - 262 b.
30. Sultanov O'. Toshkent qadamjoylari va mozorlari // Imom al-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2007. - № 2. - B. 101-105.
31. Sultanov O'. Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida («Tarixi jadidayi Toshkand» va «Xulosat ul-ahvol» asarlaridagi ma'lumotlar taxdili) // O'geMzShp 1apx1. - Toshkent, 2007. - № 3. - B. 57-67.b.
32. Sultanov O'. XIX asr Toshkent madrasalari hujjati // - Toshkent, 2007. - № 3. B. 64-72.
33. Sultanov O'. Xoja Ahrorning Toshkentdagi Madrasa va masjidlari // Imom ad.-Buxoriy saboqlari. - Toshkent, 2004. - № 3. - B. 185-186.
34. Sultanov O'. Muhammad Solihxo'ja va uning «Tarixi Jadidayi Toshkand» asari. -T.:O'zbekiston,2009.106-115 b.
35. Vohidov Sh. Qo'qon xonligida unvon va mansablar // Sharq yo'lduzi. - Toshkent, 1995 y.214-221 bet
36. Vohidov Sh. XIX asr Toshkent tarixchilari. - T., 1996. - 34 b.
37. Yunusxo'jaeva M., Mirismoilova U. Toshkent tarixiga doir hujjatlar. - T.: Fan, 1983.-19b.
38. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - T.: Sharq, 1998.